O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Urazbayeva Sabohat Ortiqboyevna

HUSNIXAT O‘QITISH TEXNOLOGIYASI

(O‘quv qo‘llanma)

Oliy o‘quv yurtlarining 60110500-boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun

“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2025

UO‘K 373.3.091.33:811.512.133(075.8)
74.202.4+81.2O'zb
U 62
Urazbayeva, S.O.
Husnixat o‘qitish texnologiyasi [Matn] : o‘quv qo‘llanma / S.O. Urazbayeva .- Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, 2025.- 192 b.

KBK 74.202.4+81.2O'zb

Ushbu o‘quv qo‘llanma 60110500–boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda husnixat o‘qitish texnologiyasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari, prinsiplari, husnixatga o‘rgatish metodikasining shakllanish tarixi, ta’lim metodlarining tasnifi, husnixat o‘qitish texnologiyasi fanini o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari o‘z ifodasini topgan.

Mas’ul muharrir:
A.R.Hamroyev – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Taqrizchilar:
N.B.Adizova – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
M.S.Ashurova - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi 258-sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.
Ro‘yxatga olish raqami 258-738.

ISBN 978-9910-10-288-2

SO‘ZBOSHİ

Dunyo miqyosida o‘quvchilarning grafik malakalarini takomillashtirishda turli xil metodikalardan foydalanish, pedagogik va psixologik shart-sharoitlarni o‘rganish, til o‘qitish bo‘yicha pragmatik o‘quv topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va ulardan dars jarayonida foydalanish, zamonaviy talablar asosida o‘quv adabiyotlarini yaratish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Mazkur o‘quv qo‘llanmada ona tili darslarida o‘quvchilarning grafik malakalarini takomillashtirish yuzasidan tizimli ishlarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Mamlakatimizda ham o‘zbek tilinining ona tilining davlat tili sifatida nufuzini oshirish, yangi zamonaviy o‘qitish metodikalarini joriy etish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Respublikada shakllangan tilimizga bo‘lgan yangicha siyosat til ta’limiga bo‘lgan zarur talablarni qo‘ymoqda. “Har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak”ligi ona tili ta’limining vazifasi, xususan, o‘qituvchilar til o‘qitishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish jarayoniga ham dolzarb vazifalar qo‘yadi.

Fanning vazifasi-talabalarga yozuv, chiroyli yozuv, yozuvning ahamiyati haqida, o‘z yozuvi ustida ishlash usullari haqida; boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarini husnixatga o‘rgatishning shartlari, qoidalari, metodlari va usullari, tamoyillari, harflarni guruhlash metodlari va usullari, husnixat darslarini rejalashtirish, husnixat darslarining tuzilishi, uni tashkil qilish shakllari, grafik xatolarni aniqlash va bartaraf etish usullari, o‘quvchilar yozuvini baholashga o‘rgatish haqida nazariy ma’lumot berishdir.

Boshlang‘ich sinf bolalarida yetakchi ta’lim faoliyatining asosiy elementlari, zaruriy bilim va ko‘nikmalar shakllanadi. Ushbu davrda fikrlash shakllari sekin-asta rivojlanib boradi, ilmiy bilimlar tizimi yanada kengroq o‘zlashtiriladi, fikrlashni rivojlantirish holati ta’minlanadi.

1-MODUL. HUSNIXATGA O‘RGATISH METODIKASI.

1-MAVZU: HUSNIXATGA O‘RGATISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI.

Reja:

1. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi pedagogik fan sifatida.
2. O‘quvchilarni chiroyli yozuvga o‘rgatishning pedagogik va ijtimoiy ahamiyati.
3. Husnixat va uni o‘qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi.

Tayanch so‘zlar: *husnixat, chiroyli yozuv, ta’lim va tarbiya, og‘zaki nutq, yozuv, husixat o‘qitish metodikasi.*

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. Darslik. –T.: TDPU, 2013. – 70 b.
2. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Sobirova N. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. - T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2008.
3. Adizova N.B., Adizova N.B. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Buxoro: “Durdona”, 2021. -112 b.
4. Adizova N.B, Jumayev R.X., Qo‘ldoshev R.A., Ismatov S.R. Ona tili o‘qitish metodikasi. Buxoro. Durdona.: 2021. -292 b.
5. Safarova R va boshq. Alifbe. - T.: “O‘qituvchi” , 2020
6. H.Bakiyeva, N.Ahmedova, N.Azizova, D.Nosirova, B.Teshaboyeva, U.Ismoilova, B.Egamberdiyeva “Savodga o‘rgatish darslari”.-T.: “Extremum- press”, 2014. -119 b.
7. Safarova R., G‘ulomov M., Inoyatova m. Savod o‘rgatish darslari. 1-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.-T.: “Tafakkur”, 2012.-141 b
8. Azimova I, Mavlonova K, Quronov S, Tursun Sh. “Ona tili va o‘qish savodxonligi ” 1- sinf uchun darslik.I-II qism. “Yangiyo‘l poligraf servis” MCHJ nashriyoti. 2021-yil. 208 b
9. PIRLS 2021 Assessment Frame work. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association forthe Yevaluationof

Yeducational Achievement (IEA), TIMSS& PIRLS International Study Center, Lynch School of Yeducation, Boston College. 2019. www.timssandpirls.bc.edu

Axborot manbalari

1.www. tdpu. Uz
2.www. pedagog. Uz
3.www. Ziyonet. Uz
4www. yedu. Uz
5.tdpu-INTRANET. Ped tdpu-INTRANET. Ped

Husnixat va uni o‘qitish metodikasi pedagogik fan. Inson o‘z fikrini boshqa kishilarga og‘zaki va yozma shaklda yetkazishi mumkin. Nutqning bu shaklining o‘xshash va farqlash tomonlari mavjud bo‘lib ular o‘z o‘rnida afzalliklarga ega. Og‘zaki nutq tovush chiqarib aytiladi va eshitilish uchun mo‘ljallanadi. U kishilarning nutq jarayoni vaqtidagi aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Yozma nutq esa tosh, yog‘och, teri, metall, qog‘oz kabilarga ko‘rish asosida idrok qilinadigan doimiy belgilar orqali yozib qo‘yiladi. Yozuv kishilarning o‘zaro fikr almashishi va bilimlarni egallashning qudratli vositasi hisoblanadi. Yozma nutq avlodlarni bir-biriga bog‘laydi, uzoq saqlanadi. Yozuv tufayli kishi fikri, insoniyat qo‘lga kiritgan bilimlar avloddan-avlodga yetib boradi, abadiy yashaydi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni husnixatga o‘rgatish ehtiyoji yuqoridagi talablar asosida yuzaga keladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni husnixat bilan yozishga o‘rgatish metodikasi ularda aniq, chiroyli va tez yozish imkonini hosil qilishi lozim. Bu kabi vazifalarni amalga oshirish uchun dastur mazmunini va uning talablarini o‘qitish usullarini yozuviga o‘rgatishning gigeyenik shartlarini, o‘quvchilarning yozuvidagi individual kamchiliklarini tahlil qilish sabablarini aniqlash va tuzatish usullarini ishlab chiqish zarur.

Demak yozuv kishi hayotida pedagogik va ijtimoiy ahamiyatga ega. Yuqoridagi talab asosida yozishga o‘rganishi boshlang‘ich sinflardan boshlanadi. 1-4-sinf o‘quvchilarini chiroyli yozishga o‘rgatish uchun o‘qituvchining o‘zi husnixat bilan yozishi, shu bilan birga o‘quvchilarni chiroyli yozishga o‘rgata olishi kerak.

Husnixat va uni o‘rgatish fani amaliy fan bo‘lib u chiroyli yozishga o‘rgatish bilan bir qatorda o‘qitish tarbiyalash, vazifalarini bajaradi.

Pedagogika oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan Husnixat va uni

o‘tilish metodikasi fanining maqsadi:

1.Talabalarga husnixat metodikasidan nazariy ma’lumot berish.

2.Talabalarni-bo‘lg‘usi o‘qituvchilarni husnixat talablari asosida yozishga o‘rgatish.

3.Boshlang‘ich ta’limida o‘quvchilarni husnixatga o‘rgatishning metod va usullari bilan qurollantirish.

Boshqa fanlar kabi husnixat va uni o‘qitish metodikasining o‘z predmeti bor. Bu fanning predmeti ta’lim berish jarayonida chiroyli yozuvni egallash, grafik jihatdan to‘g‘ri chiroyli yozishga o‘rgatish hisoblanadi.

Husnixat va uni o‘rgatish metodikasi fani o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

- talabalarga chiroyli yozuv haqida nazariy bilim berish;
- o‘z dastxatlari ustida ishlash yuzasidan malakalar xosil qilish;
- boshlang‘ich sinflarda husnixat darslarini rejalashtirish, va tashkil etishga o‘rgatish;

-boshlang‘ich sinflar uchun husnixat materiallarini tanlay olish tamoyillari bilan tanishtirish.

Birinchidan husnixat bilan yozish o‘quvchilardan mehnat madaniyatini tarbiyalaydi. Topshiriqlarni toza, aniq va madaniyat bilan bajarish ko‘nikmasini hosil qiladi.

Ikkinchidan dastxatga pala-partish va be’etibor munosabatda bo‘lish o‘quvchilarning imloviy savodsizligini keltirib chiqaradi. Natijada o‘quvchilar qiladigan ishlariga o‘ylab o‘tirmay bajaraveradilar , o‘z xato kamchiliklarini ham o‘ylab ko‘rmaydigan bo‘lib qoladilar.

Uchinchidan husnixat bilan to‘g‘ri yozish ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib turli rasmiy hujjatlarni yuritishda kishilar unga ehtiyoj sezadi. Husnixat bilan yozilmagan, to‘ldirilmagan hujjatlarni o‘qishga kitobxonning ko‘p vaqt sarflashiga to‘g‘ri keladi. Vaholanki, maktabda har kuni o‘qituvchi 30 nafar o‘quvchilar daftarini tekshiradi. Agar o‘qib bo‘lmaydigan qilib yozgan bo‘lsa o‘qituvchining ham unga ko‘p vaqti sarf bo‘ladi. Aniq va ravon qilib yozgan dastxati o‘qituvchining ishini yengillashtiradi, keyingi ta’limiy maqsadlarini amalga oshirishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Husnixat va uni o‘qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi.

Husnixat va uni o‘qitish metodikasi boshqa fanlar bilan uzviy aloqada bo‘lib ularning natijalariga tayanadi. Amaliy fan hisoblangan

husnixat va uni o‘qitish metodikasi til o‘rganish jarayoni hamdir. Yozish uchun tanlangan til faktlari ayni vaqtda adabiy tilni o‘zlashtirib borishga yordam beradi.

Pedagogika ta’lim tarbiya haqidagi fandir. U ta’lim-tarbiya tamoyillarini belgilab beradi, barkamol shahsni tarbiyalash yo‘llarini ko‘rsatadi. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi pedagogikaning ana shu qoidalariga asoslanadi ya’ni husnixatga o‘rgatishda ta’lim-tarbiya birligiga amal qiladi.

Husnixat va uni o‘qitish metodikasining asoslaridan yana biri psixologiyadir. Psixalogiya his, tasavvur, fikr, intilish, istak, havas, qobiliyat kabi tushunchalar haqida ma’lumot beradi. Husnixatga o‘rgatishda bola psixologiyasidagi yuqoridagi holatlarga tayanib ish ko‘riladi, o‘quv materiali tanlanadi, sinflar bo‘yiicha taqsimlanadi.

Fiziologiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarix fanlari ham husnixat va uni o‘qitish metodikasi bilan uzviy aloqadadir.

O‘quvchining yozuv jarayonidagi fiziologik holati qo‘l harakatlari, yozganlarini to‘g‘ri, aniq tallafuz qilishda fiziologiyaga tayansa yozuv uchun tanishgan matnni tahlil qilishda adabiyotshunoslik materiallariga, yozuvning paydo bo‘lishi, uning jamiyatdagi tutgan o‘rnini tushunishda esa tarix fanining yutuqlariga asoslangan holda ish ko‘radi.

Savol va topshiriqlar

1. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi nima uchun pedagogik fanlar qatoriga kiradi?
2. Husnixatga o‘rgatish metodikasining predmeti deganda nimani tushunasiz?
3. Yozuvning pedagogik va ijtimoiy ahamiyatini tushuntirib bering.
4. Husnixatga o‘rgatish metobikasining maqsadi nimalardan iborat?
5. Husnixatga o‘rgatish metodikasining vazifalari nimalardan iborat?

2-MAVZU: YOZUVLAR TARIXIDAN MA’LUMOT.

Reja:

1. Yozuvning paydo bo‘lishi va tarixiy ahamiyati.
2. Yozuv va uning taraqqiyot bosqichlari.
3. O‘zbek yozuvining taraqqiyot bosqichlari.

Tayanch so‘zlar: *yozuvning paydo bo‘lishi, piktografik yozuv, fonografik yozuv, yozuv turlari, yozuv va uning taraqqiyot bosqichlari.*

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi.Darslik. –T.: TDPU, 2013. – 70 b.

2. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Sobirova N. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. - T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2008.

3. Adizova N.B., Adizova N.B. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Buxoro: “Durdona”, 2021. -112 b.

4. Adizova N.B, Jumayev R.X., Qo‘ldoshev R.A., Ismatov S.R. Ona tili o‘qitish metodikasi. Buxoro. Durdona.: 2021. -292 b.

5. Safarova R va boshq. Alifbe. - T.: “O‘qituvchi” , 2020

6. H.Bakiyeva, N.Ahmedova, N.Azizova, D.Nosirova, B.Teshaboyeva, U.Ismoilova, B.Egamberdiyeva “Savodga o‘rgatish darslari”.-T.: “Extremum- press”, 2014. -119 b.

7. Safarova R., G‘ulomov M., Inoyatova m. Savod o‘rgatish darslari. 1-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.-T.: “Tafakkur”, 2012.-141 b

8.Azimova I, Mavlonova K, Quronov S, Tursun Sh. “Ona tili va o‘qish savodxonligi ” 1- sinf uchun darslik.I-II qism. “Yangiyo‘l poligraf servis” MCHJ nashriyoti. 2021-yil. 208 b

9.PIRLS 2021 Assessment Frame work. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association forthe Yevaluationof Yeducational Achievement (IEA), TIMSS& PIRLS International Study Center, Lynch School of Yeducation, Boston College. 2019. www.timssandpirls.bc.edu

Axborot manbalari

1.www. tdpu. Uz
2.www. pedagog. Uz
3.www. Ziyonet. Uz

4www. yedu. Uz
5.tdpu-INTRANET. Ped tdpu-INTRANET. Ped

Yozuvning paydo bo‘lishi til qadar uzoq tarixga ega emas. Hozir bizga ma’lum bo‘lgan tillarning yozuv tarixi o‘n-o‘n besh ming yildan oshmaydi. Ba’zi tillarda hozirgacha yozuv yo‘q. Yozuv ehtiyoj tufayli paydo bo‘ldi. Boshlang‘ich davrlarda xotirada saqlab qolish vositasi tabiat predmetlari bo‘lgan. Predmetlar simvolikasi shunday vazifani bajargan. qarama-qarshi qabila vakillarining navbatma-navbat trubka chekishi tinchlik simvoli bo‘lgan.

Yozuv jamiyatning eng buyuk kashfiyotlaridan biridir. Agar yozuv bo‘lmaganida, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yuksak madaniyat na’munalari bizgacha yetib kelmagan bo‘lar edi.

Tildagi uzoq yillar mobaynida yuz bergan fonetik, grammatik o‘zgarishlardan faqat yozuv tufayligina xabardormiz. Faqat yozuv orqali til evolyutsiyasi to‘g‘risidagi tasavvurimizni jonlantira olishi mumkin.

Agar yozuv bo‘lmaganda, buyuk siymolarning donishmandona fikrlaridan bahramand bo‘la olmas edik.

Yozuvning yutug‘i: tilda bo‘lmagan imkoniyatlar yozuvda yuzaga chiqadi. Ammo u tilning to‘liq aksi emas, balki shartli va sun’iy aksidir.

Jamiyatning kelgusi taraqqiyotida radio va televizor, internet aloqa vositalari kabi yozuvdan ustunroq bo‘lgan yangi vositalar ham yuzaga kelishi mumkin.

Yozuvning o‘ziga xos xarakterli belgilari bor:

1. Yozuv mustaqil va asosiy aloqa vositasi bo‘lolmaydi, yordamchi vosita hisoblanadi.

2. Nutqni uzoq masofaga yetkazish va keyingi davrlarga qoldirish uchun xizmat qiladi. Grafik belgilar yozuvning asosiy qurolidir.

Demak, **yozuv** ko‘z bilan ko‘radigan va kishilar o‘rtasida o‘ziga xos aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladigan grafik belgilar sistemasi bo‘lib, uning jamiyatda o‘ziga xos katta o‘rni va xizmati bor, ya’ni yozuv ma’lum bir masofa bilan ajralgan odamlar orasidagi aloqalarni yaxshilashda, yozma adabiyotlarni va yozma adabiy tilni yuzaga keltirishda, ma’lum bir davrda yaratilgan madaniy-adabiy yodgorlikni keyingi davrlarga yetkazib berishda nihoyat darajada muhim rol o‘ynaydi.

Olimlar yozuvning paydo bo‘lishi va ahamiyati to‘g‘risida maxsus asarlar yozishgan. Masalan, **Forobiy**ning Aristotel «Ritorika»siga yozgan sharhida yozuv tizimi, uslubiyat haqidagi fikrlari o‘z ifodasini topgan. U tilshunoslikning mundarijasini olti bo‘limdan iborat deb belgilaydi va beshinchisi «**yozuv qonunlari va to‘g‘ri talaffuz (orfoepiya) haqidagi fan**» ekanligini ta’kidladi. Olim «Kitob fi sanoat al-kitoba» («Yozuv san’ati haqida kitob») nomli asar ham yozgan.

Beruniy: «Agar insondagi so‘zlash quvvati hamma joyga shamol kabi yoyiluvchi bo‘lmaganda edi va zamonlardan zamonlarga nafaslar singari o‘tuvchi xat yozish san’atini keltirib chiqarmaganda edi, o‘tmish zamonning xabarini, ayniqsa, uzoq zamonlar o‘tganda hozirgi zamon tillariga qanday ko‘chirib bo‘lar edi?»

V.Gumboldt «Harf yozuvi va uning til qurilishi bilan aloqasi haqida» (1824) kabi asarlar yozgan.

Yozuv va uning taraqqiyot bosqichlari.

Yozuv o‘zining taraqqiyotida turli bosqichni bosib o‘tgan. Dastlab buyumlardan *mnemonika* yoki «eslatuvchi» vositalar sifatida foydalanish zamonaviy yozuvga olib keluvchi mashaqqatli uzoq yo‘ldagi birinchi qadam bo‘ldi.

Ammo bu vositalar fikrni uzatmas, balki uni faqat eslatardi. Masalan, arqon, chilvir, ip, kanoplarni xilma-xil rangga bo‘yash, ularga turli tugunchalar qilish bilan ayrim voqeani, fikr-istaklarni o‘zlaridan uzoqda turuvchilarga nutqsiz yetkazganlar. So‘ngra buyumlarga aniq ma’no berila boshlagan. Buyumga ma’no birkitib qo‘yishning bu usuli *buyumli yozuv* deb atalgan.

O‘tmishda, hozirgi zamon yozuvlari bo‘lmagan davrlarda, odamlar ba’zi hodisalar va voqealarni uzoq masofaga yetkazish niyatini yoki zamonda (vaqtda) abadiylashtirish maqsadlarini jonli va jonsiz narsalarning rasmini chizish orqali amalga oshirganlar. Bunday yozuv *piktografik yozuv* deb nom olgan.

Piktografik yozuvda har bir rasm bir tushunchani ifodalaydi. Masalan, besh qayiq, baliqchi qush, otliq kishi, toshbaqa, quyosh rasmi berilgan. Uning mazmuni quyidagicha: *Qabila boshlig‘i otda yo‘l boshlamoqda. Qayiqda 50 kishi va qabila boshlig‘ining Baliqchi ismli safdoshi bor. Ko‘lda uch kun suzib, quruqlikka chiqqanlar.*

Piktografik yozuv asta-sekin takomillashib, *ideografik* (idea – tushuncha, grafo - yozaman) *yozuv* paydo bo‘ldi. Uni *logografik* (logos – so‘z) *yozuv* deb ham yuritadilar. Bunda tildagi har bir so‘z o‘z

simvoliga ega bo‘ladi. Masalan, qadimgi arablar «yuz ming» sonini itbaliqning shakli orqali izohlashgan. Logografik yozuvning bir ko‘rinishi **mixxat**dir. Bu yozuv qadimgi Mesopotamiyada qo‘llanilgan.

Logogrammaning piktogrammadan farqi shundaki, piktogramma bevosita predmetni aks ettiradi, logogramma so‘zning ma’nosini izohlaydi.

Logografik (so‘z yozaman) yozuvning mukammallashgan shakli *ieroglifik yozuvdir* (muqaddas yozuv). Bu yozuv qadimgi Arabistonga, hozirgi Xitoyga xosdir. Xitoy tilining to‘liq lug‘atlarida qirq mingga yaqin ierogliflar qayd qilingan. Hozirgi zamon matnlarida esa 2-5 ming atrofida ierogliflar qo‘llanadi.

Yozuvning ommaviylashuvi uchun uni, albatta, osonlashtirish, soddalashtirish va qulaylashtirish kerak edi. Yozuvni soddalashtirishning eng unumli va progressiv usuli fonografik yozuvga o‘tish bo‘ldi.

Fonografik yozuv. Ayrim yozuvlar, masalan, *piktogramma*, *sillabogramma* (*bo‘g‘in yozuv*) va *ideogrammalar* (shartli belgi, simvol) evolyusiyasi natijasida harflar paydo bo‘ldi yozuv taraqqiyotida ***harf-yozuv davri*** boshlandi. Hozirgi vaqtda jahon aholisining taxminan to‘rtdan uch qismi mana shu yozuvdan foydalanadi. Harf tovush yozuvi hozirgi vaqtda, asosan, yirik to‘rt xil yozuv sistemasidan iborat. Lotin yozuvi asosidagi yozuvdan jahon aholisining 30%, slaviyan-krillitsa yozuvidan 10%, arab yozuvidan 10%, hind yozuvidan 20% aholi foydalanadi.

Fonografik yozuv ko‘p ko‘rinishlarga ega. Ular quyidagilardan iborat:

1. Sillabik yoki bo‘g‘in yozuvi. Bu yozuv qo‘shma so‘zlarni mayda qismlarga bo‘lish usuli bilan paydo bo‘ldi. Mayda qismlar bo‘g‘inlarga to‘g‘ri keladi. U yoki bu so‘zni yozish lozim bo‘lsa, ana shu bo‘g‘inlarni bir-biriga qo‘shish usuli bilan tuzishar edi. Bu yozuvga qadimgi hind yozuvi devanagari yaxshi misol bo‘la oladi. Bo‘g‘inlarning soni turli tillarda turlicha bo‘lgan. Masalan, Kipr orolidagi qadimgi grek tilida 65 ta bo‘g‘in birligi, Gvineya orolidagi vaylar tilida 226 ta bo‘g‘in birligi bo‘lgan.

2. So‘z shakllarini fonetik birliklar – tovushlar orqali ifodalash. Dastlabki alifbeli yozuv Nil daryosi vodiysiga bostirib kelgan **giksoslar** tarafidan yaratilgan. Alifbe so‘zi giksoscha *alif – ho‘kiz, be < bet – uy* demakdir.

Eramizdan bir yarim ming yil ilgari giksoslar alifbesini **finikilar** o‘zgartirib, o‘z tilining tovushlariga moslashtirib olganlar. Dunyodagi ko‘p tillarning fonetik yozuvlari finikilarning yozuvi asosida vujudga kelgan. Keyinchalik finikilarning bu alifbosi uch tarmoqqa bo‘linib rivojlandi: 1. **Oromiy** – suriya tarmog‘i, u Sharqqa qarab tarqalgan. 2. **Janubiy Arabiston** tarmog‘i, u Janubga tomon tarqalgan. 3. **Yunon-evropa** tarmog‘i, u G‘arbga qarab tarqalgan.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga nazar tashlar ekanmiz, ularning bevosita qadim oromiy yozuvi ta’sirida shakllanib, rivoj topganligining guvohi bo‘lamiz.

Yozuv madaniyati tarixiga nazar tashlansa, Markaziy Osiyoda yashagan xalqlar orasida yagona alifbe bilan cheklanib qolgan ulusning o‘zi yo‘q. Chunonchi, sug‘d tili o‘z tarixi mobaynida oromiy, milliy sug‘d, moniy, suryoniy yozuvlaridan foydalanganlar. Qadimgi xorazmiy adabiy tili uchun xorazmiy, arab alifbelari amalda bo‘lgan. Bular ba’zi ishlarda «Avesto» tili va yozuvi, xorazm tili va yozuvi, baqtriya tili va yozuvi, sug‘d tili va yozuvi, sak tili va yozuvi degan nomlar bilan ataladi.

Turkiy xalqlarning ota-bobolari 22 harfli oromiy yozuvidan foydalanib, o‘zlarining 26 harfli turk-run (sak tili va yozuvi)ni kashf etganlar.

Chunki 1970-yilgacha turkiy yozuv eramizning VI-VII asrlarida paydo bo‘lgan, degan fikr yetakchi edi. Unga nisbatan Urxun-Enasoy atamasini ishlatganlar. 1970-yili Olmoti yaqinidagi Issiq qo‘rg‘onini tekshirganda undan miloddan oldingi ko‘plab buyumlar qatori kumush kosa topildi. Uning sirtida qadimgi sak (turkiy) yozuvi bor edi.

Issiq yozuvi nomi bilan mashhur bo‘lgan bu yozuv (26 harfli)ni A.S.Omonjo‘lov o‘qib talqin etgan. Olim bu qadimgi turkiy yozuvning ildizlarini ikki yarim ming yillik o‘tmishdan izlamoq kerakligini ta’kidlaydi. Xuddi Issiq yozuviga o‘xshash yozuv Farg‘ona vodiysining Isfara, Quva, Qal’ai bolo, Surxondaryoning Dalvarzintepa, Xolchayon, Fayoztepa, Afg‘onistonning Dashti Novur kabi joylaridan ham topildi.

O‘zbek yozuvining taraqqiyot bosqichlari**.**

O‘zbek xalqi qadimda turli yozuvlardan foydalanib kelgan. Asosiy yozuv tizimini fonografik, ya’ni tovush yozuvi, harfiy yozuv yoki alfavit tashkil etgan. O‘zbek xalqi oromiy, yunon, sug‘d, xorazm, ko‘shon, eftalit, pahlaviy, suriya, hind, urxun (runik), uyg‘ur, arab, lotin, rus grafikasiga asoslangan yozuvdan foydalangan.

Eramizdan oldingi klinopis, mix yozuv, oromiy yozuvi.

III-I yunon, karoshta.

Eramizning I asridan sug‘d

II-III xorazm

V-VIII urxun-runik (rus xizm.Remezov -XVIII, shved Iogann Stralenberg, XIX asr Grigoryan Spasskiy, 1891 akad. V.V. Radlov, daniyalik Vilgilm Tomsen, keyinchalik P.M.Melioranskiy, S. E. Malov).

VI-VIII asrlar uyg‘ur, VII-VIII arab, 1929-yil lotin, 1940-yil rus, 1993-yil lotin (26 harf, 3 harf birikmasi va 1 ta tutuq belgi).

Rus grafikasi asosidagi o‘zbek alfavitida 33 ta harf va ikkita maxsus belgi bor. Ularning yutuq va kamchiliklari. Unlilar sistemasi. Singormanizm. Yangi alfavit.

Uning siyosiy ahamiyati.

-o‘z qadrini bilgan so‘z qardini biladi.

-qadimgi turkiy (urxun-enasoy) yozuvining istifodan chiqib ketishi tarixi tarixiy zaruratga bog‘liqmi, uning yo‘qolib ketishiga nima sabab bo‘lgan?

-akad.Bartold: turk tili tabiatiga xos, ayniqsa, singarmonizm qonuniga moslashtirilgan bu yozuv, uning o‘rnini egallagan uyg‘ur va arab yozuvlariga nisbatan ancha mukammal edi.

-bu yozuvni dastlab XVII asrda Evropa olimlari ko‘rishgan va «run yozuvi» - sirli yozuv deb atashgan.

-eramizning VI asrida Yettisuv va Sharqiy Turkistondagi turkiylarni birlashtirgan Istami hoqon Vizantiya imperatori Uostin II ga ana shu yozuvda xat yozgan. Demak, u davlat miqyosida qo‘llangan.

-Ibn Arabshoh «Ajoyib ul-maqdur finavoyibi Taymur (Temur falokatlarida qismat o‘yinlari)» asarida «Xitoyda turklarning «dulbarjin» deb atalgan yozuvini ko‘rdim, harfi – qirq bitta», deb fikr bildirgan (G‘A.AR.Qadimgi turkiy til).

-Klosan J.: Davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan bitiklarning ijrochilari Yuoik-tegin va boshqalar maxsus maktabda o‘qitilgan. Bu maktabning asosiy vazifasi saltanat idorasi uchun – oddiy yozuvdan farqli o‘laroq chiroyli va qulay alfavit yaratish edi.

-«dulbarchin» yozuvining topilishi ham antiqa. Bu haqda dastlab (1962) Amsterdamlik olim N.Vidzen xabar bergan. 1772-yilda D.Messershmidt buni kelt yozuvi, P.Pallas uni Enasoy dashtlaridagi ko‘chmanchi qadimiy got qabilalariniki, deydi.

-oradan bir asr o‘tgach, farang olimi J.Abel-Remyuzi Xitoy yilnomasidagi bir jumlaga asoslanib, bu yozuvlar turkiylarga xos, u Enasoy qirg‘izlariga aloqador, deydi. J.Abel-Remyuzining to‘g‘ri taxmini XIX asr o‘rtalariga kelib tamoman rad etildi.

-rus xitoyshunosi V.Vasilev munozaraga yakun yasadi. Sibir yozuvlarining turkiyligi ayon bo‘ldi. Mug‘ulistondan topilgan yozuvlarni V.Tomsen o‘qidi va tarjima qildi.

- J.Abel-Remyuzining fikri nima uchun inobatga olinmadi? Chunki arab yozuvining mavqeyi baland edi. Arab istilochilari M.Osiyoga o‘zlari bilan madaniyat, ilmu urfon emas, balki mo‘g‘ullar kabi dahshat, yong‘in, g‘orat olib keldi, kutubxonalarga o‘t qo‘yishdi. Eng tubanligi toshga bitilgan yozuvlarni «begona yozuv» deb ularni muttasil yo‘qotib yuborishdi. Boburning arab yozuvini isloh qilish, uni turkiylashtirishga bo‘lgan orzulari sarobga aylandi.

-«dulbarchin» yozuvi sharqu g‘arbda hamon o‘rganilmoqda.

Yozuvning paydo bo‘lishi va rivojlanish bosqichlari. Bugun biz hayotimizni kitobsiz tasavvur qilolmaymiz. Inson o‘zining uzoq yillik tarixi davomida kitobdan yaxshiroq do‘st va mehribon ustozni uchratmadi. U insonga kamolot yo‘lini ko‘rsatdi va hamma vaqt og‘irini yengil qilib keldi. Lekin shuni ham unutmaslik lozimki, agar yozuv bo‘lmaganda inson kitobday bebaho do‘stga sohib bo‘lmagan bo‘lur edi. Kitob yaratish tarixi ham ancha qadimga borib taqaladi. Biz bu borada mukammal ma’lumot bermaymiz, faqatgina o‘tmishda yaratilgan bazi bir kitoblar bilan yuzaki tanishib chiqamiz:

Qadimgi Misrda kitob

Yozuv qachon paydo bo‘lgan? U qanday davrlarni boshidan kechirib, hozirgi mavqega erishgan? Bu savollarga javob topish uchun insoniyat tarixiga nazar tashlash, uning aqliy yuksalish bosqichlarini birma-bir ko‘zdan kechirish lozim.

Albatta, inson, avval, gapirishni o‘rgandi, so‘ngra unga tajribalarini kelgusi avlodlarga yetkazish istagi shakllandi va u qo‘liga qalam (avval bu vazifani oddiy tosh bajargan) oldi.

Xo‘sh, yozuv o‘zi nima? Yozuv muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o‘rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. U kishilarning o‘zaro aloqa qilishida, fikr almashishida muhim vositadir. Yozuvning paydo bo‘lishi, aloqaning maxsus vositasi sifatida xizmat qilishi katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Yozuv tufayli

kishilik tajribasi avloddan-avlodga yetkazilmoqda. Shuning uchun ham yozuvni kishilik jamiyati madaniy taraqiyotining tom ma'nodagi ibtidosi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiylaridan biri, deb hech ikkilanmasdan aytish mumkin. Faqat yozuv borligi uchungina biz tilning tarixiy taraqqiyotini kuzatish imkoniyatiga ega bo'lamiz, oldingi avlodlarimiz tilini o'rganib, uni tilimizning hozirgi bosqichi bilan qiyoslash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Sopol taxtachadagi kitob (Vavilon)

Qadimgi o'rama kitob

Tabiiyki, yozuv tildan ancha keyinroq paydo bo'lgan. Olimlarimizning ta'kidlashlaricha tovush tili 400-500 ming yillar ilgari yuzaga kelgan. Yozuvning paydo bo'lganiga esa 4-5 ming yillar bo'lgan. Inson ovozi (nutqi) **zamon (vaqt)** va **makon (masofa**) nuqtayi nazaridan nihoyat cheklanganligi hammamizga ma'lum. Ana shu cheklanishni bartaraf etish istagi va zaruriyati yozuvni paydo bo'lishiga olib keldi. Inson o'z og'zaki tili (nutqi) bilan fikrini muayyan va cheklangan masofada yetkazib biladi, xalos. Boshqa sharoitlarda tilga ehtiyoj paydo bo'lishi bilan inson bu ehtiyojni qondira oluvchi boshqa vositalarni qidira boshladi. Bu qidiruv va izlanishlar samarasi sifatida belgilar tizimidan iborat yozuv ixtiro qilindi.

Yozuvning paydo bo'lishi va taraqqiyoti jamiyat rivoji,

shuningdek, muayyan masofadagi kishilarning o‘zaro aloqa qilish ehtiyoji, siyosiy, huquqiy, diniy va estetik xarakterdagi axborotlarni qayd etish, saqlash zaruriyati bilan bevosita bog‘liq.

Yozuv og‘zaki tilga nisbatan ikkilamchi, qo‘shimcha aloqa vositasi bo‘lsa-da, unga qaraganda ko‘p afzalliklarga ega. Ayniqsa, tilning insoniyat qo‘lga kiritgan tajriba – bilimlarni saqlash va avlodlarga yetkazishdan iborat vazifasi yozuv orqali bajariladi.

Ta’kidlaganimizdek, yozuv bugungi shaklini olgunga qadar uzoq va murakab tadrijiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Inson bu yo‘lda juda ko‘p izlandi. Eng qadim davrlarda dunyo xalqlarining deyarli barchasida keng tarqalgan **“eslatuvchi”** belgilar ana shu uzoq va zahmatli izlanishlarning ilk ko‘rinishlari edi. Masalan, muayyan miqdorni ifodalash uchun turli toshlar, chig‘anoqlardan foydalanilgan, tayoqlar, daraxtlarga har xil iplar bog‘lash, tugunlar tugib qo‘yish va bu vositalar bilan muayyan axborotni esda saqlash yoki muayyan masofaga yuborishga harakat qilingan. Gohida bir xabarni uzoq masofaga yetkazish uchun tutun, gulxan, baraban ovozi va shu kabilar qo‘llangan. Ma’lumot yoki xabarni uzoq vaqt saqlash uchun ramziy ma’no berilgan buyumlardan foydalanilga: qo‘rg‘on – marhum ko‘milgan joy belgisi; “shaharlarni ishg‘ol etish” mafhumi yonayotgan xonaqoh tarzida; “sayohat” – qator izlar silsilasi bilan; “qurbonlik qoni” – gul tasviri bilan; slavyan qabilalarda non-tuz – do‘stlik belgisi; trubka – tinchlik, sulh belgisi va boshqalar. Tasvir rangi ham u davrlarda katta ahamiyatga ega edi. Masalan, sariq rangda bo‘yalgan odam rasmi ayol kishini, binafshrang esa yuqori mansabdagi hukmdorni bildirar edi. Rang ramzi (nishonasi) ham qo‘lyozma madaniy yodgorliklarda katta rol o‘ynar edi: ko‘k rangi janubni, qora va qizil ranglar **“xiradmandlik”** va **“yozuv”** tushunchalarini bildirar edi. **“Buyumli yozuv”** nomi bilan yuritiladigan bunday axborot vositalarining qoldiqlarining ba’zilari hozir ham saqlangan. Masalan, biror fikrni esdan chiqarib qo‘ymaslik uchun ro‘molchaning uchini tugib qo‘yish odatini yodga olish mumkin. Harflarning shaklini tushuntirishda dastlab doskaga yozib ko‘rsatish juda muhimdir. Buning uchun o‘qituvchining o‘zi yaxshi yoza oladigan bo‘lishi kerak. Agar o‘qituvchi bir harfni bir safar boshqa shaklda, ikkinchi safar yana bir shaklda yozib ko‘rsatsa, o‘quvchilar ikkilanib qoladilar va xatoga yo‘l qo‘yadilar. Bunday holatning oldini olishning eng yaxshi va ishonchli yo‘li bu harflarni axborot texnologiyalari (kompyuter, elektron

doskalar)dan foydalanib o‘rgatishdir. Elektron vositalar yordamida harf va uning unsurlarini bexato va samarali o‘rgatish mumkin. O‘qituvchi ham bu vositalar yordamida harflarni har safar har xil emas, balki har safar bir xil yozishga erishadi. Elektron vositalar orqali harflarni yozish jarayonini qayta-qayta ko‘rsatish mumkin. Ularni ekranda (elektron doskalarda) kerakli darajada kattalashtirib ko‘rsatish mumkin. O‘quvchi to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri yozilgan harflarni bir-biridan ajrata olishi, ulardagi asosiy kamchiliklar nimadan iborat ekanligini ko‘rsata olishi lozim. Shuning uchun ham o‘quvchilarda harfning shaklini analitik ko‘rish malakasini o‘stirish talab etiladi. Analitik ko‘rish malakasi faqat to‘g‘ri va noto‘g‘ri yozilgan harflarni solishtirish orqali o‘stirib boriladi. Bu uchun o‘qituvchi elektron doskani ikki qismga ajratib, bir qismida noto‘g‘ri yozilgan harfni, ikkinchi qismiga noto‘g‘ri yozilgan shaklini ko‘rsatadi. Ularni bir ekranga birlashtirib, qiyoslaydi va noto‘g‘ri yozilgan harfni “kamchiliklari”ni kattalashtirib ko‘rsatadi. Bu o‘quvchilar xotirasida muhrlanib qoladi va ular bunday xatolarni bartaraf etish yo‘llarini eslab qoladilar O‘qituvchi o‘rgatmoqchi bo‘lgan harfning shaklini va yozilish tartibini elektron doskada ko‘rsatib bergandan so‘ng o‘quvchilarga 2-3 qator mustaqil yozishga ruxsat etish mumkin. Bu vaqt ichida o‘qituvchi sinfni aylanib, o‘quvchilarning yozuvini tekshirib chiqishi va xato yozayotgan o‘quvchilarning yozuvlaridan bittasini namuna uchun tanlab olib, doskada o‘quvchi qanday xato yozgan bo‘lsa, o‘qituvchi ham shunday shaklda yozib ko‘rsatadi. Agar o‘quvchilar o‘z o‘rtoqlarining yo‘l qo‘ygan xatosini ko‘rsalar, shu ondayoq qo‘l ko‘tarib, uni tuzatishga harakat qiladilar. Agar o‘quvchi harfni juda ham noto‘g‘ri yozgan bo‘lsa, o‘quvchilar taajjublanadilar va unga tanqidiy nazar bilan qaraydilar.

Bunday holatni o‘zimizning afsonalarimizda ham uchratish mumkin. Masalan, ba’zi afsonalarda asosiy qahramon yovuz kuchlar ta’qibiga uchrab qochadi va ulardan omon qolish uchun turli xil buyumlardan foydalanadi. Masalan, **qayroqtosh, oyna va taroq.** Agar asar qahramoni orqasiga oynani tashlasa katta dengiz paydo bo‘ladi, agar taroqni tashlasa kishi o‘tmas o‘rmon hosil bo‘ladi, agar toshni tashlasa baland cho‘qqili tog‘ paydo bo‘ladi va yozuv kuchlar bu to‘siqlardan o‘tolmaydilar.

Neolit davriga kelib odamlar ba’zi hodisa va voqealarni uzoq masofaga yetkazish niyatini jonli va jonsiz narsalarning rasmini chizish

orqali amalga oshirganlar. Bunday yozuv **frazeografiya** deb nom olgan. Frazeografiya -fraza, gap, grafiya - yozaman, ya’ni gap yozaman ma’nosini bildiradi. Frazeogramma yozuvi ikki turga bo‘linadi: **a) aks (tasvir) yozuvi; b) qadimgi shartli alomatlar. Aks (tasvir) yozuvini** piktografiya (piktus- tasvir, grafiya-yozaman) deb ataganlar. **Piktografiya** (rasmli yozuv)da rasm bilan yozuv o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud bo‘lgan, chunki har ikkalasi ham ko‘rish orqali idrok qilinadi. Piktografik yozuvni ibtidoiy tasviriy san’at ichida yuzaga kelgan deyish mumkin. Ma’lumki, arxeolog olimlarimiz juda ko‘p qadimiy rasmlarni kashf etganlar. G‘or devorlari, turli xildagi toshlar, suyaklar va boshqa predmetlarga o‘yib ishlangan xilma-xil hayvonlarning rasmlari, umumiy mazmunga birlashuvchi tasviriy lavhalar – bularning bari piktografik yozuvning asoslaridir.



Xulosa qilib aytish mumkin, ibtidoiy tasviriy san’at ikki yo‘nalishda – umuman rasmlar va muayyan axborot vositasi, ya’ni yozuv sifatida shakllana borgan. Buni dunyo tillarining juda ko‘pchiligidagi **“yozmoq”** ma’nosidagi so‘zlarning etimologiyasiga e’tibor qilganda ham bilish mumkin. Bunday so‘zlarning etimologiyasida asosiy mazmun rasm chizish jarayoni bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Masalan, qadimgi turkiy tillarda “yozmoq” tushunchasi **“bit(i)moq”** fe’li (**“bitik” – yozuv, kitob)** bilan ifodalangan. Bu fe’lning o‘zagi xitoycha **“bi” (mo‘yqalam)** so‘zi bilan aloqador bo‘lib, dastlabki ma’nosi **“o‘ymoq, o‘yib bezamoq”,** undan keyin **“yozmoq”** demakdir. Slavyan tillardagi **“pisati” (rus. “pisat” – “yozmoq”)** fe’lining ma’nosi ham dastlab mo‘yqalamda rasm chizish bilan bog‘liq bo‘lgan (rus. **“jivopis”** – rangtasvir so‘zi bilan qiyoslang). Bu fe’lning o‘zagi lot. **“pingere” (rasm solmoq)** so‘zi bilan aloqadordir, **“pisati”** fe’lining dastlabki ma’nosi, ko‘rinadiki, **“rasm solmoq”, “bezamoq”-**dan iborat bo‘lgan. Gotcha **“melian” (yozmoq)**

fe’lining dastlabki ma’nosi ham mo‘yqalamda “rasm solmoq” bo‘lib, bu fe’l hozirgi nemis tilida **“malen”** shaklida va “rasm solmoq” ma’nosida qo‘llanadi. Yunon tilidan ko‘pgina tillarga o‘tgan **“grafika”** so‘zi ham etimologik jihatdan o‘yish, tirnash tushunchalarini ifodalaydi. Yoqorida keltirganlarimiz barcha misollar yozuvning rasm bilan uzviy bog‘liq ekanligini yaqqol ko‘rsatadi.

Qadimgi shartli alomatlar sirasiga avlod va qabila nishonlari, avlod, qabila va shaxs mulki alomatlari (masalan, **tamg‘a, dog‘**), ustalar muhri va boshqalar kirardi. Bu nishon va alomatlar uy hayvonlari, qurol-aslaha, sapoldan yasalgan idishlar va hatto asirlar (qullar)ga qo‘yiladi. Tilga olingan qadimgi shartli belgi va alomatlarni hozir ham ba’zi bir taraqqiyotdan orqaga qolgan xalqlar (masalan, Amerika hindulari, Uzoq Shimol, Afrika, Avstraliya xalqlari) ishlatishadi. Taraqqiyot bilan baravar qadam tashlayotgan xalqlar ham bu belgi va alomatlarga ayrim hollarda murojaat qilishadi. Masalan, pogonlar, oliy maktab, gerb va bayroqdagi nishonlar, xaritalardagi belgilar bunga misol bo‘la oladi.

Keyinchalik rasmlarning soddalashuvi, ularning o‘zlari ifoda etgan buyumlarning nomiga, ramziga aylanishi va asta-sekin bu ramzlarning og‘zaki til bilan doimiy bog‘lanishi yozuvning takomillashib borishini belgilab berdi. Yozuv belgilari ideografik, ieroglifik belgilar sifatida muayyan so‘zlarning ifodachilariga aylandi, bu yozuv **“so‘z yozuvi”** yoki **“logografik yozuv”** nomi bilan umumlashtiriladi. Eng qadimgi logografik yozuv tizimlari (misr ieroglifikasi, Eron hududida Haxomanishlar hukmronligi davrida amal qilgan mixxatlar, xitoy ieroglifikasi va boshqalar. 1- va 2- rasmlar) miloddan avvalgi 4-ming yillikning oxiridan miloddan avvalgi 2-ming yilliklarning boshlarigacha bo‘lgan davrda shakllangan. Haqiqiy ma’nodagi yozuv tizimlari dastlab Qadimiy Sharqda vujudga kelgan.

1-rasm (Shumer mixsimon xati rasm (Grek yozuvi, eramizdan 3 ming yil avval)



2-rasm eramizdan 4 ming yil avval)

Logografiya (logos - so‘z, grafiya - yozaman) yozuvdagi har bir alomat (logogrammalar) bir so‘zni bildirar edi. Bu yozuvda, alomatlar miqdor so‘zlar miqdoriga, aniqrog‘i mustaqil fe’l (xabar)ning semantik vohidlariga tengdir.

Logigrafik yozuvning piktografik yozuvdan afzalligi quyidagilardan iborat:

Logografik yozuv xabar qilinishi lozim bo‘lgan mazmunni ancha mufassal aks ettira oladi.

Piktografik yozuvda so‘z tarkibi va so‘z shakllari noaniqroq, logografik yozuvda esa aniq bo‘ladi.

Logografik yozuvning birinchi mukammallashgan shakli ieroglifik yozuvdir. “Ieroglifik” so‘zi yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, **“muqaddas yozuv”** degan ma’noni anglatadi. Bu yozuvdan dastavval Arabistonda keng foydalanilgan. Keyinchalik Xitoy davlati ham shu yozuvga o‘tadi va bu yozuvdan hozirgi kunda ham foydalanib kelinmoqda.

I-II asrlarda Stoy Shenm Xitoy ierogliflarining katalogini tuzib, bunda 10,5 ming ieroglifni kiritadi. Xitoy tilining to‘liq lug‘atlarida 40 ming iyerogliflar qayd qilingan.

Yozuvning ommaviylashuvi uchun uni, albatta, osonlashtirish, soddalashtirish, qulaylashtirish zarur edi. Masalan, **“ko‘z yoshi”** so‘zini yozib ko‘rsatish uchun “ko‘z” va “suv”ning kombinatsiyasi ko‘rsatilgan. Lekin bunday soddalashtirish unumsiz edi.

Yozuv tarixining uchinchi bosqichga orfografiya yozuvlari kiradi. Bora- bora logogrammalar so‘z asosi (morfemalar)ni bildiradigan bo‘ldi (masalan, kelishik qo‘shimchalari) va natijada

morfemografiya yozuvlari keng tarqaldi.

To‘rtinchi tur yozuvlar, bu sillabografiya (bo‘g‘in) yozuvlaridir. Bunda har bir alomat bir bo‘g‘inni ifodalaydi. Bu yozuv turi milodgacha bo‘lgan 2-1- ming yilliklarda paydo bo‘lgan. Bu yozuvni uch guruhga bo‘ladilar: birinchi guruhga mayya, mexiy va koreya yozuvlari kiradi. Bularda alomatlar har xil bo‘g‘inlar - alohida unlilar, undosh va unli ovozlarni ifodalaydi. Ikkinchi guruhga krit(?), kipr, habash va yapon yozuvlari mansubdir. Uchinchi guruhga hind yozuvlari kiradi.

Yozuv taraqqiyotining beshinchi bosqichiga ovoz-fonemani bidiruvchi yozuvlar kiradi. Bularni umumlashtirib **fonografiya (fonos-ovoz, grafiya- yozaman)** deb nomladilar. Bu yozuvlarning har bir alomati bir ovoz yo fonemani bildiradi (finik, yunon, lotin, rus va arab yozuvlari shular jumlasidandir). Fonografiya yozuvlarini ikki qismga bo‘ladilar:

a) **konsonant yozuvlari;**
   vokal yozuvlari

Kosonant yozuvlariga finik, ugarit, ibron, orom, arab va boshqa yozuvlar mansub bo‘lib, ularga har bir asosiy alomat (harf) faqat undosh ovozlarni ifodalaydi. Vokal yozuvlarida har bir asosiy alomat (harf) ham unli va ham undosh ovozni bildiradi.

Ta’kidlash joizki, harf-tovush yozuvi yo‘nalishidagi ilk yozuv **finikiy yozuvidir.** Finikiy alifbosining paydo bo‘lishi insoniyat uchun yozuvni takomillashtirish borasida olg‘a qo‘yilgan qadam bo‘lgan. Shuning uchun ham finikiy yozuvi juda tezlik bilan boshqa xalqlar orasida ham tarqalgan. Bu jarayon miloddan avvalgi 9-asrdan boshlangan. Hozirgi kunda bizga ma’lum bo‘lgan harf-tovush tizimidagi yozuvlarning beshdan to‘rt qismidan ko‘prog‘i finikiy yozuvidan kelib chiqqan. Harf-tovush yozuvining muhim afzalligi uning kam miqdordagi, ya’ni 20-30 atrofidagi belgilar bilangina ish ko‘ra olishidir. Harf- tovush yozuvi dunyo xalqlari orasida juda tez tarqalgan va bu jarayon, asosan, o‘zlashtirish, u yoki bu tilning xususiyatini hisobga olgan holda moslashtirish yo‘li bilan bo‘lgan.

Hozirgi vaqtda jahon aholisining taxminan to‘rtdan uch qismi harf-tovush yozuvidan foydalanadi. Lotin asosida aholining 30%, slavyan-krill yozuvidan 10%, arab yozuvidan 10%, hind yozuvidan 20% aholi foydalanadi.

O‘rta Osiyodagi xalqlar, jumladan, o‘zbek xalqi turli

yozuvlardan foydalanib kelgan. Bu yozuvlar avesto, pahlaviy, urxun-yenisey (runik), turkiy (uyg‘ur), sug‘d, arab, kirill, lotin yozuvlaridir.

Afsuski, yozuv og‘zaki til(nutq)ni aynan aks ettira olmaydi. Agar yozuv shunday xususiyatga ega bo‘lganda, imlo qoidalariga, talaffuz mezonlariga mutlaqo ehtiyoj qolmagan bo‘lardi.

Alfavit (Aifbo). Yuqorida ta’kidlaganimizdek harf-tovush (fonografik) yozuvi alfavitni vujudga keltirdi. Alfavit yunon alifbosining alfa va beta (vita) harflari nomidan olingan bo‘lib, alifbo (arab alifbosining boshlang‘ich ikki harfi – **alif** va **bo** nomidan olingan) ham deyiladi.

Alifbo – biror tilning yozuviga qabul qilingan va ma’lum an’anaviy tartib berilgan yozuv belgilari (masalan, arab alifbosi, lotin alifbosi) yoki bo‘g‘in belgilar (masalan, hind alifbosi – devanagari) majmui. Alifbo miloddan avvalgi 2000-yillar oxirlarida qadimiy Ugarit va finikiy yozuvi tovush tizimidan kelib chiqqan. Undan ilgari Misr iyerogliflari sanoq tizimi mavjud bo‘lgan, deb taxmin qilinadi. Turkiy xalqlarning run va turkiy (uyg‘ur) yozuvlari bo‘lgan. Ammo, bu o‘ziga xos turkiy yozuvlar alifbosi haqida ma’lumot uchramaydi.

Birinchi sinfda yozuv mashqlari uchun berilgan alifbegacha bo‘lgan davrni birmuncha uzaytirish mumkin. (“Alifbe” kitobida esa bu davr uchun 6-7 kun berilgan). Ammo bu davrda yozuv darsi bilan o‘qish darsi o‘rtasida birmuncha farq bo‘lishi mumkin, bundan cho‘chimaslik kerak, chunki bu vaqtda o‘quvchilar so‘z va harflarni o‘tilgan materiallar asosida yozib o‘rganadilar. Keyinchalik esa o‘qish bilan yozuv darsi bir-biri bilan uzviy bog‘langan holda davom etadi.

O‘qishning birinchi haftalaridagi tayyorgarlik mashqlari asosan og‘zaki nutqni o‘stirishga qaratiladi. Ammo butun dars davomida og‘zaki nutq bilan shug‘ullanish bolalarni zeriktirib qo‘yishi mumkin. Shuning uchun bu darslarning ma’lum qismini og‘zaki nutqini o‘stirishga, ma’lum qismini esa yozuv mashqlari uchun sarflash kerak. Bu davrda husnixatga oid tayyorgarlik mashqlarini tashkil etishning ahamiyati katta.

O‘qituvchi harf va harf unsurlarini doskada shunday tarzda yozishi lozimki, u barcha o‘quvchilarga bir xilda ko‘rinib tursin. Bundan tashqari harflarni yozayotganda ovoz chiqarib, bolalar diqqatini doskaga jalb etib yozishi kerak. O‘qituvchi har bir harf elementlarini qayerdan boshlab qayerga tugashini ham ovoz chiqarib va ham yozib ko‘rsatish lozim, toki keyinchalik o‘quvchilardan so‘ralganda ular aytib

bilishlari va amalda ko‘rsatib olishlari lozim. Shundagina bu usul samara beradi. Tayyor holdagi nuqtalar bilan ifodalangan harflar ustidan qo‘lni yurgizib mashq qilish ixtiyorsiz jarayon bo‘lib, o‘quvchilar bu topshiriqni oson bajaradilar. Ikkinchidan, “Husnixat” daftariga berilgan namunaga qarab yozdirish o‘qituvchining vaqtini ancha tejaydi.

Shu yozuv yodgorliklari asosida tuzilgan. Hozirgi harfiy va ba’zan bo‘g‘in alifbolari finikiy alifbosidan, oromiy (arab, yahudiy), yunon (lotin va hokazolar) va boshqa alifbolardan kelib chiqqan. Arab alifbosi – barcha arab mamlakatlari, shuningdek Eron, Afg‘oniston, Pokiston, Sharqiy Turkiston – Shinjon, shuningdek 13-20 asrlar boshlarida turkiy xalqlar yozuv tizimida; lotin alifbosiga Amerika, Avstraliya qit’asidagi barcha xalqlar, Evropaning ko‘pchilik xalqlari, Osiyo va Afrikadagi ba’zi xalqlar (Indoneziya, Turkiya va boshqalar) yozuv tizimida; kirill alifbosiga – Evropa, Osiyodagi ba’zi xalqlar yozuv tizimida; hind bo‘g‘in alifbosiga – Hindistondagi ko‘pgina elatlar yozuv tizimida amal qilingan.

Yuksak takomillashtirilgan alifbodagi bir harf muayyan bir tovushni ifodalashi, bir tovush muayyan bir harf bilan ifodalanishi lozim. Ammo dunyoda bunday alifbo yo‘q. Ana shunday ma’nodagi alifboga fin alifbosi birmunsha yaqinlashadi, lekin baribir to‘liq emas. Hozirgi ingliz, fransuz va boshqa tillar alifbolari bunday mukammallikdan yiroq. Mana shu holat dunyo tillarining barchasida xima-xil va juda ko‘plab grafik va imlo qoidalarining ishlab chiqilishiga sabab bo‘lgan.

Yozuv bilan til o‘rtasida, alifbo va tilning tovush tizimi o‘rtasida bunday farqli holatlarni yuzaga keltirgan sabablar xilma-xil. Avvalo, dunyodagi hozirda mavjud alifbolarning deyarli hammasi ham mustaqil va tegishli til xususiyatlarini to‘liq hisobga olgan holda yaratilgan emas. Ko‘pchilik xalqlar o‘z yozuvlarini boshqa til yozuvini o‘z tillariga imkoniyat darajasida moslashtirish yo‘li bilan yaratganlar. Bu hol yozuv va til munosabatlarida o‘z izini qoldirgan.

Ayni paytda yozuv va tilning taraqqiyoti bir xil, bir-biri bilan to‘la mos keladigan jarayon emas. Tilning taraqqiyoti tarixiy va uzluksiz jarayon, odamlar tilga ataylab, ongli ravishda biron-bir o‘zgartirish kirita olmaydilar. Tildagi u yoki bu o‘zgarish tadrijiy ravishda, asta-sekin yuz beradi. Yozuv haqida esa bunday deb bo‘lmaydi. Odamlar til xususiyatlariga yanada moslashtirish uchun

yozuvga turlio‘zgartishlar kiritadilar, islohotlar qiladilar, bir yozuv tizimini boshqasi bilan almashtiradilar va hokazolar. Masalan, o‘zbek xalqi asrlar davomida arab alifbosidan foydalanib kelgan, 1923-26-yillarda bu yozuvni o‘zbek tili tovush qurilishini to‘laroq ifodalashga moslashtirish maqsadida bir qator harfiy o‘zgartirishlar kiritilgan. O‘zbekistonda 1929-yildan lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosiga o‘tilgan. 1940-yildan esa kirill yozuvi joriy etilgan. O‘zbekiston respublikasi Oliy Kengashi 1993-yil 2-sentabrda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonunga va uni amalga kiritish tartibi haqidagi O‘R Oliy Kengashi qaroriga O‘R Oliy Majlisi 1995-yil 6-mayda o‘zgarishlar kiritadigan qonun qabul qildi. Bu hujjatga ko‘ra lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi 26 ta harf va 3 ta harflar qonunni qabul qildi. Bu



Dunyodagi alifbolarning hammasida ham harflar soni tegishli tildagi tovushlar (fonemalar) sonidan sezilarli darajada kam. Tabiiyki, bu hol yozuvni o‘zlashtirishni osonlashtiradi. Shuning uchun ham alifbolardagi asosiy tamoyil undagi harflar sonini ko‘paytirish emas.

Alifbo yozuvning asosini tashkil etadi. Tinish belgilari va boshqa yozma belgilar ham yozuvning unsurlari hisoblanadi.

Jahon xalqlari yozuvlari. ***Finikiy yozuv.*** Ushbu yozuvdan finikiylar, karfagentlar, qadimiy yahudiylar tomonidan Finikiya, Suriya, Falastin va qisman Misr, Kipr, Kiliniya (Kichin Osiyodagi viloyat), Karfagen kabi qadimiy davlatlar foydalanganlar. Finikiy

yozuvga daxldor katibalar miloddan oldingi 2-4 m: yilliklarda taalluqlidir. Bu emas. Taxmin qilishlaricha finikiy yozuv qadimiy Qan'onining bo‘g‘in va yo undosh yozuvi asosida vujudga kelgan. Finikiy yozuvda 22 ta undosh harf mavjud edi. Keyinchalik qattiq unlilar uchun maxsus alomatlar ishlab chiqildi. Keyinchalik qariyb hamma harfli va ovozli xatlar sistemasi, jumladan yozuvlarning ikki katta bo‘g‘ini-yunon va oromiy yozuvlar, ham finikiy yozuvidan ibtido oldi.

Oromiy yozuv. Ushbu yozuv undosh tovushlardan iborat bo‘lib, 22 ta harfi bor edi. Miloddan oldingi birinchi ming yillikning avvallarida finikiy yozuv zaminida vujudga keldi. Oromiy yozuvning qadimiy osori Var-Xadod (SHimoliy Siriya) va Zokir (Xamodan) katibalardir. Keyinchalik oromiy yozuvni boshqa somiy xalqlar-yahudiylar, oshuriylar, bobiliylar qabul qildilar. Miloddan oldingi 3-2 asrlarda ushbu yozuv bir necha shoxada-yahudiy yozuvining murabba xili, palmir va nabatiy yozuvlarida bo‘lindi.

O‘qituvchi sinfda o‘quvchilarning ish joyini to‘g‘ri tashkil etgandan so‘ng ularga yozuv qurollari va daftardan qanday foydalanishni o‘rgatishi lozim. Innovatsion ta'lim sharoitida ham birinchi navbatda o‘qituvchi o‘z shogirdlari uchun sifatli yozuv qurollari tanlaydi, chunki yozuvning chiroyli bo‘lishi ko‘p jihatdan yozuv qurollariga bog‘liqdir. ***Sug‘d yozuvi***. Bu yozuv oromiy yozuv asosida eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda qadimiy Sug‘d zaminida yaratilgan. U 23 alomatni o‘z ichiga olar edi. Sug‘d yozuviga mansub birinchi yozma yodgorlik eramizdan oldingi I asrda taalluqlidir.

Sug‘d yozuvining alomatlarini birinchi bor frantsuz olimi R.Goto transliterattsiya qilgan edi.

Sug‘d yozuvida avvallari bir-biriga ulardan harflar (ligatiralar) juda kam bo‘lgan. Har bir harf o‘zining alohida yozma shakliga ega bo‘lib, ularni bemalol bir-biridan farq qilish mumkin edi. VI asrning boshlariga "sutra yozuvi nomukammal finik sug‘d yozuvi taraqqiy etdi va X asrda keng qo‘llandi. Bu yozuv bilan budda dinining yozma yodgorliklari yozilgan. Mukammal finik sug‘d yozuvi sakkizinchi asrning o‘rtalarida vujudga keldi. Bu yozuv bilan Mug‘ tug‘i, Afrosiyob va Panjakent katibalari yozilgan. Siniq sug‘d yozuvida ulardan harflar ko‘proq ishlatilgan va alomatlari bir-biridan farqlash ancha qiyin bo‘lgan. Mutaaxxir siniq sug‘d yozuvi (bu yozuvni "uyg‘uriy sug‘d" yo "uyg‘uriy" ham dedilar) IX-XI asrlarda taraqqiy etgan. Uyg‘uriy

yozuvida harflarni и ш к - biridan farq qilish uchun diakritik alomatlar (harflarning ustiyu ostida nuqta va alomatlar) qo‘llangan. diakritik alomatlarni ishlatish kitoblar ixtiyorida ediю Bu umumsug‘d yozuvlaridan tashqari yana ikki xil sug‘d yozuvi taraqqiy etgan edi. Bularning bittasida bixoriy va ikkinchisiga istaravshaniy nomini berish mumkin.

Miloddan avvalgi II-III asrlarda shakllangan sug‘d yozuvi o‘lkamiz madaniyati tarixida muhim rol o‘ynaladigani isbotlovchi dalillar juda ko‘p topilgan. Dalillarning guvohlik berishiga bu yozuv ijtimoiy va madaniy hayotning hamma sohalarida keng qo‘llangan. Shu murakkab jarayonda sug‘d yozuvining tashqi shakli takomillasha borgan hamda uning ichki mazmuni-til tovush sistemasi tobora aniq ifodalash tomon o‘sa borgan, muayan orfografik normalar vujudga kela boshlagan.

Bu qadimiy sug‘d yozuvi orqali eramizning boshlaridan to X-XI asrlarga qadar yozilgan ko‘plab hayot yodgorliklari bizgacha etib kelgan. Bu yodgorliklar orasida ko‘plab numizmatik materiallar (tanga yozuvlari) metall, sofol, yog‘och, charm, qog‘oz va boshqa buyumlarga bitilgan matnlar, shaxsiy maktublar, diniy, ahloqiy-falsafiy matnlarning parchalari, xo‘jalik huquqiy va diplomatik hujjatlar mavjud.

Shunday noyob yodgorliklarning katta guruhi Panjakent yaqinidagi Mug‘ tog‘i tepasidagi qadimgi qasr xarobarilaridan topilgan sug‘d hujjatlaridir.

Mazkur yodgorliklar majmuasi “Mug‘ tog‘i sug‘d arxivi” deb nomlangan va o‘z ichiga VII asr oxiri VIII asr boshlariga oid 80 ga yaqin noyob hujjatni qamrab oladi. Bu hujjatlar sug‘d podsholigiga tobe’ Panj hokimlari va amaldor ayollarga tegishli hujjatlar yig‘indisidan iborat. Agar istilosi kunlarida, xususan, 722-yilda Panj hokimi, bir muddat Sug‘d podshosi taxtiga da’vogar sifatida ish ko‘rgan Devashtich boshliq guruh Mug‘d tog‘ida joylashgan mudofaa davriga chekingan. Shu sababli saroy hujjatlari qasrga keltirilgan. Tarix kitobi sahifalaridan ayonki, 722-yili arablar qasrni bosib olib, vayron qildilar.

Endigina maktab ostonasiga qadam qo‘yib, yozishni o‘rganish jarayonida turli xil qiyinchiliklarni (ruchka va yo qalamni to‘g‘ri tuta bilmaslik, daftar qatorida to‘g‘ri yozo‘lmaslik, qo‘l mushaklarini tez-tez og‘rishi, qo‘lni tez charchashi, noto‘g‘ri pozitsiya, xunuk va chalkash yozuv, qalamni noto‘g‘ri ushlab turish, qog‘ozni juda qattiq bosish, miyopi, disgrafiya (yuqori aqliy funksiyalarning

shakllanmaganligi sababli doimiy, takroriy xatolarda namoyon bo‘ladigan yozish jarayonining qisman buzilishi)) boshidan kechirayotgan o‘quvchilarga zamonaviy yozishga ko‘maklashuvchi vositalar bilan yordam berish mumkin. Bu vositalarga nimalar kiradi: yozish texnikasini tuzatish uchun nozul, yozish simulyatori, to‘g‘ri yozish uchun o‘rgatuvchi nozul va boshqalar.

O‘qituvchi sinfda o‘quvchilarning ish joyini to‘g‘ri tashkil etgandan so‘ng ularga yozuv qurollari va daftardan qanday foydalanishni o‘rgatishi lozim. Innovatsion ta’lim sharoitida ham birinchi navbatda o‘qituvchi o‘z shogirdlari uchun sifatli yozuv qurollari tanlaydi, chunki yozuvning chiroyli bo‘lishi ko‘p jihatdan yozuv qurollariga bog‘liqdir. O‘qituvchi sinfda o‘quvchilarning ish joyini to‘g‘ri tashkil etgandan so‘ng ularga yozuv qurollari va daftardan qanday foydalanishni o‘rgatishi lozim. Innovatsion ta’lim sharoitida ham birinchi navbatda o‘qituvchi o‘z shogirdlari uchun sifatli yozuv qurollari tanlaydi, chunki yozuvning chiroyli bo‘lishi ko‘p jihatdan yozuv qurollariga bog‘liqdir.

Sug‘d yozuvi. Bu yozuv oromiy yozuv asosida eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda qadimiy Sug‘d zaminida yaratilgan. U 23 alomatni o‘z ichiga olar edi. Sug‘d yozuviga mansub birinchi yozma yodgorlik eramizdan oldingi I asrda taalluqlidir.

Mug‘d qasri xarobalarida qolib ketgan sug‘d arxivi oradan 1210 yil o‘tgach, 1932-1933 yillarda topilgan. Bu hujjatlar shu vaqt davomida ancha o‘rganildi, barcha matnlarning izohli nashrlari e’lon qilinmoqda va ularning til xususiyatlari o‘rganilmoqda. Qadimgi sug‘d yozuvi bo‘yicha paleografik tadqiqotlar bajarilmoqda. Bir turkum sug‘d hujjatlarining o‘zbek tiliga tarjimasi va izohlari 1992-yil Mirsodiq Is’hoqov tomonidan etildi.

Yunon yozuvi. Bu yozuvdan qadimgi yunonliklari miloddan avvalgi X-
VIII asrlarda foydalanganlar.

Finiqiy yozuvdan paydo bo‘lgan. YUnonliklar finiqiy yozuvni o‘z tillariga mohirlik bilan tatbiq etdilar. YOzuv tarixida birinchi bor unlilar uchun alohida harflar joriy qildilar va undoshlar uchun bir necha harf ilova qildilar. Finiqiylar rostdan chapga qarab yozardilar. Yunonliklar ham avval shu usulni qo‘lladilar. Keyinchalik bir qatorni o‘ngdan chapga, ikkinchi qatorni chapdan o‘ngga qarab yoza boshladilar. Miloddan oldingi VII-VI asrlardan boshlab chapdan o‘ngga qarab

yozilishi joriy qildilar. Yunon alifbosi 24 harfdan iborat bo‘lib, Jahrnning ko‘pgina tillari alifbosi, jumladan, lotin, slavyan, arman, gruzin, got tillarining alifbosi o‘z asosini yunon alifbosidan oldi.

Avesto yozuvi. (Zand yozuvi ham deyiladi). III-IV asrlarda paylaviy yozuvi asosida ixtiro qilingan va Avesto kitobini yozish qo‘llangan. Unda 48 ta harf va 3 ligatura (birlashgan harflar) mavjud edi. Ushbu yozuv Avestoni bexato va to‘g‘ri o‘qish uchun ixtiro etilgan. Avesto yozuvi sosoniylar zamonida “din-dabira”, ya’ni diniy matnlarni sabt etish uchun yaratilgan yozuv nomi bilan yuritilgan.

Pahlaviy yozuvi. III asrda oromiy yozuv asosida yaratilgan. Raylaviy tilining qadimiy kotibalari yozuvda bitilgan. Ushbu yozuv 22 alomatdan iborat edi. Keyinchalik tez yozish (kursiv) usuli qo‘llanilgach alomatlar miqdori 14-15 ta bo‘ldi. Pahlaviy yozuvida faqat uzun unlilar o‘z alomatiga ega edi. Ushbu yozuv o‘ndan chapga qarab yozilar edi.

Lotin yozuv. Eramizdan avvaldi 403- yildan boshlab Afinada klassik grek alfaviti qo‘llana boshlandi. Ushbu alfavitda hammasi bo‘lib 24 ta harf bo‘lib, undan 7 tasi unli, qolganlari undosh tovushlarni ifoda etgan. qarbiy grek yozuvi asosida lotin yozuvi paydo bo‘lgan bo‘lsa, sharqiy grek yozuvi asosida kiritilsa, gruziya va arab alfavitlari yaratilgan.

Ko‘p o‘tmay lotin yozuvi qarbiy Evropada keng tarqala boshlandi. XVI asrda kelib qog‘oz yaratildi va kitob nashri yo‘lga qo‘yildi. Bu omil ham lotin yozuvining keng tarqalishiga sabab bo‘ldi.

Hozirgi zamon yozuvlaridan 70 tasi (bundan 30 tasi Evropa, 20 tasi Osiyo, 20 tasi Afrikada yashovchi xalqlarga taalluqli) lotin yozuviga asoslangan.

Savol va topshiriqlar

1.Yozuv nima? U qachon paydo bo‘lgan?
2.Yozuv qanday imkoniyatlarga ega?
3.Yozuvning dastlabki shakllari qanday holatlarda qayd qilingan?
4.Frazeografiya nima?
5.Qadimgi shartli alomatlar haqida gapirib bering.
6.Yozuvning tilga nisbatan qanday kamchiliklari mavjud?
7.Yozuvning insoniyat hayotidagi ahamiyatini so‘zlab bering.

3-MAVZU: HUSNIXATGA O‘RGATISH METODIKASINING SHAKLLANISH TARIXI.

Reja:

1.Hattotlik maktablari haqida ma’lumot.

2.Hattotlik bilan nom chiqargan shaxslar.

Eski maktablarda yozuv o‘rgatish

Tayanch so‘zlar: *hattotlik, eski maktab, chiroyli yozuv, husnixat, o‘zbek maktablari,o‘rta asrlardagi hattotlar.*

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi.Darslik. –T.: TDPU, 2013. – 70 b.

2. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Sobirova N. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. - T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2008.

3. Adizova N.B., Adizova N.B. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Buxoro: “Durdona”, 2021. -112 b.

4. Adizova N.B, Jumayev R.X., Qo‘ldoshev R.A., Ismatov S.R. Ona tili o‘qitish metodikasi. Buxoro. Durdona.: 2021. -292 b.

5. Safarova R va boshq. Alifbe. - T.: “O‘qituvchi” , 2020

6. H.Bakiyeva, N.Ahmedova, N.Azizova, D.Nosirova, B.Teshaboyeva, U.Ismoilova, B.Egamberdiyeva “Savodga o‘rgatish darslari”.-T.: “Extremum- press”, 2014. -119 b.

7. Safarova R., G‘ulomov M., Inoyatova m. Savod o‘rgatish darslari. 1-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.-T.: “Tafakkur”, 2012.-141 b

8.Azimova I, Mavlonova K, Quronov S, Tursun Sh. “Ona tili va o‘qish savodxonligi ” 1- sinf uchun darslik.I-II qism. “Yangiyo‘l poligraf servis” MCHJ nashriyoti. 2021-yil. 208 b

9.PIRLS 2021 Assessment Frame work. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association forthe Yevaluationof Yeducational Achievement (IEA), TIMSS& PIRLS International Study Center, Lynch School of Yeducation, Boston College. 2019. www.timssandpirls.bc.edu

Axborot manbalari

1.www. tdpu. Uz

2.www. pedagog. Uz

3.www. Ziyonet. Uz
4www. yedu. Uz
5.tdpu-INTRANET. Ped tdpu-INTRANET. Ped

O‘zbek xalqi uzoq asrlik tarixida yaratib qoldirgan madaniy me’rosida xattotlik san’ati alohida o‘rin egallaydi. Arab istilosidan so‘ng o‘rta Osiyo xalqlari tomonid an islom dinining qabul qilinishi munosabati bilan arab yozuvi ham kirib keladi. (O‘rta asrlarda har qanday asar qo‘lda ko‘chirilib kitob qilingan. Nafis kitob ko‘chirish katta hunar va san’at hisoblangan. Bu hu nar egalari tarixda xattot nomi bilan mashhur bolganlar. Xattotlarning ko‘chirgan kitoblari kishilarni hayajonga solib, ularni zavqlantirgan. Shuning ushun ham xattotlik bilan nom chiqargan shaxslar oddiy ko‘chiruvchi emas, balki o‘sha davrn ing ilm-ma’rifat va yirik madaniyat arbobi hisoblangan. Qo‘lda ko‘chirilgan h ar bir asar san’at mo‘jizasi kabi nodir asar hisoblangan.

XIV-XVI asrlarda bir qancha iste’dodli san’atkorlar nafis kitoblarning ijodchilari yetishdi. Muhammad bin Husayn at-Tibiy, Mir Ali Tabriziy, Xorazmiy, Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Qilqadam, Mimislar shular jumlasidandir. Bulardan tashqari, o‘rta asrlarda yashagan bir qancha olim va fozil kishilar yoshlikdan xattotlik san’atini egallab, keyinchalik kotiblikda ham nom chiqarganlar. Ular faqat o‘z asarlarinigina emas, balki boshqa mualliflarning asarlarini ham ko‘chirganlar.

Masalan Hofiz Sheroziy Xusrav Dexlaviyning “Xamsa”s ini ko‘chirgan. Alisher Navoiyning mohir xattot ekanligi tarixiy manbalardan ma’lum. Zahriddin Muhammad Bobur arab grafikasida turkiy xalqlarga moslab “Xatti Boburiy” deb atalgan alifbe yaratdi. Mimis Xorazmiy xattotlik san’ati haqida “Savodi ta’lim” nomli risola yozdi va Alisher Navoiyning “Xamsa”sin i nihoyatda chiroyli xat bilan ko‘chirdi. Muqimiy ham juda mayda nasta’liq va shik asta xati uslubida bayoz ko‘chirgan. Bularning hammasi shuni ko‘rsatadiki, (o‘rta Osiyoda nafis kitob yaratish texnikasi ixtiro etilmagan bir davrda kotiblikka talab nihoyatda kuchli bo‘lgan. Qo‘l yozmalarni kitob holiga keltirishda b ir necha mutaxasislar ishtirok etganlar. Bu jarayonda qog‘ozrez (qog‘oz quyuvchi), xattot, (muzahhib (oltin suv bilan bezak beruvchi), lavoh (lavha chizuvchi), musavvir va sahhof (muqovqchi) ishtirok etadi. Shu yo‘sinda tayyorlangan nafis kitoblar shohlar, buyuk olimlar va shoirlar kutubxonalarida saqlanar edi.

O‘rta Osiyo ustalari, ayniqsa, Samarqand va Buxoro ustalari qog‘oz ishlashda katta shuhrat qozongan edilar. Ularning qog‘ozlari pishiq va silliq edi. Xattot uchun esa ana shunday sifatli qog‘ozlar kerak bo‘lar edi. Qog‘ozlar kustar holda turli usullarda tayorlangan.

Xattotning asar ko‘chirish qurollari: “siyoh”, “qam ish qalam”, “mistar” (transporant), qalamning uchini chiqarib turish uchun “qalamtarosh”, qamish qalamning uchini kesish uchun yasalgan maxsus suyak plastinka “qalam qat” dan iborat bolgan. Qamish qalam xattotning asosiy yozuv quroli hisoblangan. Uni tayyorlash ham alohida san’at talab etgan. Qamish qalamdan qog‘ozga siyoh tommaslik uchun hamda qalamda doim etarli darajada siyoh bo‘lishi uchun siyohdon (dovot) ga tolguncha ipak los solingan. Siyohga bo‘ktirilgan ipak loslar qalamning yetarli miqdorda siyoh bilan ta’minlanishiga yordam beradi.

Xattotlar texnik vazifalardan tashqari o‘z yozuv uslublarini ham ishlab chiqarishga intilganlar. Masalan, XII asrdan boshlab xattotlar hayotida ko‘fiy xati uslubi keng o‘rin oldi. Bu uslub asosida arab yozuvining quyidagi olti xil asosiy uslublari maydonga keladi:

Suls xati - bu xatning to‘rt bahrasi tekis, ikki bahrasi yumaloq shakilda yoziladi.

Nasx xati - bu xatning ixtirochisi mashhur xattot Ibn Muqla’ hisoblanadi.

Muhaqqaq xati - bir bo‘lak qismi tekis bolib, qolgan bo‘laklari yumaloq shaklida yoziladi.

Rayhoniy xati - muhaqqaqdan kelib chiqqan bo‘lib uning ixtirochisi Ibn Bavvobdir.

Tavqe xati - yarim tekis, yarim yumaloq chiziqdan tashkil topgan.

Riqo xati - ko‘pchilik harflag bir-biriga qurama qilib yoziladi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xatlarning har biri o‘z o‘rnida qo‘llanilib kelingan. Muhaqqaq xatidan qasida va she’rlar yozishda, suls-ilmiy asarlar va xat yo‘l-yo‘riqlarida, rayhoniy va nasx-qissa va xabarl arda, tavqe buyruq va farmonlarda, riqo xati maktublarda ishlatilgan. Undan tashqari, bu asosiy usulning har biri ingichka va yo‘g‘on qalamlarda yozilishi n atijasida yana o‘n ikki xil xatni tashkil qilgan. Shuning uchun ham eski maktablarda yozuv malakasini hamma o‘quvchilar ham to‘liq egallay olmaganlar. Yozishga qiynalishning yana bir sababi ko‘p xarflarning so‘zda qo‘llanish o‘rniga qarab ha r xil shakl olishidir.

Eski maktabda harflarni nusxaga qarab, alfavit tartibida katta-katta qilib yozish “sarxat” deb atalib, ba’zan sarxat yozish bi r-ikki yilga cho‘zilgan. Sarxat yozishga o‘rgatilganidan so‘ng “murakkabot”, ya’ni harflarni bir-biriga qo‘shib yo‘zib o‘rgatilgan. Murakkabotdan keyin “muqattaot” mashqi, ya’ni bayt va ruboiylar ko‘chirib yozish o‘rgatilgan. Eski maktab da muqattaotga juda ko‘p vaqt sarf qilingan. Bolalar duoiy salomni yozishni bilsalar, ularning xat-savodi chiqqan hisoblangan.

Eski maktabda chiroyli yozuvga alohida ahamiyat berilgan, ammo husnixat mashg‘ulotlari uchun zarur bolgan qoidalar yuzaki tushuntirilgan. Chiroyli yozuvga o‘rgatish vaqtida faqat qalamni qanday ushlash qoidalarigina eslatilgan. Qalam bilan bir marta yozilgandan so‘ng uning ustida qayta yozishga yo‘l qo‘yilmagan, bu yozuv qoidalarini saqlashdagi birdan-bir usul bo‘lgan. Bolalarga yuqoridagiga o‘xshash ayrim yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsati lgani bilan ularning ko‘zi bilan qog‘oz orasidagi masofaning to‘g‘ri saqlanishiga e’ tibor berilmagan. Xatto yozish vaqtida nafas olish ham ta’qiqlangan.

Eski maktabda husnixat qoidalarini o‘rgatuvchi birdan-bir qo‘lanma “Mufradot” kitobi bo‘lgan. Domlalar yozishni o‘rgat ish va husnixat mashq qildirishda shu kitobdan foydalanganlar. Bu vaqtda husnixatga o‘rgatishning birdan-bir yo‘li ko‘chirib yozish ko‘nikmasini hosi l qilish bo‘lgan. Bolalar uchun arab alfavitida yozish juda qiyin bolib, unda biror nuqtaning noo‘rin qo‘llanishi yoki nuqtalar sonini kam yoki ortiq bo‘lishi so‘zni ng ma’nosini tubdan o‘zgartirib yuborgan. Shuning uchuin, arab yozuvida juda ehtiyot bo‘lib yozish zarur edi. Ana shunday bir vaqtda husnixat bo‘lishni, har bir harfni to‘g‘ri va aniq yozishni talab qilish, bu masalaga kishilarning diqqatini jalb qilishda husnixat ta’limini o‘rgatuvchi metodik qo‘llanma juda muhim edi. Bu is hga birinchi bo‘lib shoir va xattot Shermuhammad Avazbek o‘g‘li Munis (1778-1829) bel bog‘laydi. Munis 1804 yilda o‘zbek tilida ‘Savodi ta’lim’ nomli riso la yozadi. Uning bu risolasi amaliy hamda nazariy tomondan o‘sha davrga nisbatan katta ahamiyatga ega edi. Munisning bu asari uning vafotidan keyin Xorazm xattotlari tomonidan ko‘chirib yoziladi.

Munis bu risolasini ikki qismga bo‘lib, birinchi qismida husnixat ta’limini bergan ustozlari haqida, xat va chiroyli yozuv asboblari haqida foydali maslaxatlar husnixat qoidalarini o‘rgatuvchi birdan-bir qo‘lanma “Mufradot” kitobi bo‘lgan. Domlalar yozishni o‘rgatish va

husnixat mashq qildirishda shu kitobdan foydalanganlar. Bu vaqtda husnixatga o‘rgatishning birdan-bir yo‘li ko‘chirib yozish ko‘nikmasini hosi l qilish bo‘lgan. Bu vaqtda husnixatga o‘rgatishning birdan-bir yo‘li ko‘chirib yozish ko‘nikmasini hosi l qilish bo‘lgan. Bolalar uchun arab alfavitida yozish juda qiyin bolib, unda biror nuqtaning noo‘rin qo‘llanishi yoki nuqtalar sonini kam yoki ortiq bo‘lishi so‘zni ng ma’nosini tubdan o‘zgartirib yuborgan. Shuning uchuin, arab yozuvida juda ehtiyot bo‘lib yozish zarur edi.

So‘ z maxzanining nishonasi ham, Ma’ni durining hazonasi ham, Har so‘ zki, ko‘nguldan o‘vdi mavjud, Xat bo‘lmasa bo‘lg‘ay erdi nobud...

U yozuv qoidalariga ham katta axamiyat berib shunday deydi: Olam ishi intizomi andin, Olam elining nizomi andin, Ul bo‘lmasa bo‘lmag‘ay kitobat, Bu bo‘lmasa qolmag‘ay hikoyat...

“Savodi ta’lim”ning ikkinchi qismida arab alfavitid agi harflarning o‘lchovi va shakli katta kichikligi tushuntiriladi. Munis bu kitobida harflarning o‘lchovini qat’iylashtirib har xillikka chek qo‘yib, husnixat ta’limiga yangilik kiritgan. Uning bu risolasi xattot va kitoblarga hamda o‘z xatini tuzatmoqchi bo‘lgan kishilarga yaqindan yordam bergan.

Hozirgi kunda maktablarimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri o‘quvchilarning savodxonligini oshirishdir. O‘quvch ilarning savodxonligini oshirishda toza va chiroyli yozuvning roli katta. Ulug‘ rus pedagogi K. D. Ushinskiy husnixat darslariga alohida e’tibor berib, ‘dastlabki orfografik malakalar husnixat darslarida tiklanadi’, - degan edi.

O‘zbek maktablari 1940-yildan boshlab, rus grafikasi asosida yozuvga o‘ta boshladi. O‘zbek maktablari uchun husnixatga maxsus oid qo‘llanmalar yaratilmagan bo‘lsa ham bu davrda yaratilgan turli metodik qo‘llanmalardan foydalanib kelingan.

1948- yilda V. A. Saglin tomomonidan tuzilgan ‘Boshlang‘ich sinflarda yoziivga o‘rgatish’ nomli qo‘llanmada I, II, III, I V sinflarda husnixatga o‘rgatishning maqsad va usullari bayon etiladi. Bu kitobda yozuvda uchraydigan tipik xatolarni tuzatish uchun ko‘rsatmalar va tez yozishga o‘rgatish uchun tayyorgarlik mashiqlari beriladi. Qo‘llanmada doskada bo‘r bilan yozish qoidalari ham kiritiladi.

1948-yilda E.V. Gur’yanov tomonidan tuzilgan “Yozuv mashqlarning psixologik eslatmalari’ va ‘Alifbe davrida yozuvga

o‘rgatishning psixologiyasi va metodikasi’ nomli qollanmalarda esa yozuv jarayoniga ilmiy asosda yondashiladi va yozirvning psixofiziologik asoslari ochib beriladi. Muallif bu qollanmalarda o‘quvchilarning diqqatini boshlang‘ich sinflarda da rsning samaradorligini oshiruvchi qator shart-sharoitlarga tortadi hamda amaliy ko‘rsatmalar beradi. 1959- yilda E.V. Gur’yanovning “Yozuvga o‘rgatish psixolo giyasi’ kitobi nashr qilindi. Bu qo‘llanmada, asosan, yozuvga o‘rgatish psixologi yasi to‘la ochib beriladi, hamda eski kaligrafik yozuv sistemasi tanqid qilinadi. Muallif bosim bilan yoziladigan yozuv sistemasini misollar bilan ko‘rsatib beradi, hamda mavjud yozuv grafikasini soddalashtirishni talab etadi.

1983- yilda D. A. Pisarevskiy tomonidan yozilgan “Yozuvga o‘rgatish” kitobida birinchi marta boshlang‘ich sinf o‘qituvch ilari uchun darslarni qanday tashkil etish yo‘llari ko‘rsatiladi. Muallif bu kitobda harflarni izchillik bilan o‘rgatishni, har xil bog‘lanishlarni to‘liq ko‘rsat ib o‘tadi. Ammo chiroyli yozuvga o‘rgatishning asosiy shartlari ustida kam ko‘rsatma beradi.

1970 yidan boshlab soddalashtirilgan harflar qabul qilindi, undan “Alifbe” kitobida, o‘quvchilar uchun qo‘llanma va metodik ko ’rsatmalaridan foydalanila boshlandi. Yangi shriftning asosiy xususiyatlari quyidagilardir: juda ko‘p harflarning shakli soddalashtirilgan, katta harflarning shakliga yaqinlashtirilgan; yangi harflar bir sharoitda qo‘lni uzmasdan bog‘lab yozishga mo‘ljallangan. Yozuv qurollari takomillashib borishi bilan E.V.Guryanov tomonidan tavsiya etilayotgan yozuv sistemasi 1970-yildan boshlab maktablarda keng qo‘llanila boshlandi. Shu vaqtlarda rus alfaviti o‘qitiladigan maktablar uchun yangi soddalashtirilgan harflar bilan husnixat kitoblarinashr qilina boshlandi.

O‘zbek maktablarida soddalashtirilgan kiril alifbosida chiroyli yozish va chiroyli yozishga o‘rgatish borasida M.G‘ulomov tad qiqot ishlarini olib bordi. U o‘zining qo‘llanmalarida 1-4-sinf o‘quvchilarini ch iroyli yozishga o‘rgatish usullarini, husnixat qoidalarini ishlab chiqdi, amaliyotga tadbiq etish metodikasini
ochib berdi.

Amaldagi yozuvni husnixat qoidalari ularga doir amaliy mashqlar namunasi Y.Abdullayevning “Sovg‘a”, “Yangi alifbo va imlo” “Hamrohim” o‘z aksini topgan.

Hattotlik maktablari haqida ma’lumot.

Xattot va madaniy hayot. Sharq xalqlari, shu jumladan, o‘rta Osiyo xalqlarining madaniy tarixi eng qadimiy va ko‘p sohalarda yuksak taraqqiyot bosqichiga erishilganligi bu kunda butun dunyo ilm-fan axli tomonidan e’tirof etilgan haqiqatdir. O‘rta Osiyo xalqlari o‘z o‘tmis hida bir necha dafa iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyot davrini boshidan kechirgan.

Arablar istilosidan so‘ng IX-XI asrlarda o‘rta Osiyoda, ayoniqsa, Xorazmda madaniy va ilmiy tafakkur beqiyos barq urib gulladi. Jahonga tanilgan al-Farobiy, Ibn Sino, al-Beruniy singari ulug‘ mutafarkir olimlar dahosidan xozirgacha bashariyat bahramand bo‘lib kelmoqda. Shuni alohida qayd etish zarurki, bu porloq davr arab istilosining mahsuli emas, aksincha, arab istilosiga qadar o‘rta Osiyoda mavjud bo‘lgan xorazmiylar va so‘g‘diylarni ng uzoq asrlik boy madaniyatining qonuniy taraqqiyotidan iborat bo‘lgan.

G‘ulomov.M, “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini husnixatga o‘rgatish” T. O‘qituvchi 1970, “Chiroyli yozuv malakasini shakllantirish” T. O‘qituvchi 1992, “Husnixat metodikasi” T. O‘qituvchi 1976.Abdullayev. I “Hamrohim” o‘quv qo‘l lanma” T. O‘qituvchi 1996, “Sovg‘a” o‘quv qo‘llanmasi T. O‘qituvchi 1996, “Yangi alifbo va imlo” T. O‘qituvchi 2000.

Osiyo xalqlari, shu jumladan, turkiy xaqlar (ayniqsa, uyg‘urlar) yaratgan madaniy obidalar fikrimizning isbotidir. Ayniqsa, 1965-yili Samarqandda ochilgan Afrosiyob arxeologik yodgorliklari arablarga qadar o‘rta Osiyo xalqlarining mislsiz taraqqiyot darajasida ekanini yana bir marta tasdiqlaydi. Sharq xalqlari, shu jumladan, o‘rta Osiyo xalqlarining madaniy tarixi eng qadimiy va ko‘p sohalarda yuksak taraqqiyot bosqichiga erishilganligi bu kunda butun dunyo ilm-fan axli tomonidan e’tirof etilgan haqiqatdir. O‘rta Osiyo xalqlari o‘z o‘tmis hida bir necha dafa iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyot davrini boshidan kechirgan.

Arablar istilosidan so‘ng IX-XI asrlarda o‘rta Osiyoda, ayoniqsa, Xorazmda madaniy va ilmiy tafakkur beqiyos barq urib gulladi. Jahonga tanilgan al-Farobiy, Ibn Sino, al-Beruniy singari ulug‘ mutafarkir olimlar dahosidan xozirgacha bashariyat bahramand bo‘lib kelmoqda. Shuni alohida qayd etish zarurki, bu porloq davr arab istilosining mahsuli emas, aksincha, arab istilosiga qadar o‘rta Osiyoda mavjud bo‘lgan xorazmiylar va so‘g‘diylarni ng uzoq asrlik boy

madaniyatining qonuniy taraqqiyotidan iborat bo‘lgan.

XIII-XIV asrlarda mo‘g‘ullar O‘rta Osiyoni vayron q ilib, obod shaharlarni xarobaga aylantiradilar. Madaniy yodgorliklar parchalanib, ilm-fan xazinasi bo‘lgan minglab qo‘lyozma kitoblar gulxanlarda kuyd iriladi. Mo‘g‘ul bosqinchilari qancha barbod bermasinlar, ijodkor xaq o‘z madaniy merosini ardoqlaydi, eng og‘ir va mashaqqatli hollarda madaniy hayot olg‘a t omon boraveradi.

XIV-XV asrlarda Temuriylar davrida o‘rta Osiyo feodalizm jamiyatida qisqa muddatli bo‘lsa ham markazlashgan feodal davlati joriy qilinib, mamlakat hayotida iqtisodiy, siyosiy va madaniy yuksalish ro‘y berdi. Ayniqsa, XV asr Hirotda, Samarqandda o‘rta Osiyo xadlqlari madaniyati o‘zining eng porloq davrini boshidan kechirdi. Mirzo Ulugbek, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Xondamir, Behzod, Sulton Ali va Mirzo Bobir bu davrning aql egalaridan bo‘lganlar.

XVI asrning boshidan safaviylar va shayboniylar hokimiyat tepasiga kelishi bilan iqtisodiy va madaniy hayot asta-sekin inqirozga yuz tuta boshlaydi.

XIX asrga kelganda, ayniqsa, o‘rta Osiyoning Rossiya bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalari kuchaya borgan sari madaniy hayotda yana kotarilish roy bera boshladi.

Shunday qilib, IX asrdan to XX asrgacha, taxminan 1000 yillik tarixida o‘rta Osiyo xalqlarining ilm-fan va ma’naviy madaniyat sohasida yaratib qoldirgan buyuk merosi bizning davrimizgacha, asosan, qo‘lyozma kitoblar shaklida etib kelgandir.

Arab yozuvida kitobat qilingan ming yillik madaniy meros nasldan-naslga qo‘lyozma shaklida o‘tib kelgan. Shu qolyozma kitob lar tufayligina o‘rta Osiyo xalqlari ota-bobolari yaratib qoldirgan madaniy merosdan bahramand bo‘lganlar. Shu qo‘lyozma tufayli O‘rta Osiyodagi har bir xalq, har bir millat o‘z tarixiga ega bo‘lgan. Nihoyat, shu qo‘lyozmalar tufayli o‘rta Os iyo xalqlari jahon madaniyat tarixi taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘sha olgan.

Bu qo‘lyozma kitoblarning muallif tomonidan parcha-parcha qog‘ozlarga yozilib ijod etilgandan so‘ng, uni oqqa ko‘chirib, kitob tusiga kirituvchi g‘oyat murakkab, mashaqqatli, ayni vaqtda sharafli vazifani bajaruvchi shaxs kitob bo‘lgan. Kotiblik da’fatan qaraganda kishiga bir te xnik vazifaga o‘xshab ko‘rinadi. Kitob go‘yo muallifning yaratgan asarini harfma-harf ko‘chiruvchi kishidek bolib tuyuladi.

Haqiqatda esa bunday emas.

O‘rta asr tarixida va u davrdagi madaniy hayotda kitobatlik hunari eng sharafli va muqaddas vazifa hisoblangan. Avvalombor kotibning savodli bo‘lishining o‘zi feodalizm sharoitida ko‘p vaqt ho kimlar, amirlar savodsiz bo‘lgan bir paytda uni (kotibni) yuqori mavqega olib chiqadi. Ikkinchidan, kotib kitobat qilish munosabati bilan har bir ko‘chirgan kitobning mazmunini o‘zlashtira boradi. Shuning natijasida haqiqiy kotib o‘z zamonasining o‘qimishli ilm-ma’rifat egalari qatoridan joy oladi. Demak, o‘rta asr Sharq mamlakatlarida kitob ko‘chirish bilan shug‘ullangan xattotlarni biz oddiy ko‘chiruvchilik vazifasini bajaruvchi shaxs deb emas, balki har bir xattotni o‘z zamonasining o‘qim ishli ma’rifatparvar, ilg‘or ziyolisi va yirik madaniyat arbobi deb tushunishimiz kerak.

Arab yozuvi O‘rta Osiyoga islom dini bilan kirib kelgan. Shu sababli arab mamlakatlaridagi va shuningdek, O‘rta Osiyodagi bir gurux xattotlar Qur’on hamda diniy kitoblarni ko‘chirish bilan shug‘ullang anlar. O‘z zamonasida nihoyatda muqaddas hisoblangan «kalomi sharif», din, shariat haqidagi kitoblarni kochirish vazifasi har kimning qolidan kelavermagan.

Bulardan tashqari tarixdan yana shu narsa ma’lumki, o‘rta asrlar yashagan bir qancha olim, shoir va fozil kishilar yoshlikdan xattotlik san’atini egallab, keyinchalik kotiblikda ham nom chiqarganlar. Bunday ulug‘ zotlar faqat o‘z asarlarinigina kitobat qilmasdan, balki boshqa mualliflar asarini hamko‘chirganlar. Masalan, Hofiz Sheroziy Xusrav Dehlaviyning «Xamsa»sini ko‘chirgan. Temuriy bolalaridan bir nechalari (Boysunqor Mirzo, Rolib Mirzo, Badiuzzamon) kitobat bilan shugullanganlar. Alisher Navoiyning mohir xattot ekanligi tarixiy manbalardan ma’lum. Mirzo Bobir arab grafikasining turkiy xalqlarga moslab islox qilingan engil yozuv «xatti boburiy»ni ijod etgan. Munis Xorazmiy xattotlik san’ati haqida «Savodi ta’lim» nomli risola yozgan va Alisher Navoiyning «Xamsa»sini nihoyatda go‘zal xat bilan ko‘chirgan. Nihoyat, Buxoro xattotlik maktabining so‘ngi vakillaridan XIX asrning buyuk olimi, ensiklopedik aql egasi Axmad Donish o‘ndan ortiq zebo qo‘lyozmalar ko‘chir ib qoldirgan.

Ibn Bavvobning xat san’ati haqidagi risolasidagi asosiy g‘oyalar keyinchalik juda ko‘p risolalarda taraqqiy ettiriladi va yangi amaliy maslahatlar, nazariy fikrlar bilan boyitiladi.

Biroq Ibn Bahob ixtiro etgan xat namunalari haqida XVI asrgacha, deyarli, hech qanday aniq ma’lumot yo‘q. Faqat XV asrning II yarmida yashab 908/1502- 03 yilda vafot etgan arab xattotlaridan Muhammad bin Hasan al-Tibiy o‘zining risolasida Ibn Bahob Tomonidan 17 xil xat ixtiro etilganligini to‘la ravishda bayon qiladi hamda bu 17 xil xatni Ibn Bawob yozgan mo‘tabar nusxalardan ko‘chirib, ularning nomlarini birma-bir ko‘rsatadi. Muxammad Bin xasan al-Tibbiy risolasini arab olimlaridan doktor Saloxdddin al-Munajjid 908/1502-03 yilda ko‘chirilgan nusxasini 1962-yilda faksimal shaklida nashr qildirgan va unga katta so‘z boshi yozgan.

Mazkur risola orqali biz Ibn Bavvobga nisbat berilgan xat namunalari bilan tanishish imkoniga egamiz.

Arab xatining husnixatdagi eng muhim qoidalari va turlarini mashhur ixtirochi Ibn Bawob 36 tur xatdan tubandagi 16 turini Ibn Muqladan keyin ixtiro qilnganligi va takomillashtirganini XVI asr (1519 yil)da yashagan ulug‘ xattot Muhammad binni Hasan Tibiy o‘zining «Jome’i mahosin i kitobat ul-kuttab» nomli asarida Ibn Bawob usulidan suratlarini yozib ko‘rsatgan.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qolyozmalar fondida mavjud minglab kitoblar va kitobat san’ati, husnixat togrisidagi qator risolalarda berilgan ma’lumotlardan husnixat san’ati o‘rta Osiyo xalqlarining ma’naviy madaniyat tarixida etakchi rolp o‘ynagan san’atlardan bolgan degan xulosa chiqarish mumkin.

O‘rta Osiyoda xattotlik san’atinining keng taraqqiy oti Temur va Temuriylar davridan boshlanadi. Husnixat san’ati dastlab Xuroson poytaxti Hirotda rivojlanib, u yerda Sulton Ali Mashhadiy boshliq yirik xattotlik maktabi tashkil topadi. Maktabning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu erda, asosan, XIV asrda Mir Ali Tabriziy yaratgan nasta’liq xat uslubi Sulton Ali tomonidan takomillashtiriladi. Bu uslub yirik va mayda nasta’liq kitobat ishlarida keng qollanib, badiiy va tarixiy asarlar faqat nasta’lish xatida kitobat qilingan. Diniy va ba’zi ilmiy asarlar esa nasx xatida ko‘chirilgan. Kofiy, Sulsva nasx xatlari esa ko‘proq me’morchilik, naqqosh san’atida va Sharq epigrafiyasida ishlatilgan.

Hirot xattotlik maktabi. Hirot Xurosonning eng katta va mashhur shaharlaridan bo‘lib, olimlar, fozillar, shoirlar va xattotlar bilan tolgan xushmanzara bog‘-bo‘stonlari, turli meva va suvlari ning

ko‘pligi bilan shuxrat qozongan.

Xurosonning katta qismidagi markaziy shaharlardan yana biri Marv Shohjon (Turkmaniston)dir. Yoqut Hamaviyning aytishicha, al mavron (ikki marv) degan so‘z bo‘lib, biri Marvrud ikkinchisi Marv.

Yoqut shunday deydi: «Marvda ilmiy ahamiyatga ega bolgan qimmatli kitoblar juda ko‘p edi. Men u erdan ketgan vaqtimda (1220-yilda) vaqf qilingan 10 ta kutubxona bor ediki, dunyoda kitobning ko‘pligi va yaxshiligi jihatidan unday joyni ko‘rmaganman. Ular quyidagicha: Katta jomega qarashli 2ta kutubxona bolib, biri Sulton Sanjar xodimlaridan Aziziddin Abu Bakr Zanjoniy nomiga qo‘yilgan. Unda 12 ming jildga yaqin qolyozma kitoblar saqlanadi.

1.Al-Kamoliya kutubxonasi (kimga nisbat berilganligi ma’lum emas).
2.1100-yilda vafot etgan Al Mustavfiy Abulsa’d Muhammad ibn Mansurning madrasasidagi kutubxona.
3.Nizom al-Mulk Hasan binni Ishohning madrasasidagi kutubxona.
4.Somoniylarga tegishli ikki kutubxona.
5.Al-Amidiyya madrasasidagi kutubxona.
6.Marvdagi oxirgi vazirlardan Majdi mulkning kutubxonasi.
7.Madrasa Xotuniyadagi kutubxona.
8.Yana u yerda Az-Zamiriya kutubxonasi. Bularning hammasi 1221-yilda mo‘g‘’ullar tomonidan xarob etilgan».

Axmad Tayibshoh Movarounnahriy bir necha xatga, ayniqsa, suls xatiga ravshanlik kiritgan. 1215-yilda vafot etgan. Ba’zilar bu xattotni Ibrohim shoh Tayib Axmad deydilar.

Mavlono Yusuf Xurosoniy xattot Yoqutning mashx ur shogirdlaridandir. Ustozi bilan bir vaqtda vafot etgan. Yoqut xat bilan 1210- yilda ko‘chirilgan

«Kalimoti murtazaviyya» asari Ayoso‘fiya kutubxonasida saqlanadi. «Kalimot» bilan birga Ali binni Hilol xatida Salomat ibn Jandal ismli arab shoirning qasidasini ko‘chirgan. Bu qasidani 1218-yilda ko‘ch irib tamomlagan. 1269-yilda vafot etgan.

Ibroqim Mirzo Shohrux o‘g‘li Temur nabiralaridan bo‘lib, Sharafiddin Ali Yazdiy shogirdlaridandir. Ulug‘ tarixchi o‘zining «Zafarnomaiy Temuriy» asarini Temurga bag‘ishlab yozgan. Mirzo Ibrohim olti xil xatda tengi yo‘q xattot edi. Yoqut uslubiga taqlid qilib, xat san’atida undan o‘tib ketgan. U yozgan xat qoldiqlarining ba’zilari hozir ham Sheroz qadimiy binolarida saqlanib qolgan. Xattot 1431-yilda vafot etgan.

Ahmad Rumiy Sulton Boysunqor kitobxonasining xattotlaridan bo‘lib, ko‘p vaqtlar ulug‘ kishilar bilan suhbatlashgan.

Sulton Boysunqor Temuriy shahzodalaridandir. U 35 yoshida -1427-yilda vafot etgan. «Davlatshox tazkira»da ko‘rsatilishicha, uning kitobxonasida 40 nafar mashhur xattotlar tun kun kitobat bilan shug‘ullanar edilar. Xattotlik, zarafshonlik, oltin xalash, naqsh, lavxa, rasm, miniatyura va boshqa badiiy san’atlar ishlash Boysunqor davrida ravnaq topgan. Istanbulning xar bir kutubxonasida hech bo‘lmaganda bir nusxa uning davrida ko‘chirilgan asar mavjud. Sulton buyrug‘i bilan ko‘chirilgan qolyozmalardan «Faraj ba’da shid dat»ning tarjimasi va «Nusxat ul-arvox» kitobi diqqatga sazovordir.

Mirzo Ulug‘bek astronomiya va xandasada o‘z davrida yagona bo‘lgani kabi Boysunqor mirzo she’r va xatda o‘z davrining eng ma shxur kishisi edi.

Eronliklaming aytishicha, to‘rt kishi to‘rt xatda s ulsda Boysunqor Mirzo, nasta’liqda Mir Imod, nasxda Mirzo Ahmad, shikasta xatda Darvesh Abdu Majid Tolqoniy ustod emish.

Savol va topshiriqlar

1.Hattotlik san’ati qanday ehtiyojlar tufayli yuzaga keldi?

2.Hattotlik bilan nom chiqargan shaxslar kimlar va ulaming faoliyati haqida nimalarni bilib oldingiz?

3.XII asrda keng o‘rin egallagan Kofiy kabining uslublari haqida so‘zlang.

4.Eski maktablarda yozuv o‘rgatish qanday olib borilgan?

5.Husnixat metodikasining shakllanishida Munis qanday o‘rin tutgan?

6.XX asrda yozuvga va husnixatga o‘rgatish bo‘yich a ishlarni amalga oshirildi?

7.Kitobatchilik bilan shug‘ullangan tarixiy shahslardan kimlarni bilasiz?

8.Hattotlar va hattotlik maktablari faoliyat haqida so‘zlang?

4-MAVZU: YOZUV MATERIALLARI VA QUROLLARI. YOZUVNING GIGEYINIK SHARTLARI.

Reja:

1.O‘quchilarining grafik malakalarini shakllantirish metodikasi.

2.Yozuv grafikasini o‘zlashtirishga tayyorlash.

3. Yozuv qurollari va ulardan foydalanish usullari.

Tayanch so‘zlar: *yozuv, yozuv grafikasi, yozuv qurllari, masofa differensiya, yozuv materiallari.*

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi.Darslik. –T.: TDPU, 2013. – 70 b.

2. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Sobirova N. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. - T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2008.

3. Adizova N.B., Adizova N.B. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Buxoro: “Durdona”, 2021. -112 b.

4. Adizova N.B, Jumayev R.X., Qo‘ldoshev R.A., Ismatov S.R. Ona tili o‘qitish metodikasi. Buxoro. Durdona.: 2021. -292 b.

5. Safarova R va boshq. Alifbe. - T.: “O‘qituvchi” , 2020

6. H.Bakiyeva, N.Ahmedova, N.Azizova, D.Nosirova, B.Teshaboyeva, U.Ismoilova, B.Egamberdiyeva “Savodga o‘rgatish darslari”.-T.: “Extremum- press”, 2014. -119 b.

7. Safarova R., G‘ulomov M., Inoyatova m. Savod o‘rgatish darslari. 1-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.-T.: “Tafakkur”, 2012.-141 b

8.Azimova I, Mavlonova K, Quronov S, Tursun Sh. “Ona tili va o‘qish savodxonligi ” 1- sinf uchun darslik.I-II qism. “Yangiyo‘l poligraf servis” MCHJ nashriyoti. 2021-yil. 208 b

9.PIRLS 2021 Assessment Frame work. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association forthe Yevaluationof Yeducational Achievement (IEA), TIMSS& PIRLS International Study Center, Lynch School of Yeducation, Boston College. 2019. www.timssandpirls.bc.edu

Axborot manbalari

1.www. tdpu. Uz
2.www. pedagog. Uz
3.www. Ziyonet. Uz
4www. yedu. Uz
5.tdpu-INTRANET. Ped tdpu-INTRANET. Ped

Boshlang‘ich ta’limni isloh qilish, uni ilmiy asoslangan tahkursilar bilan qaytadan ta’minlash borasidagi asosli fikrlar yurtboshimiz tomonidan o‘rtaga tashlangan edi. Shundan keyin bir qator qonun, qaror va ko‘rsatmalar e’lon qilindi va ularni amalga oshirish ishlari respublikamiz ta’lim muassalarida keng quloch yozdi. Ayni damda bu borada muayyan chora-tadbirlar rejalashtirilib, muayyan ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, hali hal etilishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalar talaygina.

Kuzatishlarimiz shundan dalolat beradiki, boshlang‘ich sinf, xususan, birinchi sinf o‘quvchilarining savodini chiqarishda ularning yoshi va jismoniy tayyorgarligi ham katta rol o‘ynaydi. Masalan, yozish va o‘qish malakalarining shakllantirishning birinchi zinalarida bola yozish va o‘qish mashqlarini bajarish uchun o‘zining bor kuchini – jismoniy va ruhiy imkoniyatlarini sarflaydi: yozuv jarayonida o‘quvchining hamma muskullari, ayniqsa qo‘l va yelka muskullari, bel va oyoq tomirlari hamda asab torlari ancha taranglashadi. Shuning uchun o‘qituvchilar bu jarayonni sezgirlik bilan kuzatadilar, barmoq va qo‘l muskullarining harakat tezligi, partada to‘g‘ri o‘tirishi, umuman o‘quvchilarning jismoniy va ruhiy holati hamda tayyorgarligini hisobga oladilar.

Tabiiyki, yozish va o‘qish jarayonlari dastlabki bosqichlarda jismoniy va ruhiy siqilishlar ostida o‘tadi. Bola birinchi mushkilot va muvaffaqiyatsizlikni qiyinchilik bilan hazm qiladi. Shuning uchun jismoniy va ruhiy zo‘riqishlar ham kutilgan samarani bermaydi. O‘quvchi o‘z xatosini sezadi va tushunadi, lekin o‘quvchisining yo‘l – yo‘riqlari bilan ham uni bartaraf etolmaydi. Bunday hollarda o‘qituvchi o‘quvchini ruhiyati – kayfiyatini ko‘tarish uchun turli xil lahzalik sho‘x o‘yinlar tashlil etadi. Bunday lahzalik jismoniy va ruhiy tanaffuslar bolaning ruhiy zo‘riqishini mo‘tadillashtiradi va bolaning mavzuni o‘zlashtirish, qabul qilish darajasini oshiradi. Aytganlarimiz o‘sha vaqt o‘z samarasi – mevasini beradiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi, xususan birinchi sinf o‘quvchisining ta’lim olishi uchun ham tashkiliy va

metodik ishlar a’lo darajada tayyorlangan bo‘lishi lozim. Tashkiliy va metodik ishlarga nimalar kiradi? Quyida, shu haqda bahslashamiz.

Rivojlantiruvchi muhit yaratish birinchi sinf o‘quchilarining grafik malakalarini shakllantirishga katta ahamiyat kasb etadi. Rivojlantiruvchi muhit birinchi navbatda o‘quvchilarning ish joyini metodik jihatdan to‘g‘ri, bexato va samarali tashkil etishga yordam beradi. Bu muhitda birinchi sinf o‘quvchisi o‘zini ancha yengil va ishonchli his etadi.

Rivojlantiruvchi muhitda ish joyini, ayniqsa sinfda o‘quvchilarni joylashtirish muammosini qanday hal etish mumkin. Bu borada rus maktablarida ancha ishlar amalga oshirilgan va yangi g‘oyalar amalga sinalmoqda.

Maktab sinflari odatda bir-biriga o‘xshash va faqat frontal ish uchun moslashtirilgan. Oldinda doska, uning yonida o‘qituvchining joyi, uning oldida partalar. Ammo aralash ta’lim yoki sinfda guruhli ishlash uchun bu tartib unchalik qulay emas.

Sinfdagi darslarni qiziqarli, zamonaviy qilish va shu bilan birga o‘qituvchining sinfdagi ishini yengillashtirish uchun asbob-uskunalar sotib olish va qimmat ta’mirlash kerak emas. Ba’zan o‘qituvchiga sinfni boshqarishning asosiy usullarini, mavjud resurslardan qanday qilib to‘g‘ri foydalanishni va o‘quv faoliyatini tashkil etishning turli shakllari uchun maydonni zonalashni bilish kifoya. Ushbu yondashuv sinf dizayni deb ataladi. Maktab o‘quvchisi o‘zining ko‘p vaqtini darsxonada quyidagi o‘quv qurollari bilan bog‘liq holda o‘tkazadi: parta, sinf taxta (doska)si, daftar, ruchka va boshqalar. Shunday ekan o‘quv qurollarining gigienik va pedagogik talablarga javob berishi katta ahamiyatga egadir. Takidlaganimizdek maktab o‘quvchilari o‘zining juda ko‘p vaqtini partada o‘tirib o‘tkazadi. Shuning uchun bu mas’uliyatli davrda o‘quvchilarni qo‘yilgan gigienik talablarga amal qilishga o‘rgatish kerak.

Ish qobiliyati uzoq vaqtgacha pasaymay turishini hamda bolalar qaddi-qomatining to‘g‘ri rivojlanishi, o‘qish davrida ko‘zning salbiy ta’sirlanmasligini ta’minlash hamda o‘quvchilarning grafik ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida sinflarni gigiena talablariga javob beradigan partalar bilan jihozlash muhim ahamiyatga ega. Birinchi navbatda ustoz – muallim o‘z shogirdining mo‘tadil ishlashi uchun zarur shart-sharoit yaratib berishi lozim. Bu ishga tayyorgarlik avgust oyidan boshlanadi. O‘qituvchi unga ajratilgan sinfxonani va

undagi partalarni bo‘lajak shogirdlari ishlashi uchun mos kelish-kelmasligini tekshirib ko‘rishi lozim. Shogirdlarini maktabga qabul qilib olgandan so‘ng esa ularning bo‘yiga, ko‘rish va eshitish qobiliyatlariga qarab partalarga o‘tqazishi kerar.

Sinf partalari birinchi navbatda pedagogik talablarga to‘liq javob berishi lozim. Bu talablar quyidagilar:

1. O‘quvchilarning yoshlari va bo‘ylariga mos bo‘lishi.
2. O‘quvchilarning gavdasiga mos bo‘lishi.
3. Yozish hamda rasm chizish uchun qulay bo‘lishi.
4. O‘quvchi turganda yoki o‘tirganda qiyinchilik tug‘dirmasligi.

Deraza tomondagi birinchi partada asosan ko‘rish qobiliyati pastroq yoki eshitish imkoniyatlari pastroq bo‘lgan o‘quvchi o‘tirg‘izish lozim. Partalar sinfda asosan uch qator bo‘lishi kerak. Birinchi parta va sinf doskasi o‘rtasidagi masofa 2 metrdan, oxirgi parta bilan doska orasidagi masofa esa 8 metrdan kam bo‘lmasligi lozim. Bu masofa bolalarning yaxshi ko‘rishlari va o‘qituvchini yaxshi eshitishlari uchun zarur. Derazadan ichkaridagi oxirgi parta orasidagi masofa 6 metrdan oshmasligi kerak.

Qatorlar o‘rtasidagi partalarning orasi 75 sm bo‘lishi kerak. Bu masofa qatorlar orasida ikkita o‘quvchini bemalol harakatlanishi uchun zarur.

Bizning kuzatish va tajribalarimiz shundan guvohlik beradiki, ko‘pgina umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida bu talablarga umuman rioya etilmaydi va yo ular qo‘pol tarzda buziladi. Birinchidan, o‘quvchilar partasi ularning yosh, bo‘y va gavdasiga mos emas. Aslida partalar bir o‘rinli va ikki o‘rinli bo‘lishi mumkin. Xorijiy mamlakatlarda ko‘pincha bir o‘rinli partalardan foydalaniladi.

Respublikamizning ba’zi maktablarida, ayni damda, ikki o‘rinli partalardan ham foydalanilmoqda. Ta’kidlash joizki, professor F.F.Erisman tomonidan yaratilgan ikki o‘rinli yog‘och partalar gigienik tomondan juda qulay edi.

б

Lekin ming afsuski, ayni damda bunday partalar batamom iste’moldan chiqdi. Mabodo qolgan bo‘lsa ham ular qishloq maktablarida mavjud.

Talabga muvofiq parta ustining qiyaligi 15ºga teng bo‘lishi lozim, chunki bunday qiyalikda yozish va o‘qish juda qulay bo‘lib, ko‘z tez charchamaydi (1-rasm).



1-rasm

Yana bir muhim talablardan biri partaning qopqog‘i ochilib ham yopilib turadigan bo‘lishi lozimligidir. Agar partada ochilib yopiladigan qopqog‘ bo‘lmasa o‘quvchining o‘rnidan turishi va o‘rniga o‘tirishi noqulay boladi. Natijada bu o‘ng‘aysizlik bola ruhiyatiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Hozir iste’moldagi partalarda shunday qopqog‘ning yo‘qligi afsuslanarli holdir. Parta o‘tirg‘ichining mustahkam turishi to‘g‘ri o‘tirishni ta’minlaydigan eng muhim omildir. Agar o‘tirg‘ichning taxtasi orqa tomonga bir oz moyil bo‘lsa yana ham yaxshiroq bo‘ladi. O‘quvchilarning yanada qulayroq o‘rnashib o‘tirishlari uchun orqa suyanchiqning balandligi o‘quvchining belidan yuqori bo‘lishi kerak.

Parta distansiyasi degan tushuncha mavjud. Distansiya deb parta ustining pastki qirrasi bilan suyanchiq orasidagi masofaga aytiladi. Bu masofa, ya’ni ko‘krak qafasi bilan uning qirrasi orasidagi masofa 4 cm bo‘lishi lozim. Ayni damda ko‘pgina maktablarning boshlang‘ich sinflarida usti bir tekis, o‘tirg‘ichi alohida, balandligi va tuzilishi (temir va taxta partalar, ish stollari) har xil bo‘lgan, oyoqni qo‘yish joyi bo‘lmagan partalardan foydalanilmoqda. Bunday gigienik va pedagogik talablarning qo‘pol ravishda buzilishi ta’lim sifatiga isloh qilib bo‘lmas salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Tasavvur qiling, birinchi sinf o‘quvchisi o‘tirg‘ichi past, parta o‘rnida ishlatilayotgan idora ish stolida o‘tirib yozayapti. O‘tirg‘ich pastligi bois u qulochlarini ko‘tarib partaga qulay o‘rnashib olishga harakat qiladi, lekin tezda har ikkala qo‘li og‘riy boshlaydi. Natijada uning diqqati susayib, bezovtalana boshlaydi. Yozish jarayonida xatolarga yo‘l qo‘ya boshlaydi va bundan tabiiyki, o‘zi ham asabiylashadi. Shunday holatlar bo‘lmasligi uchun partaning distansiyasi to‘g‘ri saqlanishi lozim.

Talabga muvofiq partaning distansiyasi uch xil bo‘lishi mumkin***:*** **musbat, nol, manfiy**. Musbat distansiyada parta ustining cheti bilan o‘tirg‘ich orasidagi masofa teng bo‘ladi. Parta ustining chetidan

tushirilgan chiziq o‘tirg‘ichning ustiga emas, balki polga tushadi (2-rasm).

2- rasm

Yuqoridagi rasmda ko‘rsatilgan partalarda o‘tirish o‘quvchular uchun noqulay bo‘ladi. O‘quvchi bunday partalarda o‘tirsa pastga egilib o‘tirishga majbur bo‘ladi.

Nol masofadagi distansiyada parta ustining cheti bilan o‘tirg‘ichning orasida hech qanday masofa bo‘lmaydi. Parta ustining chetidan tushirilgan chiziq o‘tirg‘ich ustining chetiga mos bo‘ladi (3-rasm). Bunday partalar ham o‘quvchilar uchun qulay bo‘lmaydi.



3-rasm

Uchinchi, ya’ni manfiy distansiyada parta ustining cheti o‘tirg‘ichning ichiga 4 cm masofada kirib turadi. Parta ustining chetidan tushirilgan chiziq o‘tirg‘ichning ustiga tushadi (4-rasm).



4-rasm

Distansiyasi manfiy bo‘lgan partalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun juda qulay bo‘lib, gigienik talablarga to‘liq javob beradi.

Parta tanlashning yana bir muhim jihati shundaki, uning differensiyasini to‘g‘ri saqlashdir. Parta qopqog‘ining cheti bilan o‘tirg‘ichning orasidagi masofa **differensiya** deyiladi. Agar parta o‘tirg‘ichi past bo‘lsa, o‘quvchi parta qopqog‘iga osilib turadi, agar yuqori bo‘lsa, bukchayib o‘tirishga majbur bo‘ladi. Shuning uchun o‘tirg‘ichning balandligi o‘quvchilarning oyoqlari uzunligiga teng bo‘lib, o‘tirganda tovonlari polga yoki partaning zinasiga tegib turishi lozim.

bosqichida qalinligi yozishga halaqit beradi. Daftarni muqovalagandan ko‘ra o‘quvcMn partaning ustki qavatining ozodaligiga va yozayotganda daftarning tagiga toza qog‘oz varag‘ini qo‘yishga o‘rgatib boorish kerak. Ularning hammasi o‘quvchining daftarni tashqi tomondan ozoda tutishini nazorat qilib borishga o‘rgatadi. Daftarning tashqi ko‘rinishining ozodaligi va tartibliligi hamma tomondan tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Daftar varag‘iga yozishda bolalarga quyidagilarni: tushuntirib o‘tish lozim.

1. Sana yoki tartib raqami qayerga yozilishini:
2. Qatorning qayeridan so‘z yozishni boshlash lozimligini;
3. Qatordagi so‘zlaning oraliq masofasi qanday bo‘l ishi kerakligini;
4. Avvalgi va keyingi ishlar orasida qancha qator tashlanishi haqida;
5. Betni qanday yakunlash haqida tushuntirib o‘tish lozim.

Savol va topshiriqlar

1.Husnixat darslariga qanday metodik talablar qo‘yiladi?

2.Yozuvning gigeyenik talablariga nimalar kiradi?

3.Yozuv mebellari qanday talabga javob berishi zarur?

4.Partada o‘tirish qoidalarini aytib bering?

5.Yorug‘likning tushushi haqidagi ko‘rsatmalarni so‘z lab bering.

6.Yozuv jarayonida ruchka ushlash qoidalari va uni o‘quvchilarga o‘rgatish usulini ayting.

7.Daftardan foydalanish qoidalariga nimalr kiradi?

8.Husnixat bilan yozish ko‘nikmalarini shaklantirish nimalarga bog‘liq?

9.Yozuv qurollari va materiallariga nimalar kiradi?

10.O‘quv jarayonida ulardan qanday foydalaniladi?

11.Hozirgi kunda amalda bo‘lgan yozuv qurollariga munosabatingizni bildiring.

5-MAVZU: HUSNIXATGA O‘RGATISH TAMOYILLARI.

Reja:

1.Onglilik tamoyili.

2.Genetik tamoyil.

3.Takrorlash tamoyili.

4.Ko‘gazmalilik tamoyili.

Tayanch so‘zlar: *onglilik tamoyili, genetik tamoyil, takrorlash tamoyili, ko‘gazmalilik tamoyili.*

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi.Darslik. –T.: TDPU, 2013. – 70 b.

2. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Sobirova N. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. - T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2008.

3. Adizova N.B., Adizova N.B. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Buxoro: “Durdona”, 2021. -112 b.

4. Adizova N.B, Jumayev R.X., Qo‘ldoshev R.A., Ismatov S.R. Ona tili o‘qitish metodikasi. Buxoro. Durdona.: 2021. -292 b.

5. Safarova R va boshq. Alifbe. - T.: “O‘qituvchi” , 2020

6. H.Bakiyeva, N.Ahmedova, N.Azizova, D.Nosirova, B.Teshaboyeva, U.Ismoilova, B.Egamberdiyeva “Savodga o‘rgatish darslari”.-T.: “Extremum- press”, 2014. -119 b.

7. Safarova R., G‘ulomov M., Inoyatova m. Savod o‘rgatish darslari. 1-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.-T.: “Tafakkur”, 2012.-141 b

8.Azimova I, Mavlonova K, Quronov S, Tursun Sh. “Ona tili va o‘qish savodxonligi ” 1- sinf uchun darslik.I-II qism. “Yangiyo‘l poligraf servis” MCHJ nashriyoti. 2021-yil. 208 b

9.PIRLS 2021 Assessment Frame work. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association forthe Yevaluationof Yeducational Achievement (IEA), TIMSS& PIRLS International Study Center, Lynch School of Yeducation, Boston College. 2019. www.timssandpirls.bc.edu

Axborot manbalari

1.www. tdpu. Uz

2.www. pedagog. Uz

3.www. Ziyonet. Uz

4www. yedu. Uz

5.tdpu-INTRANET. Ped tdpu-INTRANET. Ped

Husnixatga o‘rgatish tamoyillari quyidagilardir:

1.Bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili.

2.Yozuvga o‘rgatishning o‘qishga o‘rgatish bilan bir paytda amalga oshirish tamoyili.

3.Chiroyli yozuvning imlo bilan bogliqligi tamoyili.

4.Savodli yozuvning grafik bilimlar bilan bog‘liqlik tamoyili.

Onglilik tamoyili. Chiroyli yozuvga o‘rgatishda, o‘quvchilarning husnixat malakalarini takomillashtirib borishda bu tamoyilga qat’iy rioya qilish muhimdir. Bu tamoyilga ko‘ra o‘quvchi harf shaklini qanday va qay tartibda yozishni bilishi, harfning qiyaligi, bo‘yi va enini to‘g‘ri mo‘ljallay olish lozim. harflarni harflarga ulashda qol uzmaslikka erishish nazarda tutiladi. Ruchka ushlashda ruchka uchi bilan barmoq oralig‘idagi masofa 1,5-2 sm bo‘lishi e’tiborda tutiladi. Shuningdek, partada o‘tirish qoidalariga

(ko‘z va daftar oralig‘ining 30 sm, daftarning parta ustida ma’lum qiyalikda bolishiga, partada engashmasdan, boshni to‘g‘ri tutib, tirsaklarni partaga engil qo‘yish, oyoqlarni parta ostiga to‘g‘ri qo‘yish, kcfkrak bilan parta oralig‘i masofasining bir kaft sig‘adigan masofada bolishi) amal qilishga ongli ravishda erishiladi.

Genetik tamoyil. Chiroyli yozuv malakalarining shakllanishida genetik tamoyil katta o‘rin tutadi. O‘quvchi bu tamoyilga a sosan awal shakli osn, sodda harflarni yozdirishga o‘rgatiladi. Ma’lumki, ba’zi bir harflar sodda ko‘rinishga ega bo‘lib, ularni yozishda qiyinchilik tug‘ilmaydi. Sh uning uchurf chiroyli yozuvga o‘rgatishda, dastawal bosh va kichik harflar guruhlab olinadi, hamda shu guruhlash asosida shakli oson harflardan asta-sekin shakli murakkab, yozish birmuncha murakkabroq harflarga o‘tiladi. Masalan, kichik harflarning 1-guruhiga i, n, m, r kabilar kiradi. Bu harflar ilmoq shakllaridan iborat bo‘lganligi sababli yozishda qiyinchilik bo‘lmaydi. Shuningdek, genetik tamoyil asosida harf, bo‘gln, so‘z, gap, matn tartibida osondan murakkabga qarab yozuv mashqlari o‘tkaziladi.

Takrorlash tamoyili. Chiroyli yozuv mashqlarini esdan chiqmaslik uchun sistemali ravishda takrorlash juda muhimdir. Takrorlash tamoyili yozish jarayonini avtomatlashtirish asosidir. Chiroyli yozuvda gigienik qoidalarga amal qilish eslatib turilishi yaxshi natija beradi. Yozuv qiyaligiga amal qilish, harflarni qo‘1 uzmay yozish, harflar, so‘zlar orasidagi masofani to‘g‘ri chamalash va yozishga oid qoidalarga amal qilishni takrorlash, yozuvni tahlil qilish, ularni taqqoslash kabi ishlar takrorlash tamoyili asosida olib boriladi. Xatolarni tuzatish tarzida olib borilishi, uning samarasiz mashqqa aylanib qolmasligiga amal qilinadi.

Ko‘rgazmalilik tamoyili. Chiroyli yozuvga orgatishda ko‘rgazmali vositalar ham katta ahamiyat kasb etadi. KcTrgazmali vositalarga «To‘g‘ri o‘tir!» plakati, bosma harf shakllari ifodalangan kartonlar, xattaxta, o‘quvchilar qo‘lidan ushlab yozdirish kabilar kiradi. Harfning yozma shaklini hosil qilishga o‘rgatishda uning bosma shakli ko‘rsatilib farqli jihatlari izohlanadi.Yaxshi tanlangan va mohirlik bilan foydalanilgan ko‘rgazmali qurollar dars sifati va samaradorligini oshiradi.

Bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili. O‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish

uning bo‘yini hisobga olgan holda oldingi partalarga o‘tkazishdan boshlanadi. Parta o‘quvchiga mos bo‘lsa, u yozishda qiynalmaydi, tez charchab qolmaydi, chiroyli yozadi. O‘quvchining individual xususiyatini hisobga olganda. Ko‘rish qobiliyati yaxshi bo‘lmagan o‘quvchilarni yorug‘ tushadigan de raza tmonga, eshitish a’zolarida nuqsonlar bo‘lgan bolani esa oldingi par talarga o‘tkazish ham nazarda tutiladi.

Malumki, ruchkani barmoqlar orasida noto‘g‘ri ushla ydigan o‘quvchilar ham uchraydi, shu sababli bolaning ruchka ushlashiga ham alohida e’tibor qaratiladi.

Daftarga harflarni 65° gradus qiyalikda yozish asos iy rol o‘ynaydi. Buning uchun daftar - parta ustida to‘g‘ri turishi lozim. shuning uchun o‘qituvchi har bir o‘quvchining daftarlarini kuzatib borishi darkor. Bu qoidaga amal qilish ham yozuv sifatini oshiradi. O‘quvchilarning yozuv tezliklarini kuzatish, kamchiliklarini hisobga olish, yutuqlarini ko‘pchilikka namuna qilib ko‘rsatish ha m bu tamoyilning asosiy shartlaridan sanaladi.

Yozuvga o‘rgatishning o‘qishga o‘rgatish bilan bir paytda amalga oshirish tamoyili. Dastur talablari yozuvga o‘rgatishni o‘qishga o‘r gatish bilan bir paytda amalga oshirishni nazarda tutadi. Savod o‘rgatishning dastlabki bosqichida o‘qish va yozuv bog‘lab olib boriladi. Bu usul K.D. Ushinskiy tomondan qo‘llangan bolib, hozirga davr foydalanib kelinmoqda. O‘quvchi yaxshi o‘qish sifatlari (togri, ongli, tez va ifodali o‘qish)ni egallash bilan bir paytda yozuvga ham o‘rgatilib boriladi. Negaki yozish va o‘qish bolani ng nutqiy rivojlanishi (lug‘at boyligi, gap tuzish ko‘nikmasi, nutqning mantiqiy boglanishi)ni ta’minlaydi. Yomon o‘qigan bola yozuvni egallashi qiyin bo‘ladi, chunki bo‘g‘inlab o‘qish malakasidan so‘ng, bo‘g‘inlab yozish malakasi shakl lanadi.

Savodli yozuvning grafik bilimlar bilan bog‘liqligi tamoyili. Chiroyli yozuv imlo bilan chambarchas bogliq. O‘quvchining imloviy savodxonligi haqida g‘amxo‘rlik qilish tilning aniqligi, fikrni to‘g‘ri ifodalash, kishilar bilan o‘zaro xatosiz muomala uchun g‘amxo‘rlik demakdir. Shu sab abli ham savod o‘rgatish davrida bolalarda grafik malakalarni shakllantirish bilan birga imloga oid malakalarning shakllanishiga zamin yaratiladi.

Malumki, savod o‘rgatish davrida o‘quvchi gapni bos h harf bilan yozish, so‘zning satrga sig‘may qolgan qismini keyingi qato

rga ko‘chirish, kishilar ismi, sharifi, hayvonlarga qo‘yilgan nomlarda bosh harf ishlatilishini amaliy tarzda o‘rganadi. Chiroyli yozuv darslarida so‘zlar, gaplar, matnlar yozish, ularning imlosini tekshirishi orfografik ziyraklikni asta-sekin shakllantira boradi, imlo qoidalarini puxta egallashlariga zamin yaratadi. Insonning yozma nutqi harflar orqali shakllanadi. Husnixat darslarida savodli yozuv grafik malakalar bilan shakllantirilishi asosiy vazifa hisoblanadi. Har bir harfning aniq yozilishi yozuvning aniq va ravon bo‘lishini ta’minlaydi.

Buhing uchun harflarning shaklini to‘g‘ri yozish, u larni to‘g‘ri ulashning ahamiyati kattadir. Harflami bosmasdan bir tekisda yozish, elementlarni ajratmasdan boglash, so‘zlarni qatorda to‘gri joylashtirish, yozuv vaqti ning belgilab olinishi, tahlil ishlarining (bo‘gln-tovush, tovush-harf, imloviy tahlil), ya’ni fonetik-grafik tahlilning amalga oshirilishi muhim sanaladi.

Savol va topshiriqlar

1.Husnixatga o‘rgatishda qaysi tamoyillarga amal qilinadi?

2.Husnixatga o‘rgatishda ongillik tamoyiliga qanday amal qilinadi?

3.Husnixatga o‘rgatishda genetik tamoyilining ahamiyatini tushuntiring.

4.Takrorlash tamoyili deganda nimani tushunasiz?

5.Husnixatga o‘rgatishda qanday ko‘rgazmalardan foydalaniladi?

6.1-4-sinf o‘quvchilarini husnixatga o‘rgatishda ularning qaysi holatlari hisobga olinadi?

7.O‘quv va yozuvning o‘zaro aloqadorligi nimalarda namoyon boladi?

8.Chiroyli yozuv imlo bilan qanday aloqadorlikka ega?

6-MAVZU: HUSNIXATGA O‘RGATISH USULLARI.

Reja:

1. Chiziqli usul.
2. Genetik usul.
3. Namunaga qarab yozish usuli.
4. Namunaga qarab ko‘chirish usuli.
5. Nusxa ko‘chirish usuli.
6. Tasavvur orqali yozish usuli.
7. Ritmik usul(sanoq-ohang)
8. Harf shakllarini tahlil qilish usuli.

Tayanch so‘zlar: *genetik usul, tasavvur orqali yozish usul, nusxa ko‘chirish usuli, ritmik usul, chiziqli usul.*

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi.Darslik. –T.: TDPU, 2013. – 70 b.

2. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Sobirova N. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. - T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2008.

3. Adizova N.B., Adizova N.B. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Buxoro: “Durdona”, 2021. -112 b.

4. Adizova N.B, Jumayev R.X., Qo‘ldoshev R.A., Ismatov S.R. Ona tili o‘qitish metodikasi. Buxoro. Durdona.: 2021. -292 b.

5. Safarova R va boshq. Alifbe. - T.: “O‘qituvchi” , 2020

6. H.Bakiyeva, N.Ahmedova, N.Azizova, D.Nosirova, B.Teshaboyeva, U.Ismoilova, B.Egamberdiyeva “Savodga o‘rgatish darslari”.-T.: “Extremum- press”, 2014. -119 b.

7. Safarova R., G‘ulomov M., Inoyatova m. Savod o‘rgatish darslari. 1-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.-T.: “Tafakkur”, 2012.-141 b

8.Azimova I, Mavlonova K, Quronov S, Tursun Sh. “Ona tili va o‘qish savodxonligi ” 1- sinf uchun darslik.I-II qism. “Yangiyo‘l poligraf servis” MCHJ nashriyoti. 2021-yil. 208 b

9.PIRLS 2021 Assessment Frame work. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association forthe Yevaluationof Yeducational Achievement (IEA), TIMSS& PIRLS International Study

Center, Lynch School of Yeducation, Boston College. 2019. www.timssandpirls.bc.edu

Axborot manbalari

1.www. tdpu. Uz
2.www. pedagog. Uz
3.www. Ziyonet. Uz
4www. yedu. Uz
5.tdpu-INTRANET. Ped tdpu-INTRANET. Ped

Husnixatga o‘rgatish fani ham boshqa fanlar qatori o‘zining tarixiy manbalariga ega bo‘lgani holda o‘sib ,rivojlanib bormoqda.Quyid a biz boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bilishi zarur bo‘lgan eng asosiy yoz uv usullari haqida fikr yuritamiz. Bu metod va usullar quyidagilardir:

1. Chiziqli usul.
2. Genetik usul
3. Namunaga qarab yozish usuli.
4. Namunaga qarab ko‘chirish usuli.
5. Nusxa ko‘chirish usuli.
6. Tasavvur orqali yozish usuli.
7. Ritmik usul(sanoq-ohang)
8. Harf shakllarini tahlil qilish usuli
9. Yozuv malakasini ongli o‘zlashtirish usuli
10. Qo‘l harakatini mashq qildirish usuli.

Chiziqli usul. Qaysidir harfni yozilishini o‘rganish uchun o‘quvchi bu harf qanday belgilarga ega ekanligini ,harfdagi alohida elementlarning joylashish o‘rnini, uning kattaligini va hokazolarni o‘rganib olishi kerak. O‘quvchiga harfning yozilishini to‘g‘ri o‘rgatish uchun uning qatordagi o‘rnini to‘g‘ri joylashtirish va qatorni qog‘oz varag‘ida joylashish o‘rnini bilish uchun qog‘ozda gorizontal, yotiq chiziqlar chiziladi, shunda daftarning betida o‘ziga xos setka paydo bo‘ladi. O‘quvchilar unga har bir alohida harfni yozib boradilar. Qatorning yo‘nalishini ko‘rsatib turuvchi chiziq va kataklar harflarning ayrim elementlarining proporsiyalarini aniqlashtirib olish va yozuvni o‘rganish jarayonini anchagina osonlashtiradi. Shuning uchun ham yozuvga o‘rgatishning asosiy uslubi hisoblanadi va o‘quvchi maktabda to‘g‘ri yozish mashg‘ulotlarida undan foydalanadi.chiziqli uslubning o‘ziga hos ijobiy xususiyatlaridan tashqari, setkaning ichiga yozish bir

qator kamchiliklarga ega.

1) tez-tez uchrab turadigan kataklarda yozish bolani bir muncha cheklab qo‘yadi, uning diqqatini bo‘ladi, bir tomondan o‘quv chi kerakli harfni yozayotgan qo‘lining harakatini kuzatib borsa, ikkinchi tomondan esa harflar chiziqdan tashqariga o‘tmasligini kuzatib boradi.

2) kataklar orasiga yozishni o‘rgangan bola aniq va tez yozish malakalarini egallay olmaydilar. Shuning uchun ham o‘quvchi harfning elementlarini chizish asosiy proporsiyalarning asosini o‘zlashtirib olgandan so‘ng , kataklarga yozish ehtiyoji yo‘qoladi. Ikkinchi sinfdayoq bolalar bir chiziqli daftarga yozishga o‘tadilar.

Qo‘l kaftlarining va panjalarining erkin harakatlanishini rivojlantirish uchun lozim bo‘ladigan uslublar .yozuvga o‘rgatishda mashq harakteriga ega bo‘lgan alohida mashg‘ulotlarsiz ish bitmatdi. Bumayda muskullar va qo‘lning kaft qismi yaxshi rivojlanmagan. Ularda ko‘rsatgich barmoq va ayniqsa uning uchi yaxshi rivojlanmagan, buning natijasida bola ko‘rsatkich barmoq bilan ruchkani qattiq bosib yozadilar. Bolalar katta barmoqdan ham yaxshi foydalana olmaydilar, buning natijasida o‘z xohishlaricha ushlaydilar. Shuning uchun ham ko‘rsatkich va katta barmoqning mayda muskullarini rivojlantirish lozim.

Tayyorgarlik mashqlarini bajarish bilan bolalar qo‘llarini yozuvda kerak bo‘ladigan harf elementlarini nozik vaaniq harakatlarga tayyorlab boradilar. Bunday mashqlarning maqsadi barmoqlar harakatining yengil va egiluvchan bo‘lishiga erishishdir. Ular o‘quvchilarga harflarni to‘g‘ri husnixatda yozishga va uni tez yozuvda rivojlantirishga yordam beradi.

Bu uslubni birinchi sinfning birinchi yarim yilligida yozuvga endi o‘rgatishga boshlagan davrada qo‘llash katta ahamiyatga ega. Masalan, pastga aylana shaklida yoziladigan shtrixni yozish uchun, barmoqlarni aylana harakat qilishga mashq qildirish lozim. Keyinchalik ular “o‘”harfini yozish ga ham yordam beradi.

Yozuvda yoki uslubda ko‘rsatib o‘tilgan mashqlarning barchasini birdaniga bajarish mumkin emas, balki u yoki bu harf o‘rgatish uchun dars jarayonida kerak bo‘ladigan, qo‘l va barmoqlarni to‘g‘ri harakatlantirishga **y**ordam beradigan uslubni olish kerak.

Genetik usul.Genetik usul to‘g‘ri yozishga o‘rgatishning asosiy uslubi hisoblanadi. Boshlang‘ich maktabning dasturida ko‘r satilishicha alifbeni o‘rganish vaqtida bolalar alifbeda harflar qanday joylashgan

bo‘lsa shu tartibda yozilishida oson yoki qiyinligidan qat’iy nazar ketma-ket o‘rganiladi.

Genetik usul bilan yozuvga o‘rgatish hozirgi kunda alifbeni o‘rganib bo‘lgandan so‘ng to‘g‘ri yozuvga o‘rgatishning butun borishida amalga oshiriladi. Bu uslubning afzalligi shundan iboratki,o‘quvchi yozuvdagi harfni alifbedagi tartibda emas, balki uning yozilishidagi murakkab tomonlariga va yozuvdagi harf avvalgi yozuv mashqlariga mos kelishi kerak.

Oldiniga o‘quvchilar oddiyroq va yengil harflarni yoza boshlaydilar, keyinchalik esa birmuncha murakkabroq va oxirida qiyin mashqlarni yozadilar.

Bunday ketma ketlikning afzallik tomoni shundaki ,o‘quvchi 1-2 ta elementni

o‘zlashtirib olib shakli jihatidan soddaroq bo‘lgan harfga o‘tadi. So‘ng qandaydir shriftni yokialohida bir elementni qo‘shish orqali yangi harflarni, tuzilishi jihatidan murakkabroq bo‘lganni o‘rganishga o‘tadi.

Alohida elementni o‘rganganidan so‘ng alohida harflarga ega bo‘lgan yozuvga, undan keyin so‘z yozishga o‘tiladi.

Bu quyidagi tartibda amalgam oshiriladi:

1. O‘qituvchi hozir yozuv bilan shug‘ullanish larini aytib o‘tadi o‘quvchilar mashg‘ulotga kerak bo‘ladigan narsalarni tayyorlab qo‘yadilar.
2. Undan keyin o‘qituvchi sinf doskasidagi harf yoki so‘zning yozilish tartibini tusuntirib beradi, o‘quvchilar esa o‘qituvchining yozish jarayonidagi qo‘l harakatlarini takrorlab borishlari lozim.
3. O‘qituchi tomonidan so‘z o‘quvchilar bilan o‘qib chiqiladi va havoda yozish mashqlari bir necha bor takrorlanadi. Bunday tayyorgarlik mashqlaridan so‘ng o‘quvchilar daftarga yozishga o‘tadilar.

Yozish malakasini egallab borishga o‘rgatish maqsadida avvaliga soda elementlardan tashkil etilgan so‘zlarni keyin esa murakkabroq so‘zlarni yozishga o‘tiladi.

Na’munaga qarab yozish usuli. Husnixatga o‘rgatish usullaridan biri harflarning shaklini namuna qilib ko‘rsatish va yozdirishdir.

Har bir harfning namunasi doskada barcha o‘quvchilarning diqqatini jalb qilgan holda yoki ayrim o‘quvchilarga daftarda alohida-

alohida ko‘rsatiladi.O‘quvchining vazifasi doskada eslab qolgan shakllarini o‘z daftarlariga to‘g‘ri aks ettirishdir.

Doskada yozib ko‘rsatilgan har bir harf barcha o‘quvchilarga aniq ko‘rinib turishi shart. Agar ayrim o‘quvchilar uni aniq ko‘rm agan bo‘lsalar, qaytadan takrorlab ko‘rsatiladi. O‘qituvchi har bir harflarning bog‘lanishi, og‘zaki yoki doskada tushuntirish orqali qo‘lni qayerga qo‘yish kerak, qayerda qol har akati buriladi, harflarning baland-pastligi qay darajada bo‘lishi kerakligi orqali tushuntiriladi.

Nusxaga qarab ko‘chirish usuli .

Bu usul qadimiy usul bo‘lib hozirgi kunda hamqimmatini yo‘qotmagan holda qo‘llanilib kelinmoqda.Bu usulda o;quvchilar harflarni “Husnixat” kitobi yoki “Yozuv daftari”dagi namunalarga qarab ko‘chirib yozadilar.

Tayyor holdagi nuqtalar bilan ifodalangan harflar ustidan qo‘lni yurgizib mashq qilish mehanik jarayon bo‘lib, o‘quvchilar bu topsh iriqni oson bajaradilar.

“Husnixat”darsligida berilgan namunaga qarab y ozdirish o‘qituvchining vaqtini tejaydi ,unumli ishlashga yordam beradi.

Nusxa ko‘chirish usuli

Bu metod harf shaklini to‘g‘ri tasavvur qila o lmaydigan,yozayotganda daftar

chiziqlaridan pastga yoki yuqoriga chiqib ketadigan o‘quvchilar uchun qo‘llaniladi.

Ayrim hollarda o‘qituvchi chiroyli yozuvga o‘rgat ishning dastlabki davrida o‘quvchilarni harf, uning elementlari haqida to‘g‘ri tasavvurga ega qilish uchun yupqa xitoy qog‘ozidan ham foydalanishi mumkin. Lekin bunday mashqlar qo‘l harakatini o‘stirish uchun yordam beradi. Bundan uzoq foydalanish yaxshi samara bermaydi, o‘quvchi harf shaklinimustaqil yoki namunaga qarab yozishda qiynaladi.shuning uchun ham bu usuldan yakka shug‘ullanganda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tasavvur orqali yozish usuli.

Bolalarga tasavvur orqali havoda harflar shaklini ezdirish ham qo‘llaniladi.

O‘qituvchi doskaga ezib ko‘rsatgan harf yoki unin g bog‘lanishlarini o‘quvchilarga ruchkani havoda harakatlantirlb ko‘rs atadi va bu orqali o‘quvchida harf haqida tasavvur hosil qilinadi.So‘ng o‘quvchi daftarga yozishga kirishadi. Bunday mashq usuli

o‘quvchining qiziqishini oshiradi.

Bu usulning salbiy jihati shundaki,o‘qituvchi bu usuldan foydalanganda barcha o‘quvchilarning qo‘l harakatini to‘g‘ri yoki noto‘g ’riligini bir paytda tekshira olmaydi. Bunda bir necha o‘quvchining qo‘l harakatin i kuzatib tegishli ko‘rsatma beriladi.

Ritmik(sanoq-ohang) usuli.

Bu usul o‘qituvchi sanog‘I ostida harf va uning ele mentlarini yozish demakdir. Bu usuldan savod o‘rgatish davrida foydalanjsh mumkin. Sanoq-ohang usulining foydali jihatlari mavjud. Birinchidan , harflarning tekis yozishini ta’minlaydi.Ikkinchidan sekin yozadigan o‘quvchilarni tez va sinfdagi barcha o‘quvchi bilan barobar yozishga undaydi. Uchinchidan, o‘quvchilar aniq va dadil harakatlanish orqali ish bajaradi. To‘rtinchidan, sinfda darsni jonlantiradi. Bu usuldan butun dars davomida foydalanib bo‘lmaydi, chunki o‘quvchi charchab qoladiva yozuv sifati buziladi.

Ritmik usulni qo‘llashda asosan, harflarning asosiy elementi “bir”,”ikki”, ”uch”deb beriladi.

Bu usulni qo‘llashda harf yoki elementlar avval sanoqsiz yoziladi so‘ngra sanoq ostida yozdiriladi.

Sanoq-ohang yoki ritmik usuldan bo‘g‘in va so‘z,g aplarni yozdirishda ham foydalaniladi.

Harf va ularning elementlarini tahlil qilish usuli.

Harf va uning elementlarini tahlil qilish turlicha amalgam oshiriladi. Harflarni elementlarga ajratib tahlil qilish har bir harfning necha elementdan tuzilganligini, qanday shaklda ekanligini, bu elementlar boshqa harflar bilan bog‘lanishida qanday ko‘rinishga ega bo‘lishini o‘quvchilar tasav vur etadilar .

Ayrim harflar bir necha elementdan tashkil topgan bo‘lib, ular bir butun shaklda yoziladi,ammo o‘qituvchi uning necha elementdan iboratligini eslatib o‘tadi. m, kichik d harfining birinchi elementi to‘liq oval, ikkinchi elementi pasti halqali tayoqchadan iborat.

Bu o‘rinda harfning necha elementdan iborat ekanligi eslatib o‘tiladi, yozishda esa bu harfni qo‘l harakatini uzmasdan yozish talab qilinadi.

Qo‘l harakatini mashq qildirish usuli .

Qo‘l harakatini mashq qildirish usuli bolalarning charchagan a’zolarini dam olishiga va yozuv sifatiga katta ta’sir etadi. O‘qu vchilar dars jarayonida bajariladigan mashqlar oddiy bo‘lib, kam vaqt olishi’

o‘quvchining jismoniy jihatdan o‘sishiga ,qo‘l va barmoqlarning chiniqish iga, qaddi-qomatining to‘liq,erkin tutilishiga yordam berishi lozim. Yozuv darsida 8-10 daqiqa o‘tgandan so‘ng o‘quvchila betoqat bo‘lib charchash alomatla ri ko‘zga tashlanadi. Mana shunday holatda o‘quvchilarning charchashlariga ahamiyat bermay ko‘p yozdirish natijasida o‘quvchi toliqadi, harakatlari sustlashadi,hati xunuklashadi,ko‘p xatoga yo‘l qo‘yadi. Shu sababli charchashning oldini olish uchun vaqti-vaqti bilan jismoniy mashqlar o‘tkazib borish zarur. Jismoniy mashq izchil o‘tkazib borilsa, keyin esa yozishga kirishilsa,o‘quvchilarning ish qobiliyati tiklanadi va darsga qiziqishi ortadi. Xullas,ish faoliyati davrida qo‘l harakatini mashq qildiruvchi jismoniy mashqlardan foydalanib turilsa, chiroyli yozuvga o‘rgatishning asosiy shartlaridan biridir.

Savol va topshiriqlar

1. Yozuvga o‘rgatishda qanday usullardan foydalaniladi?
2. Chiziqli usulga xos xususiyatni va uning salbiy tomonlarin bayon qiling.
3. Genetik usul husnixatga o‘rgatishda qanday ahamiyatga ega?
4. Ritmik usul qanday amalgam oshiriladi?
5. Yuqoridagi usullarni qo‘llab dars ishlanmasini tayyorlang.

7-MAZU: HUSNIXATGA O‘RGATISHNING GRAFIK ASOSLARI.

Reja:

1. O‘quvchilarning bilim doirasini tashkil etish xususiyatlari.
2. Innovatsion ta’lim tizimini takomillashtirish.
3. Boshlang‘ich ta’limda pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Tayanch so‘zlar: *boshlang‘ich sinf, yozuv, daftar, maktab, grafik yozuv, innovatsion texnologiya, metod, vositalar.*

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi.Darslik. –T.: TDPU, 2013. – 70 b.

2. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Sobirova N. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. - T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2008.

3. Adizova N.B., Adizova N.B. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Buxoro: “Durdona”, 2021. -112 b.

4. Adizova N.B, Jumayev R.X., Qo‘ldoshev R.A., Ismatov S.R. Ona tili o‘qitish metodikasi. Buxoro. Durdona.: 2021. -292 b.

5. Safarova R va boshq. Alifbe. - T.: “O‘qituvchi” , 2020

6. H.Bakiyeva, N.Ahmedova, N.Azizova, D.Nosirova, B.Teshaboyeva, U.Ismoilova, B.Egamberdiyeva “Savodga o‘rgatish darslari”.-T.: “Extremum- press”, 2014. -119 b.

7. Safarova R., G‘ulomov M., Inoyatova m. Savod o‘rgatish darslari. 1-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.-T.: “Tafakkur”, 2012.-141 b

8.Azimova I, Mavlonova K, Quronov S, Tursun Sh. “Ona tili va o‘qish savodxonligi ” 1- sinf uchun darslik.I-II qism. “Yangiyo‘l poligraf servis” MCHJ nashriyoti. 2021-yil. 208 b

9.PIRLS 2021 Assessment Frame work. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association forthe Yevaluationof Yeducational Achievement (IEA), TIMSS& PIRLS International Study Center, Lynch School of Yeducation, Boston College. 2019. www.timssandpirls.bc.edu

Axborot manbalari

1.www. tdpu. Uz

2.www. pedagog. Uz

3.www. Ziyonet. Uz

4www. yedu. Uz

5.tdpu-INTRANET. Ped tdpu-INTRANET. Ped

Boshlang‘ich sinf bolalarida yetakchi ta’lim faoliyatining asosiy elementlari, zaruriy bilim va ko‘nikmalar shakllanadi. Ushbu davrda fikrlash shakllari sekin-asta rivojlanib boradi, ilmiy bilimlar tizimi yanada kengroq o‘zlashtiriladi, fikrlashni rivojlantirish holati ta’minlanadi. Bu paytda ta’lim va kundalik hayotda mustaqil yo‘nalish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Ushbu davrda psixologik qayta qurish amalga oshiriladi. Bu boladan nafaqat ruhiy stressni, balki katta jismoniy chidamlilikni ham talab qiladi.

Maktab – bu shaxsning faoliyat subyekti sifatida ijtimoiy borlig‘ining boshlanishi. Ushbu vazifada kichik o‘quvchi, avvalambor,

unga tayyorligi bilan ajralib turadi. U o‘rganish uchun imkoniyat yaratadigan fiziologik (anatomik va morfologik) va aqliy, avvalo, intellektual rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Bolaning maktabga tayyorligining asosiy ko‘rsatkichlari: uning ichki pozitsiyasini, semiotik funksiyasini shakllantirish, o‘zboshimchalik, qoidalar tizimiga e’tibor qaratish qobiliyati va boshqalardir.

Maktabda o‘qishga tayyorgarlik - bu yangi dunyoga, kattalar dunyosiga kirish, quvonish, bilimga bo‘lgan munosabatni shakllantirishni anglatadi. Bu yangi mas’uliyatga tayyor bo‘lishni, maktab, o‘qituvchi, sinf oldida mas’uliyatli bo‘lishni anglatadi. Yangi bilimlarni kutish, ularga bo‘lgan qiziqish kichik o‘quvchining ta’lim motivatsiyasi asosida yotadi. Bilim ehtiyojining hissiy tajribasi sifatida qiziqish, o‘quv faoliyatining ichki motivatsiyasi, yosh o‘quvchining bilim ehtiyoji ushbu ehtiyojni qondiradigan ta’lim mazmunini “qondirganda” asoslanadi.

Bolaning maktabga tayyorgarligi bir qator talablarning qondirilishi bilan belgilanadi. Bunga quyidagilar kiradi: bolaning umumiy jismoniy rivojlanishi, yetarli miqdordagi bilimga ega bo‘lish, o‘z-o‘ziga xizmat qilishning “kundalik” ko‘nikmalariga ega bo‘lish, o‘zini tutish madaniyati, muloqot, boshlang‘ich mehnat; nutqni yaxshi bilish; yozuvni o‘zlashtirishning dastlabki shartlari (qo‘lning kichik mushaklarini rivojlantirish); hamkorlik qilish qobiliyati; o‘rganish istagi.

Bolaning maktabga moslashish davri ancha uzoq, vaqtni talab etadi. So‘rovnomalar shuni ko‘rsatadiki, ota-onalar moslashish uchun bir yoki ikki haftadan, o‘qituvchilar esa ikki yoki uch haftadan ko‘p vaqtni “olishadi”. Ko‘rib turganingizdek, haqiqiy shartlar ikki baravar ko‘p. Bundan tashqari, yuqori darajadagi tashvish qo‘zg‘aluvchanlik, sezgirlik, o‘ziga ishonmaslik, mas’uliyat, vijdonlilik va ijtimoiy me’yorlarni yaxshi tushunadigan chapaqay o‘quvchilarda birlashtiriladi. Bu bolalar uchun haqiqatan ham tengdoshlar bilan muloqot juda zarur bo‘lib, ular uchun ijobiy hissiy quvvat manbayi bo‘lib xizmat qiladi.

Kattalar va tengdoshlar bilan munosabatlarda nizolarning paydo bo‘lishi chapaqaylar uchun juda kuchli psixotravmatik omil bo‘lib, maktabga moslashish jarayonida qo‘shimcha qiyinchiliklar tug‘diradi. Ko‘pgina ota-onalar va o‘qituvchilar bolalarning hissiyotlari kuchayganidan shikoyat qiladilar (ular tezda va “mayda-chuyda

narsalardan” xafa bo‘lishadi, ular har qanday qattiq so‘zlarni tez his qilishadi, o‘z tengdoshlarining haqoratlari va tushunmovchiligiga juda sezgir). Biz “shikoyat qilish”ni tasodifan yozmaganmiz, haqiqatan ham shunday va ehtimol bu shikoyatlar bolaning xususiyatlarini tushunmaslik, uni boshqalar kabi ko‘rishni istash natijasidir.

Tadqiqotchilar, ota-onalar va o‘qituvchilar ko‘pincha chapdast bolaning yolg‘iz qolish tendensiyasini, nafaqat kattalar bilan, balki o‘z tengdoshlari bilan ham muloqotga kirishishi qiyin kechishini ta’kidlaydilar. Juda kuchli ifoda etilgan ushbu tendensiya autizm deb ataladi. Autizm (yunoncha autos “o‘zini”dan) o‘zini ijtimoiy aloqalarga befarqlikda, o‘ziga, ichki tajriba olamiga chekinishda namoyon qiladi. Bunday bolalar takrorlanadigan harakatlarga, o‘zlarining ixtiro qilingan tillaridan foydalanishga moyil. Bola, go‘yo, haqiqatni o‘z dunyosiga qoldiradi.

O‘quvchilarning faoliyatida uning bilim doirasini tashkil etish xususiyatlari quyidagi ko‘rinishlarga ega bo‘lishi mumkin:

1. Vizual - harakatni muvofiqlashtirish qobiliyatining pasayishi: bolalar grafik tasvirlarni chizish vazifasini yaxshi bajara olmaydilar; yozish, o‘qish paytida chiziqni ushlab turishda qiynaladilar.

2. Mekansal idrok etish va vizual xotiraning kamchiliklari, yozishning o‘ziga xosligi, harflarni tashlab qo‘yish va qayta joylashtirish, optik xatolar.

3. Diqqatning zaifligi, almashtirishda qiyinchilik va konsentratsiya.

5. Nutqning buzilishi: tovush va harf belgilaridagi xatolar.

O‘quvchilarning eng muhim xususiyatlaridan biri bu ularning hissiy sezgirligi, zaiflikning kuchayishi, xavotirlanish, ishlashning pasayishi va charchoqning kuchayishi.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida e’tirof etilgan davlat va jamiyat rivojini yangi bosqichga ko‘tarish, hayotning barcha sohalarini liberallashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilishdek dolzarb vazifalarni amalga oshirish innovatsion rivojlanishning ko‘lami hamda sur’atiga bog‘liq ekanligini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi shundan dalolat bermoqdaki, innovatsion rivojlanish insonlarda, xususan, turli tashkilot, korxona va firma xodimlari, mutaxassislarida innovatsion bilimlarga asoslangan faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyatini, vakolatini hamda

muayyan amaliy tajribani shakllantirishni taqozo etadi. Boshqacha aytganda, innovatsion rivojlanish “innovatsion inson”ni shakllantirishni talab etadi.

Innovatsion inson keng ma’nodagi ibora bo‘lib, u mamlakat har bir fuqarosining ijtimoiy hayotda, iqtisodiy taraqqiyotda, fan va texnologiyalar rivojlanishida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning faol tashabbuskori, yaratuvchisi bo‘lishini va bu o‘zgarishlar uning hayotiy prinsiplarining ajralmas qismi bo‘lib qolishini anglatadi. Bu har bir inson innovatsion muhitda o‘zining qobiliyati, qiziqishi, salohiyatidan kelib chiqqan holda zimmasiga yuklatilgan vazifalarni samarali bajara olishi talab qilinadi deganidir.

Innovatsion muhit insonlarga juda yuqori talablarni qo‘yadi, ular ichida eng asosiylari quyidagilardan iborat:

– uzluksiz ta’lim tizimiga tayyor bo‘lish, o‘z ustida tinimsiz ishlash, mustaqil ta’lim olish bilan shug‘ullanish, doimo yangilikka intilish;

– tahlil qilish, tanqidiy fikrlash xislatlarini qaror toptirish, jamoada ishlash layoqati borligini ko‘rsatish, raqobatbardoshlik muhitida faol bo‘lish ko‘nikmasini namoyon etish, ishga ijodiy yondashish;

– xorijiy tillarni global miqyosda keng muloqot qilish uchun puxta egallash, jahon hamjamiyati xalqaro til sifatida tan olgan tillarda erkin suhbat qurish qobiliyatiga ega bo‘lish.

Qayd etilgan qobiliyat hamda sifatlarni shakllantirishda davlatning nafaqat bir sohadagi (ta’lim sohasi nazarda tutilmoqda), balki ijtimoiy hayotning barcha jabhalaridagi muhitni o‘zgartirib, insonlarning qobiliyatlarini to‘la namoyon qila oladigan hamda mehnati rag‘batlantiriladigan sharoitni yaratishga qaratilgan siyosati bo‘lishi lozim.

Yuqorida qayd etilgan talablarga javob beradigan “innovatsion inson”ni shakllantirish vazifasi mamlakatimizda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ta’lim sohasidagi siyosatning muhim yo‘nalishlarini, ayniqsa, oliy ta’lim sohasini tubdan modernizatsiya qilishni talab etadi. 2018 yilning 24 oktyabrida oliy ta’lim sohasi vakillari ishtirok etgan majlisda mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bu sohada yig‘ilib qolgan muammolarni hal etish, ularning yechimini topish borasida so‘z yuritdi.

Respublika ta’lim sohasini innovatsion yo‘nalishda isloh qilishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim.

Birinchidan, ta’lim tizimining dastlabki bosqichi (maktabgacha ta’lim tizimi)dan boshlab uning mazmun-mohiyati, texnologiyasi, metodlari, usullari yuqorida qayd etilgan, innovatsion faoliyat uchun zarur bo‘lgan sifat hamda xususiyatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Bu borada muhim ahamiyat kasb etadigan vazifa - global miqyosda raqobatbardosh bo‘lgan pedagoglar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va menejerlarning yangi toifasini shakllantirishdir. Bu o‘ta murakkab hamda dolzarb vazifani hal etishda asosiy e’tibor ta’lim tizimining uzluksiz bo‘lishiga, iqtisodiy faol aholining, xodim va mutaxassislarning o‘z malakalarini doimiy ravishda oshirib borishlarini rag‘batlantirishga (har yili o‘rtacha 15-20 foiz xodimning malakasini oshirishga erishish), buning uchun qulay shart-sharoit yaratilishiga qaratilishi lozim. Bugungi kunda texnologik rivojlanishning tezkorligini, olingan bilimlarning tez eskirishi, qadrsizlanishini, iqtisodiy tizimda bo‘layotgan tuzilmaviy o‘zgarishlar sur’atini inobatga olgan holda ta’lim tizimi o‘quvchilarda tezkor, tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini, katta hajmdagi yangi axborotlarni qabul qilish, o‘zlashtirish va ulardan samarali foydalanish xususiyatlarini shakllantirishi lozim. Hayot talabiga javob beraman degan inson, sharoit taqozo etsa, faoliyat turini bir necha bor o‘zgartirish xususiyatiga ham ega bo‘lishi shart.

Ikkinchidan, yoshlarning innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantiruvchi tizimni yaratish. Bu tizimda asosiy e’tibor: birinchidan, yoshlarga, oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olayotgan talabalarga texnik hamda mutaxassisliklar bo‘yicha qo‘shimcha dasturlar yaratish; yoshlar orasida turli konkurslar, forumlar, olimpiadalar o‘tkazish, iqtidorli o‘quvchilarni o‘rta ta’lim tizimining yuqori bosqichlaridan boshlab ilmiy faoliyatga jalb qilish tizimini yaratish zarur. Oliy ta’lim muassasalarida maktab o‘quvchilari uchun ilm-fanning turli yo‘nalishlari bo‘yicha kunduzgi, sirtqi kurslarni tashkil etish; qishloq maktablaridagi o‘quvchilarni (kamida 20 foizini) ana shunday kurslarga jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, jamiyatda innovatsion faoliyatning obro‘sini oshirish, innovatsion madaniyatni tezkor shakllantirish lozim. Bu borada ijtimoiy xizmat ko‘rsatish turlarining butkul yangi ko‘rinishlari (innovatsion muzeylar tashkil etish, zamonaviy kinoteatrlar qurish,

interaktiv servisni kengaytirish, ta’lim tizimining butkul yangi infratuzilmasini yaratish) va boshqalarni joriy etish davr talabidir. Innovatsion madaniyatni shakllantirish yanada sermazmun, ommabop, ma’rifiy teleradio ko‘rsatuv va eshittirishlarini ko‘paytirish, avtomatlashtirilgan elektron axborotlar manbalariga keng yo‘l ochib berishni taqozo etadi.

Innovatsion faoliyatni yuksaltirish, ta’lim tizimini takomillashtirishda ilmiy ommabop kitob hamda jurnallar, ayniqsa, yoshlar, o‘smirlarga mo‘ljallangan nashrlar ko‘plab yaratilishiga alohida e’tibor qaratilishi lozim. Maktab o‘quvchilarini ilm-fan, texnika sohasidagi yutuqlar bilan tanishtirib borish, ularda bilimga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi, talantli yoshlarni aniqlash imkonini beradi hamda ularda ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishga qiziqish uyg‘otadi.

To‘rtinchidan, mamlakatimizda hamda xorijiy davlatlarda yillar davomida innovatsion rivojlanish borasida misqollab yig‘ilgan an’analarni, tajribalarni, yutuqlarni hisobga olgan holda ta’lim siyosatini yuritish. Qayd etilgan vazifalarni samarali hal etish davlat, ilm, ta’lim, biznes sohasi vakillari hamda fuqarolik institutlari bilan uzviy hamkorlikni taqozo etadi. Bu hamkorlikni amalga oshirish mexanizmi mamlakatimiz Prezidenti tashabbusi bilan fan, ta’lim sohalarida, tadbirkorlikni rivojlantirish borasida ishlab chiqilayotgan davlat dasturlaridan iborat bo‘lishi lozim. Bugungi kunda ta’lim tizimi hamda ilm-fan, insoniyat taraqqiyotining asosi, inson kapitali rivojlanishining kafolati, har qanday davlatning yangi bosqichga ko‘tarilishini ta’minlovchi kuchga aylandi.

O‘zbekistonning yaqin o‘n yillardagi rivoji jamiyat a’zolarining barchasini keng ma’noda o‘qimishli qilish, bu o‘zgaruvchan olamda har bir insonga o‘z salohiyatini to‘liq namoyon etishi uchun imkon yaratishga bog‘liq. Bunga mamlakatda ishlab chiqilishi kerak bo‘lgan “Ta’lim konsepsiyasi” asos bo‘lishi mumkin. Ushbu konsepsiyada ishlab chiqilgan ta’lim tizimining maqsadi, vazifalari, prinsiplari hozirgi davrdagi globallashuv jarayonlarining, mamlakatni innovatsion hamda informatsion rivojlanishining talablariga mos bo‘lishi lozim. Innovatsion ta’lim tizimi mamlakatda intellektual qatlamni yaratishga, har bir insonning intellektual salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qilishi kerak. Ayni paytda, bu ta’lim tizimi barchaga barobar ochiq hamda yuqori sifat darajasida bo‘lishi lozim. Innovatsion ta’lim nafaqat

insonlarning kasbiy o‘sishini, ijtimoiy maqomini, balki ular hayotining mazmunini ham belgilab berishi kerak.

Bir so‘z bilan aytganda, innovatsion ta’lim insonda mustaqil hamda ijodiy fikrlashni tarbiyalash bilan bir qatorda, u insonning o‘zini namoyon etishiga, tinmay ilmga intilishiga, yangi-yangi bilimlarni o‘zlashtirishiga, innovatsion madaniyatning shakllanishiga xizmat qiladigan tizim bo‘lishi lozim.

Ta’kidlaganimizdek, keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan ta’lim tizimini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta’limning samaradorligini oshirishga bo‘lgan qiziqish, e’tibor hamda talab kundan-kunga kuchayib bormoqda. Ahamiyatli tomoni, shaxsni rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirish imkoniyatining kengligidir.

Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilganda pedagoglar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. Pedagog bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi.

Boshlang‘ich ta’limda yangi pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanish tarbiyani ta’limga bog‘lash, har ikkisini tuzilishi va mazmuni jihatdan yaxlitlashtirishga, o‘quvchi faoliyatini mujassamlashtirishga, mustaqil fikrlashga yo‘llash uchun qulay sharoit yaratadi. Pedagogik texnologiya asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan, ma’nan yetuk, barkamol shaxslarga aylantiradi.

Innovatsiya (inglizcha innovatsion - yangilik kiritish) - tizimning ichki tuzilishini o‘zgartirish demakdir. Innovatsiyalar dolzarb ahamiyatli bo‘lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir.

Pedagogik texnologiya ta’limga tizimli yondashuv asosida tatbiq etiladi hamda o‘quvchining yoshi, ruhiyati, dunyoqarashi, bilimi, faollik darajasi, ta’lim-tarbiyaning maqsadi, yo‘nalishi, mazmuni, shakllari, usullari e’tiborga olinadi. Pedagogning bu jarayon tashkilotchisi, ijodkor sifatidagi faoliyati asosini uning bilimi va mahoratini, texnik vositalardan foydalanib, bolaning qiziqish va intiluvchanligiga ta’sir ko‘rsatish, bolani faollashtirishga xizmat

qiluvchi usullarni qo‘llab, kafolatlangan samaralarga erishish qobiliyati tashkil etadi.

Zamon shiddat bilan o‘zgarib borar ekan, ta’lim sohasi ham u bilan barobar o‘zgaradi va o‘qituvchidan o‘z faoliyatini o‘zgartirishni talab etadi. Pedagogning asosiy vazifasi faqat ta’lim berish emas, balki boshqaruvchilikdan ham iborat bo‘lib, u ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil qilishi va boshqarishi, ta’lim-tarbiya jarayoniga yangiliklarni uzluksiz kirita olishi ya’ni innovatsion faoliyat yuritishi talab etiladi.

Innovatsion faoliyat - pedagogni harakatga keltiruvchi, izlanuvchanligini oshiruvchi, olg‘a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir.

Informatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi keyingi yillar ichida insoniyat shaxsining shakllanishiga ma’lum darajada iz qoldirdi. Yangi axborotlar, reklamalarning tezda kirib kelishi, televideniyada kompyuter texnologiyalarining qo‘llanishi, elektron o‘yinchoqlar va kompyuterlarning keng tarqalishi bola tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada u yaxshi ko‘rgan o‘yinlar, sevimli qahramonlari va qiziqishlari ham o‘zgaradi.

Maktabda o‘qish boshlanganda u ma’lum qulaylikni his etishi mumkin. Bugungi kunda hali barcha maktablarda texnologik sinflar bor deb bo‘lmaydi. Lekin maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturini amalga oshirishning yo‘nalishlaridan biri “Maktablarni zamonaviy o‘quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va o‘quv-usubiy materiallar bilan ta’minlash.” (2004-2009- yillarda maktab ta’limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi to‘g‘risida. –O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. //Xalq so‘zi. 22- may 2004- yil №108 (3383).

Eskirgan o‘quv dasturlari va metodik usullar o‘quvchilar bilimining pasayishiga olib keladi. O‘qituvchilardan esa o‘qitishning yanada zamonaviy usul va vositalarini izlashga undaydi. Bunday vositalardan biri bu kompyuterdir.

Televizor, videomagnitafon, kitoblar imkoniyatlarni mujassamlashtirib, universal o‘yinchoq hisoblanib, turli xil o‘yinlarga qodir bo‘lgan zamonaviy kompyuter shu bilan birga bola uchun uning savol va harakatlariga javob bera oladigan teng huquqli hisoblanadi. Maktabning o‘quv va o‘quv jarayonidan tashqari faoliyatida kompyuterlarning qo‘llanilishi bolada o‘qish motivatsiyasi o‘sishining

va ijodiy imkoniyatlari rivojlanishining samarali xususiyatlaridan biridir.

Bir qator pedagoglar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kompyuter savodxonligining rivojlanishiga ikkilanadilar. Ularning ba’zilari kompyuterlar faqat sinfda bolaning e’tiborini chalg‘ituvchi yana bir vosita deb hisoblasalar, boshqalari esa hisoblash texnikasi sohasida jiddiy professional tayyorgarliksiz o‘qituvchilarning darslarda kompyuterlardan foydalanishi va kompyuter savodxonligiga bolalarni o‘rgatish mumkin emas deb ta’kidlaydilar. Uchinchilari esa kompyuterlardan doimiy foydalanish maktabda shunday bir holatga olib keladiki, unda insoniyat kompyutersiz sonlarni na qo‘shish, na hisoblay olishga qodir bo‘lishi xavfini ifodalaydilar. Yana bir muhim qarshilik mavjud bo‘lib, u bolalarning bir-biri bilan kam muloqotda bo‘lishi muammosidir. Chunki kompyuter zamonida ular vaqtlarining ancha qismini kompyuterda o‘tkazishadi.

Falsafa shundaki, maktabni informatsion asrga adaptatsiyalanishidan boshqa chorasi yo‘qdir. Hisoblash texnikasi bilan tanishish bunday adaptatsiyaning faqat bir qismi sanaladi. Adaptatsiyaning asosiy maqsadi shundaki, bolalarni axborot-ma’lumotlarni qayta ishlashga o‘rgatish, topshiriqlarni bajara olishga, insonlar bilan muloqot qilish va jamiyatdagi o‘zgarishlar mohiyatini tushinishga o‘rgatish zarurdir. Kompyuter maqsadlari matematika, ijtimoiy fanlar, tabiatshunoslik va ona tili darslarida amalga oshirilishi lozim. Bunday integratsiya 1 yil davomida tugatilishi yoki bir qaysidir loyihani amalga oshirilish natijasi bo‘la olmaydi. Aksincha, bu oxiri yo‘q jarayondir. U o‘quv jarayonini umumiy kompyuterlash maqsadlarining birligini o‘z ichiga oladi. Uning amalga oshirilishi ma’muriyat o‘qituvchi va pedagoglarning hamkorlik ishi natijasida erishish mumkindir. Kompyuterlashtirishning sotsial qirralari, asosiy usullar va vazifalar yechimidagi yondashuvlar, ma’lumotlarni qayta kompyuterda ishlash usullari sekin-asta murakkablashadi va matematika, tabiyot, ijtimoiy fanlar va ona tili darslarida turli usullar bilan muhokama etiladi. Bunday vaziyatda kompyuter o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida axborot-ma’lumot almashish vositasi bo‘lib qoladi.

O‘quv-tarbiyaviy jarayonda kompyuterlarning qo‘llanishi diapazoni juda katta: kompyuter ham ta’lim ob’yekti, ham ta’lim vositasi (usuli)dir. Ya’ni kompyuterlashtirish ta’limotining 2 yo‘nalishi bo‘lishi mumkin: informatika o‘rganish va turli predmetlarni (fanlarni)

o‘rganishda undan foydalanish. Bunda kompyuter ta’lim, o‘rganish samaradorligining oshirilish usuli hisoblanadi. Kompyuter o‘quv ma’lumotlarini taqdim etish imkoniyatlarini ancha kengaytirdi. Rang, grafika, tovush, videotexnikaning zamonaviy vositalarini qo‘llash turli holat va muhitni modellashtirishga imkon beradi.

Kompyuter o‘quvchi motivatsiyasini kuchaytiradi. Kompyuterda ishlab turib, o‘quvchi topshiriqning yechimini kerakli yordamga tayangan holda oxirgacha yetkazish imkoniga ega bo‘ladi. O‘quvchi bajarayotgan topshiriqlarning tiplari anchagina kengayadi: tuzish, dasturlash va hokazo.

Kompyuter o‘quvchi faoliyati ustidan nazoratni sifatli o‘zgartirishga imkon beradi, kompyuter barcha javoblarni tekshiradi, ko‘pgina hollarda esa nafaqat xatoni hisobga olib ko‘rsatadi, balki uning paydo bo‘lish sababini o‘z vaqtida aniqlab, bekor qilish uchun xarakterini aniq belgilaydi. Kompyuter o‘quvchilarga “2” baho qo‘ysa, ular tezda buni tuzatishga shoshiladilar. O‘qituvchi o‘quvchini tartib-intizom va e’tiborli bo‘lishga chaqirishi shart emas. Chunki ekranda 2-3 daqiqadan so‘ng keyingi topshiriq paydo bo‘ladi.

Kompyuter o‘quvchilarda o‘z faoliyatlari refleksiyasining shakllanishiga yordam beradi. Kompyuter texnikasining qo‘llanilishi darsni yanada qiziqarli, zamonaviy qiladi, individual o‘rganish sodir etiladi, nazorat va yakuniylarni xulosalash, o‘z vaqtida va ob’yektiv bo‘ladi.

O‘quvchi shaxsining ehtiyojlari, qiziqishlarining rivojlanishi va shakllanishi turli usullar bilan, shuningdek, tasviriy san’at usullari bilan ham amalga oshiriladi.

O‘quvchilar mustaqil tasviriy faoliyat bilan birga rasmlar, haykallar, arxitektura va dekorativ-amaliy san’at asarlarini qabul qilishga tayyor bo‘lgandagina muvaffaqiyat bo‘lishi mumkin.

“Moslashuv” - bu turli xil bilim sohalari tadqiqotchilari tomonidan ko‘rib chiqilgan fanlararo tushunchadir. “Adaptatsiya” atamasi lotincha adaptatio - moslashish so‘zidan kelib chiqqan. “Moslashish” tushunchasining mavjud ta’riflarini tahlil qilish ularni umumiy xususiyatlariga ko‘ra guruhlash imkonini beradi: tarjima orqali ta’rif, bu asosan tavtologiya; moslashishni jarayon, hodisa, natija, belgi (belgilar tizimi) sifatida aniqlash.

Adaptatsiya [lot. adaptatio – moslashuv] – 1) organizmning turli yashash sharoitlariga moslashishi; 2) sezgi a’zolarining o‘ziga ta’sir

etadigan qo‘zg‘atuvchilarga moslashishi natijasida ularda sezgirlik darajasining o‘zgarishi (masalan, ko‘zning yorug‘lik yoki qorong‘ilikka moslashuvi). Qo‘zgatuvchining ta’sir kuchi o‘zgarishi bilan sezgirlik ham o‘zgaradi. Qo‘zg‘atuchilar sust ta’sir etganda sezgirlik oshadi, kuchli ta’sir etganda esa kamayadi. Adaptatsiya hodisasi hamma tashqi sezgilar (ko‘rish, eshitish, hid, ta’m, badan sezgisi)ga xos. Taktil, harorat, hid va ko‘rish sezgilarida adaptatsiya kuchli, eshitish va og‘riq sezgilarida kuchsiz. Ichki sezgilar (masalan, tashnalik, ochlik)ga nisbatan moslashish hosil bo‘lmaydi. Adaptatsiya organizmning me’yoriy hayot faoliyatini saqlab turishini, atrof muhitning turli omillari: harorat va iqlimning o‘zgarishiga (iqlimga moslashish), balandlikka (balandlik kasalligi), ko‘pgina infeksion agentlarga (immunitet) moslashishini ta’minlaydi. Moslashish reaksiyasi moddalar almashinuvi jadalligining uzluksiz o‘zgarib turishiga asoslangan. Odam organizmining moslashuv reaksiyasi tez (spesifik) va sekin (nospesfik), tug‘ma (tur evolyusiyasi jarayonida shakllangan) yoki orttirilgan (har bir organizm uchun o‘ziga xos) reaksiyalarga bo‘linadi. Masalan, og‘ritadigan omil ta’siriga javoban oyoq-qo‘lni tortib olish, jismoniy ish qilganda nafas olishning kuchayishi, qon oqimi va yurak faoliyatining tezlashishi hamda qonning qayta taqsimlanishi, qorong‘ida ko‘z yorug‘lik sezish layoqatining zo‘rayishi – bularning hammasi tug‘ma tez adaptatsiya reaksiyalari hisoblanadi. Har bir kishining turli yashash sharoitlariga moslashish imkoniyati uning irsiyati, yoshi, sog‘lig‘i va boshqalarga bog‘lik.

Umumiy nazariya doirasida mashhur olim Y.A.Urmansev o‘qitish tizimini ishlab chiqish uchun mavjud adaptatsiya ta’riflarini tahlil qiladi va ularning odatdagi kamchiliklarini quyidagicha ta’kidladi:

1) tavtologiya:

2) ushbu holat tufayli, ularda muhim belgilar ko‘rsatmalarining yo‘qligi;

3) ularning qamrab olinishi, qoida tariqasida, mavjud bo‘lganlarning ko‘p sonli guruhlaridan bir yoki kam hollarda bir nechta moslashish sinflarini qamrab oladi;

4) umuman moslashish ta’rifining yetishmasligi;

5) uni o‘rganishning mumkin bo‘lgan usullari to‘g‘risida uslubiy ko‘rsatmalarning yetishmasligi.

Moslashuv konsepsiyasi atrof-muhit va ob'yektning dialektik birligini, qarama-qarshi tomonlarning birligi va kurashini o'z ichiga oladi. Chunki bizning fikrimizcha, moslashish to'g'risida sub'yekt va ob'yekt, sub'yekt va sub'yektning o'zaro ta'siri jarayoni sifatida yana bir muhim nuqtai nazar mavjud. O'zgarishlar yangi xususiyatlarning paydo bo'lishi, xususiyatlarning yangi kombinatsiyasi, xususiyatlarning qisman yo'qolishi yoki to'liq yo'qolishi va boshqalar bilan bog'liq.

O'zaro ta'sir har doim qandaydir dominantlikka, biror narsaning hukmron bo'lishiga, bitta sub'yektning boshqasiga, sub'yektga nisbatan ob'yektga yoki aksincha, va shunga mos ravishda ushbu dominantga moslashishga olib keladi. Shu bilan birga, barcha tirik mavjudotlar evolyusiyasida muqarrar lahza sifatida dominantning paydo bo'lishi, aslida moslashish jarayonining ikkinchi va yetakchi faol tomoni - moslashishdir. Evolyutsion rivojlanishda ishlab chiqilgan moslashish mexanizmi organizmning to'g'ridan-to'g'ri o'zgaruvchan atrof-muhit sharoitida mavjud bo'lishiga imkon beradi. Ammo organizm ham statik holatda emas, ya'ni "organizm - atrof-muhit" tizimi dinamik muvozanat holatida, shuning uchun ham moslashish jarayoni doimo amalga oshirilishi kerak. Moslashuv tufayli ushbu tizimda gomeostaz saqlanib qoladi.

Moslashuv jarayonlari har xil darajada: molekulyar, hujayrali, individual funksiyalar, organlar, butun organizm va ma'lum tizimlar darajasida sodir bo'ladi. Shunga qarab, mualliflar moslashish muammolarini o'rganib, uning quyidagi turlarini ajratadilar: biologik, fiziologik, ijtimoiy, psixologik, hissiy, professional, badiiy, o'quv, adabiy, texnik, lingvistik va boshqalar. Bundan tashqari, ushbu turlarning barchasi o'zaro ta'sir qilishi mumkin. Masalan, biokimyoviy, ijtimoiy-psixologik moslashishni shakllantirish. Haqiqatdagi murakkab moslashish jarayonlari bitta butunlikni anglatadi, ammo bizning tadqiqimizning mantiqiy tuzilishini yaratish uchun ba'zi bir moslashuv turlarini ajratib ko'rsatish kerak.

Tadqiqotlarimiz davomida maktabning birinchi yillarida o'quvchilarning ta'limga moslashishini o'rgandik. Bu ijtimoiy moslashuv umumiy aloqalar bilan bog'liq. Ijtimoiy moslashuv, umuman moslashish sifatida, shaxs va atrof-muhitning uning maqsadini amalga oshirishda dialektik birligi, inson va ijtimoiy muhitning

birligidir. Bir tomondan, insonning o‘ziga xos tabiati shakllanmoqda, boshqa tomondan, bu muhit o‘zgarishi.

Ijtimoiy moslashishni tavsiflab, shuni ta’kidlash kerakki, biologik va ijtimoiy mexanizmlar o‘rtasida uzviylik mavjud. L.S.Vigotskiy ijtimoiy omillar orqali biologik sotsialda eriydi, deb yozgan; biologik, organik - shaxsiy; “tabiiy”, mutlaq shartsiz - shartli. Bu psixologiyaning o‘ziga xos materialidir.

Ijtimoiy moslashish muammosi ko‘plab olimlar (G.A. Ball; V.B. Orlov; E. Erikson) tomonidan o‘rganilgan. Keng talqin bilan moslashish qarama-qarshi yo‘naltirilgan joylashish va assimilyatsiya jarayonlarining birligi sifatida tushuniladi. Bundan tashqari, turar joy organizmning yoki sub’yektning ishlashini atrof-muhit xususiyatlariga mos ravishda o‘zgartirishni ta’minlaydi, ular organizm tuzilishi yoki subyektning xulq-atvor uslubiga muvofiq qayta ishlanadi. Akkomodatsiya va assimilyatsiya jarayonlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, ammo muayyan holatlarda ulardan biri yetakchi rol o‘ynashi mumkin. “Akkomodatsiya ” atamasi lotincha - moslashuv so‘zidan kelib chiqqan.

G.A.Ball adaptatsiyani o‘rganishda “individual - atrof-muhit” tizimining ko‘p qatlamli tarkibiy qismlarini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi. Chunki, ob’yektiv namoyon bo‘lishdagi bir xil hodisalar turlicha talqin qilinishi mumkin. Subyekt o‘z maqsadlarini amalga oshirishni o‘ziga xos assimilyatsiya turi, ya’ni subyektning atrof-muhit bilan muvozanatini ta’minlaydigan moslashish jarayoni sifatida qaralishi mumkin. Shaxs tomonidan unga tashqaridan taklif qilingan vazifalarni qabul qilish va hal qilish turar joyning namoyon bo‘lishi, ya’ni atrof-muhitga moslashish sifatida talqin qilinishi mumkin. Ammo agar topshiriq shaxs tomonidan qabul qilinsa, uning vazifasiga aylangan bo‘lsa, unda uni yechishga qaratilgan harakatlar assimilyatsiya namoyon bo‘lishi sifatida namoyon bo‘ladi. G.A.Ballning ta’kidlashicha, agar gap akkomodatsiya haqida ketayotgan bo‘lsa, ya’ni moslashish tor ma’noda ko‘rib chiqilsa, u holda “atrof-muhitga moslashish” iborasini ishlatish mumkin, ammo moslashish keng ma’noda xarakterlanganda “atrof-muhitga moslashish” atamasidan foydalanish kerak.

E.Erikson o‘ta og‘ir holatlarda shaxsiyatni assimilyatsiya qilish, shaxsni yo‘qotish xavfi haqida ogohlantiradi. Bu mumkin bo‘lgan variantlardan biri, ijtimoiy moslashuv natijalari.

Boshlang‘ich maktab yoshidagi bola shaxsini shakllantirishda maktabga qabul qilish bilan bog‘liq yangi vaziyat alohida o‘rin tutadi. Tarbiyaviy jamoaga moslashish bosqichi boshlang‘ich maktab yoshiga xos bo‘lib, asosan uning shaxsiyatining shakllanish dinamikasini belgilaydi.

Biz o‘quvchining moslashishini, bir tomondan, tashqi muhitni (boshlang‘ich sinflarda o‘qitish va tarbiyalash shart-sharoitlarini) uning individual imkoniyatlariga moslashish uchun faol ravishda assimilyatsiya qilish jarayoni, boshqa tomondan, maktabning o‘quv muhitini o‘quvchining xususiyatlariga “moslashtirish” jarayoni deb bilamiz.

Ijtimoiy va aqliy moslashuvlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Aqliy moslashish deganda shaxsning (uning faoliyati davomida) va atrof-muhitning psixik xususiyatlari, holatlari va jarayonlarining mosligini o‘rnatish jarayoni tushuniladi.

A.V.Morozov ta’kidlaganidek, bu jarayon “shaxsga favqulodda ehtiyojlarni qondirish va ular bilan bog‘liq muhim maqsadlarni amalga oshirish, shu bilan birga insonning maksimal faoliyati, uning xulq-atvori va atrof-muhit talablari bajarilishini ta’minlashga imkon beradi” [79].

Ko‘pgina tadqiqotchilar (A.P.Sorokin, G.V.Strelnikov, A.N.Vazin) adaptatsiya zudlik bilan emas, balki asta-sekin, ma’lum bosqichlardan o‘tib ketishini ta’kidlaydilar.

O‘zaro aloqada bo‘lgan tomonlarning har birida barcha darajalarda o‘zgartirishlar va o‘zgarishlar amalga oshirilishi uchun vaqt talab etiladi. Moslashuvning har bir bosqichi o‘zini boshqa vaqt oralig‘ida namoyon qilishi mumkin. Tez paydo bo‘ladigan qisqa muddatli moslashish reaksiyalari evolyusion deterministik moslashuvlar bilan ta’minlanadi.

Uzoq muddatli moslashishni amalga oshirish uchun tayyor mexanizmlar mavjud emas; ular asta-sekinlik bilan deterministik old shartlar asosida shakllanadi. Maktab ta’limi sharoitida moslashish jarayoni nafaqat fiziologik, balki sotsiopsixologik darajada ham sodir bo‘ladi.

Bolani maktabga qabul qilishdan oldin, ularni maktabga qanday darajada tayyorligini aniqlash lozim. Buning uchun nimalarga e’tibor berish kerak? Odatda bolaning maktabga tayyorligini ota-onalar, bog‘cha tarbiyachilari bolani hisobga, o‘qishga va yozishga

o‘rgatish deb tushunadilar. Kattalar bu malakalarni o‘zlashtirish tushunchasi bolani maktabga tayyorligi va samarali o‘quv jarayoni, deb hisoblaydi.

Bolaning maktabga qabul qilinishi – nafaqat bola uchun, balki, butun oila uchun qiyin vaqtdir, bu yangi turmush tarzi va jamiyat sharoiti, jamiyatda yangi mavqeini egallashi, kattalar va tengdoshlari bilan yangi munosabatdir. O‘quvchi hayoti qat’iy qoidalar tizimiga bo‘ysingan, barcha bolalar uchun uning asosiy mazmuni bilimlarni o‘zlashtirish hisoblanadi.

Bolalarda nafaqat kun rejimi, balki ota-onalar, o‘qituvchi tomonidan qo‘yiladigan talablari ham o‘zgaradi.

Bu yoshdagi bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligini o‘rganishda quyidagi psixologik-pedagogik nazorat ishlarini olib borish mumkin:

1. Bolani qurshab turgan tashqi muhitga munosabati, bilimlar zaxirasi.
2. Maktabga bo‘lgan munosabati va rivojlanganlik darajasi.
3. Mustaqil fikrlashi va nutqining rivojlanganlik darajasi.
4. Emotsional – obrazli tasavvurning rivojlanganlik darajasi.
5. Qo‘l harakati motorikasining rivojlanganlik darajasi.

Ushbu yuqoridagi keltirib o‘tilgan omillar bolaning yuqori darajada ta’lim olishida namoyon bo‘lishi uchun qo‘shimcha tayyorgarlik ko‘rish maslahati beriladi. Bunda, maktabga tayyorlov guruhida bola faoliyatini kuzatish, yakka tartibda dars tashkil qilish va maxsus korreksion ishlarini olib borish lozim. Bundan tashqari ota-onalarga quyidagi tavsiyalar beriladi:

- didaktik o‘yinlar majmui;
- korreksion tuzatish ishlari;
- oiladagi o‘zaro munosabatlar;
- atrofdagilar bilan muloqtaga kirishish;
- men tushunchasining shakllanishi;

Juda ko‘p hollarda ota-onalar o‘zlari “bolani maktabga borish vaqti keldi”, yoki “yana biron yil o‘ynab olsin”, deb belgilaydilar. Qoidaga ko‘ra, ota-ona o‘z farzandining sodda tajribalariga asoslangan holda oldindan aniqlashga harakat qiladilar. Muammoni bog‘cha tarbiyachisi yoki o‘qituvchi, ko‘p hollarda esa uyda qarindoshlari, bilimdon qo‘shnilar bilan muhokama qiladilar. Va shunda bolani maktabga

tayyorlashda uning bo‘yi, og‘irligi, o‘qish va yozishga uquvi asosiy dalil bo‘ladi.

Bolaning maktab ta’limiga psixologik tayyorgarligi esa hisobga olinmaydi, aniqlamaydi. Biroq, aynan bolaning psixologik tayyorgarligi o‘quv faoliyatining ichki tavsifnomasi sifatida o‘quv motivi va bilishga bo‘lgan qiziqishini shakllantirishga yordam beradi.

Bolaning maktabga psixologik tayyorgarligi nimadan iborat bo‘lishi kerak? Bu psixologik tayyorgarlikni qanday shakllantirish mumkin?

Keling shu savollarga javob izlab ko‘ramiz.

Bolalar ta’lim jarayonigacha o‘z bilimi va o‘yin orqali hosil bo‘lgan ko‘nikmalarni kattalar bilan munosabati va tasvirlar orqali namoyon etishi mumkin.

Bola stol yonida o‘tirib rasm chizayapti. Ona bola chizgan rasmga qarab “yana qandaydir bo‘lmag‘ur narsalarni chizayapsanmi?”, kel yaxshisi kitob o‘qiymiz, deydi. Bir qaraganda oddiy ko‘rinishdagi vaziyat. Ona bola bilan muhimroq ish ustida shug‘ullanmoqchi. Aslini olib qaraganda 3-4 yoshli bola uchun rasm oddiy qiziqish – o‘yin emas. Bu esa bolani psixik va shaxsiy rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratuvchi, yetakchi faoliyatdir. Demak, bolada o‘yin vaziyatida yangi bilim va usullar harakatini ko‘rishimiz mumkin, u hali o‘zi bilmagan narsalarni o‘rganishga harakat qilmoqda.

Farzandingiz chizgan rasmga diqqat bilan qarang, nima chizganligi haqida gaplashing, imkoni boricha unga ko‘proq savollar bering. Ko‘proq diqqat va sabr-toqatni namoyon qiling, tasvirlangan predmet, gul, hayvonlar, qushlar va h.k haqida qo‘shimcha ma’lumotlar bering.

Bu yoshdagi bola uchun diqqat barqarorligi xarakterli bo‘lib, xotira faol rivojlanadi, so‘z boyligi ortib boradi, tafakkuri jadal rivojlanadi. Bola bu yoshda tashqi ko‘rinishlarni umumlashtiradi, predmetlarni sifati bo‘yicha birlashtiradi, ulardan foydalanishda harakat usullarini belgilaydi. Ular endi o‘zlariga tanish bo‘lgan vazifada sabab natijaviy aloqalarini tiklash qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Eng muhimi, jismoniy rivojlanish jadallashadi. Sizning diqqat e’tiboringiz ham muhim ahamiyatga ega, axir bolalar kattalar kayfiyatiga nisbatan o‘ta hissiyotli bo‘ladilar. Bunday murakkab mashg‘ulot natijasini baholash qiyin, maktabda esa bu eng qulay holda yuzaga keladi. Bu yoshdagi bolalarning nutqi yaxshi

shaklllangan, tafakkuri rivojlangan bo‘lib, muloqat qilish uquviga va qo‘l yozuvi ham shakllangan bo‘ladi. Albatta, bularning shakllanishida sizning xatti-harakatingiz, ishtirokingiz katta ahamiyatga ega. Bu xatti-harakatlaringiz va ishtirokingiz bilan psixoprofilaktikaga yordam bergan bo‘lasiz. Psixoprofilaktika – faoliyatning alohida turi bo‘lib, bolaning rivojlanishi, uning qiziqishi, mayllari, qobiliyatiga va yosh imkoniyatlari hisobga olinib faol ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan jarayondir.

Bola o‘qish va yozishni bilmasligi mumkin, bu yomon holat emas. Lekin yuqoridagi malakalar bo‘lishi mumkin, ularga qanchalik ega bo‘lish yosh qobiliyatlariga mos keladi. 6 yoshda bolaning aqliy faoliyatida yangi bilim va o‘quvni egallashga bo‘lgan intilishi namoyon bo‘ladi.

Bolani maktabga qabul qilgandan keyin, uning bu jarayonga moslashishi ancha qiyin kechadi. Maktabga moslasha olmasligining sabablaridan biri uning ixtiyoriy doirada yetarlicha rivojlanmaganligidir. Ya’ni, fonetik eshitish va o‘qituvchi tomonidan ko‘p foydalanadigan so‘zlarni yaxshi, yetarli darajada tushuna olmasligi asos bo‘lishi mumkin.

Bolaning maktabga moslashishini ta’minlash lozim. Bu masalani hal etishning samarali yo‘llari mavjud bo‘lib ular, bolaning yoshiga, individual xususiyatlariga adekvat bo‘lgan rivojlantiruvchi o‘yin va mashg‘ulotlardir. Rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarning mazmuni shundan iboratki, bolaning psixik rivojlanishi o‘quv dasturlarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga asos bo‘luvchi psixik funksiyalari va shaxsiy sifatlarini oldinga siljishiga olib keladi.

Dastlabki kunlardan boshlab maktab bolaga uning oldingi tajribasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan, ammo intellektual va jismoniy kuchni maksimal darajada safarbar qilishni talab qiladigan bir qator vazifalarni qo‘yadi. Bolaga yangi omillar majmuasi: sinf xonasi, o‘qituvchining shaxsiyati, hayot rejimi va mazmunidagi o‘zgarishlar, jismoniy faoliyatning g‘ayrioddiy uzoq cheklanishi va boshqalar ta’sir ko‘rsatadi.

Ular orasida maktab yo‘q qila olmaydiganlari: ta’limning boshlanishida bolaning sog‘lig‘i va rivojlanishining boshlang‘ich darajasi bor. Bu asosan biologik va ijtimoiy tarix omillari, ijtimoiy tekislikdagi moslashuvchan qobiliyatlarni tayyorlash darajasi va boshqalar bilan belgilanadi. Ammo shunga o‘xshash omillarni tartibga

solish mumkin: har bir bolani o‘qitishning boshlanishi, ta’limning sanitariya-gigiena va moddiy-texnik shartlari, sinfdagi va uzaytirilgan kun guruhidagi ish tartibi, oiladagi ahvol, o‘qitishning umumiy yuklamasining qiymati, ishtirokchilarning o‘quv jarayoniga o‘zaro aralashish darajasi.

Maktabning bevosita vazifalariga o‘qituvchi tomonidan stressli taktikani qo‘llash, o‘quv jarayonining intensivligi, o‘qitish texnologiyalari bilan o‘quvchining yoshi va funksional imkoniyatlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik va boshqalar kabi noqulay omillarni o‘rtadan olib tashlash kerak.

Maktabga moslashish deganda biz o‘quvchi bilan maktab o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonini tushunamiz. Buning natijasida o‘quv jarayonini tashkil etish shakllari, uning mazmuni, o‘qitish va tarbiyalash texnologiyalarining bolaning xususiyatlariga, moyilligiga, qiziqishlari, bilimi, qobiliyati va ko‘nikmalariga optimal muvofiqligi o‘rnatiladi.

Ushbu o‘zaro ta’sirning natijasi - bu bolaning tajribasini boyitish va maktab tomonidan o‘quv jarayonini yetarlicha o‘zgartirib, o‘quvchining individual xususiyatlariga va bilim olish qobiliyatiga tezda javob berish qobiliyatini egallashdir. Adaptatsiya - bu bir-biriga bo‘lgan harakat: bir tomondan, o‘quvchi maktabga, uning ta’lim jarayoniga moslashishi kiradi. Ikkinchi tomondan, o‘qituvchining chapaqay o‘quvchilar uchun yaratib berayotgan imkoniyat va imtiyozlari kiradi.

Bolaning maktabga moslashishining eng qiyin davri maktabga borishning dastlabki 6-8 haftalariga to‘g‘ri keladi. Ba’zi tadqiqotlarda ta’kidlashicha deyarli barcha bolalarda, o‘naqay yo chapaqayliklaridan qat’iy nazar, bu davrda motorli hayajon yoki aksincha, sustlik, charchoq shikoyati, ishtahani pasayishi kuzatiladi. Bolalarni bu davrda ish bilan shug‘ullanishi qiyinlashadi, tez-tez chalg‘iydigan bo‘ladilar va ko‘pincha tez charchab qoladilar hamda bosh og‘rig‘idan shikoyat qiladilar.

Moslashuvning birinchi bosqichida birinchi sinf o‘quvchisi yozish, o‘qish va hisoblashda o‘ziga xos qiyinchiliklarga duch kelmasligi mumkin. Ammo u charchashi mumkin, ba’zi shikoyatlar paydo bo‘ladi. Gap nimada ekanligini aniqlashga to‘g‘ri keladi. Ehtimol, charchoq yukning tez sur’ati yoki hajmi, maktabda va uyda

mantiqsiz ishlab chiqilgan tartib tufayli yuzaga kelayotgan bo‘lishi mumkin.

Keyingi davr, qisqa muddat - bu nisbatan barqaror ish qobiliyati davri, so‘ngra tobora kuchayib borayotgan charchoq va ish qobiliyatining pasayishi davri boshlanadi, bu davr ikkinchi chorakning oxiriga to‘g‘ri keladi - taxminan 15 dekabrdan boshlab. Yil boshida hatto maktabda jiddiy muammolarga duch kelmagan ko‘plab o‘quvchilarning aqliy faoliyati keskin pasayadi. Ilgari ular uchun qiyin bo‘lmagan vazifalarni uddalashni to‘xtatadilar; o‘qituvchilar va ota-onalar bolalarning ko‘z yoshlari, injiqliklari, qaysarligi, yomon uyqusi, ishtahasi yo‘qligi va to‘satdan kayfiyatining o‘zgarishi, e’tiborsizligi, chalg‘ishi, ruhiy holatining yomonlashishi bilan ifodalangan holatlarni qayd etadilar.

Dam olish kunlari, agar bola yaxshi dam olgan bo‘lsa, o‘sib borayotgan taranglik va charchoqni taxminan fevral oyining o‘rtalariga qadar yengillashtiradi. Fevral - o‘qishning birinchi yilidagi eng qiyin oy. Bu vaqtga kelib charchoq allaqachon yig‘ilib qolgan, bolalar ozgina harakat qiladilar, ularga havoda unchalik ko‘p emas, vitaminlar yetishmasligi va ultrabinafsha nurlanish ta’sir qiladi, mashq yuklari, o‘quv faoliyati tezligi va intensivligi keskin o‘sib boradi. Bu umumiy holatning yomonlashuvi, ishlashning pasayishi, diqqatni jamlashda qiyinchilik va tez charchash bilan birga keladi. Ko‘pincha arzimas harakatlar tufayli kayfiyatning yomonlashishi, ko‘z yoshlar va tajovuzkorlik, yoki aksincha, befarqlik, sustlik, nimadir qilishni istamaslik ruhiyati hukmron bo‘ladi.

Ko‘pgina maktab muammolari yuqori funksional stress va og‘ir o‘quv jarayoni yukidan kelib chiqadigan charchoq bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, birinchi navbatda, ortiqcha yukni, kuchlanishni olib tashlash kerak. Haddan tashqari yuk nafaqat ishlashga, balki rivojlanish va sog‘liqqa ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Birinchi sinf o‘quvchilarida moslashish davrining tugashi haqida faqat to‘rtinchi chorakda gapirish mumkin. Chunki ba’zi sinf o‘quvchilarining moslashuvi mashg‘ulotning dastlabki 3-5 haftaligi yoki birinchi chorak bilan cheklanmaydi. Odatda, birinchi sinf o‘quvchilari uchun moslashish davri yetti oydan sakkiz oygacha davom etadi. Shuni ta’kidlash joizki, biz uning nisbiy to‘liqligini nazarda tutamiz, moslashish jarayoni hech qachon tugamaydi. Chunki

“organizm - atrof-muhit” tizimi doimiy dinamik muvozanat holatida bo‘ladi.

Maktabga kirishda bolaning o‘tmishdagi tajribasi yangi sharoitda hayot va ishlash uchun yetarli emas bo‘lib chiqadi. O‘zini ushbu shartlar, yoki atrof-muhit, yoki ikkalasi talablariga muvofiq ravishda o‘zgartirish zarurati tug‘iladi. Shunga o‘xshash holat har bir birinchi sinf o‘quvchisi uchun paydo bo‘ladi, lekin uni ayniqsa maktabga birinchi marta kelgan bola tez sezadi. Bu yerda hamma narsa - o‘quv qurollari, metodik materiallar va boshqalar o‘naqay bolalarga qaratilgan. O‘qituvchining vazifasi o‘quvchi uchun yangi sharoitga moslashishga yordam berishdan iborat. Lekin ko‘pchilik o‘qituvchilar ana shu mas’uliyatli vazifani unutib qo‘yadilar.

Savol va topshiriqlari

1. Bolalarda nafaqat kun rejimi, balki ota-onalar, o‘qituvchi tomonidan qo‘yiladigan talablari qanday?
4. O‘quvchilarning bilim doirasini tashkil etish xususiyatlari haqida fikr bildiring?
5. Innovatsion ta’lim tizimini takomillashtirish ahamiyati.
6. Boshlang‘ich ta’limda pedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘rni qanday.

8-MAVZU: HUSNIXATGA O‘RGATISHNING METODIK SHARTLARI.

Reja:

1. Boshlang‘ich sinflarda harflarning shaklini to‘g‘ri yozishga o‘rgatish metodikasi.
2. Birinchi sinfda yozuv mashqlarini tashkil etish shakli.
3. Alifbe davrida bajariladigan grafik ishlar.

Tayanch so‘zlar: *husnixat, yozuv, electron doskalar, harflar, to‘g‘ri yozish qoidalari, partada to‘g‘ri o‘tirish, guruh mashqlari, alifbe.*

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi.Darslik. –T.: TDPU, 2013. – 70 b.

2. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Sobirova N. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. - T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2008.

3. Adizova N.B., Adizova N.B. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Buxoro: “Durdona”, 2021. -112 b.

4. Adizova N.B, Jumayev R.X., Qo‘ldoshev R.A., Ismatov S.R. Ona tili o‘qitish metodikasi. Buxoro. Durdona.: 2021. -292 b.

5. Safarova R va boshq. Alifbe. - T.: “O‘qituvchi” , 2020

6. H.Bakiyeva, N.Ahmedova, N.Azizova, D.Nosirova, B.Teshaboyeva, U.Ismoilova, B.Egamberdiyeva “Savodga o‘rgatish darslari”.-T.: “Extremum- press”, 2014. -119 b.

7. Safarova R., G‘ulomov M., Inoyatova m. Savod o‘rgatish darslari. 1-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.-T.: “Tafakkur”, 2012.-141 b

8.Azimova I, Mavlonova K, Quronov S, Tursun Sh. “Ona tili va o‘qish savodxonligi ” 1- sinf uchun darslik.I-II qism. “Yangiyo‘l poligraf servis” MCHJ nashriyoti. 2021-yil. 208 b

9.PIRLS 2021 Assessment Frame work. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association forthe Yevaluationof Yeducational Achievement (IEA), TIMSS& PIRLS International Study Center, Lynch School of Yeducation, Boston College. 2019. www.timssandpirls.bc.edu

Axborot manbalari

1.www. tdpu. Uz
2.www. pedagog. Uz
3.www. Ziyonet. Uz
4www. yedu. Uz
5.tdpu-INTRANET. Ped tdpu-INTRANET. Ped

Boshlang‘ich sinflarda harflarning shaklini to‘g‘ri yozishga o‘rgatish o‘qituvchidan ham, o‘quvchilardan ham ko‘p mehnat va zahmatu izlanishlar talab etadi. O‘quvchi har bir harfning tuzilishini, yozilishini ko‘rishi va tasavvur hosil qila olishi lozim. O‘qituvchi esa o‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni aniqlashi va uni tuzatish yo‘llarini belgilashi kerak.

O‘quvchilar tomonidan ham, o‘qituvchi tomonidan ham har bir harf aniq yozilishiga erishish, buning uchun ko‘p mashq qilish kerak bo‘ladi. Dastlab yozish sur’ati sekin bo‘ladi, keyinchalik o‘quvchilar

harflarning yozilish shaklini yaxshi o‘zlashtirib olganlaridan so‘ng yozuvning tezligi ortib boradi. Harflarning shaklini tushuntirishda dastlab doskaga yozib ko‘rsatish juda muhimdir. Buning uchun o‘qituvchining o‘zi yaxshi yoza oladigan bo‘lishi kerak. Agar o‘qituvchi bir harfni bir safar boshqa shaklda, ikkinchi safar yana bir shaklda yozib ko‘rsatsa, o‘quvchilar ikkilanib qoladilar va xatoga yo‘l qo‘yadilar. Bunday holatning oldini olishning eng yaxshi va ishonchli yo‘li bu harflarni axborot texnologiyalari (kompyuter, elektron doskalar)dan foydalanib o‘rgatishdir. Elektron vositalar yordamida harf va uning unsurlarini bexato va samarali o‘rgatish mumkin. O‘qituvchi ham bu vositalar yordamida harflarni har safar har xil emas, balki har safar bir xil yozishga erishadi. Elektron vositalar orqali harflarni yozish jarayonini qayta-qayta ko‘rsatish mumkin. Ularni ekranda (elektron doskalarda) kerakli darajada kattalashtirib ko‘rsatish mumkin.

O‘quvchi to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri yozilgan harflarni bir-biridan ajrata olishi, ulardagi asosiy kamchiliklar nimadan iborat ekanligini ko‘rsata olishi lozim. Shuning uchun ham o‘quvchilarda harfning shaklini analitik ko‘rish malakasini o‘stirish talab etiladi. Analitik ko‘rish malakasi faqat to‘g‘ri va noto‘g‘ri yozilgan harflarni solishtirish orqali o‘stirib boriladi. Bu uchun o‘qituvchi elektron doskani ikki qismga ajratib, bir qismida noto‘g‘ri yozilgan harfni, ikkinchi qismiga noto‘g‘ri yozilgan shaklini ko‘rsatadi. Ularni bir ekranga birlashtirib, qiyoslaydi va noto‘g‘ri yozilgan harfni “kamchiliklari”ni kattalashtirib ko‘rsatadi. Bu o‘quvchilar xotirasida muhrlanib qoladi va ular bunday xatolarni bartaraf etish yo‘llarini eslab qoladilar.

O‘qituvchi o‘rgatmoqchi bo‘lgan harfning shaklini va yozilish tartibini elektron doskada ko‘rsatib bergandan so‘ng o‘quvchilarga 2-3 qator mustaqil yozishga ruxsat etish mumkin. Bu vaqt ichida o‘qituvchi sinfni aylanib, o‘quvchilarning yozuvini tekshirib chiqishi va xato yozayotgan o‘quvchilarning yozuvlaridan bittasini namuna uchun tanlab olib, doskada o‘quvchi qanday xato yozgan bo‘lsa, o‘qituvchi ham shunday shaklda yozib ko‘rsatadi. Agar o‘quvchilar o‘z o‘rtoqlarining yo‘l qo‘ygan xatosini ko‘rsalar, shu ondayoq qo‘l ko‘tarib, uni tuzatishga harakat qiladilar. Agar o‘quvchi harfni juda ham noto‘g‘ri yozgan bo‘lsa, o‘quvchilar taajjublanadilar va unga tanqidiy nazar bilan qaraydilar. Shunday tanqidiy munosabatning o‘zi ko‘p xatolarning oldini olishga yordam beradi. Bunday noto‘g‘ri yozilgan harflarni doskada yozib ko‘rsatish orqali tahlil qilish maqsadga

muvofiqdir, chunki uni hamma o‘quvchilar kuzatib turadilar. Masalan, qoidaga mos qilib yozilgan kichik “m” harfi bilan noto‘g‘ri yozilgan kichik “m” harfini doskada quyidagicha yonma-yon ko‘rsatish mumkin.

Kichik “m” harfini yozishda yo‘l qo‘yilgan asosiy kamchilik nimadan iborat ekanligini o‘qituvchi o‘quvchilardan so‘raydi. O‘quvchilar javob beradilar. (Uchinchi osti ilmoqli tayoqcha shaklidagi elementi ikkinchi kichik tayoqcha shaklidagi elementdan kichik bo‘lib qolgan). Aslida esa ular barobar bo‘lishi kerak edi. Shundan so‘ng o‘qituvchi yana shunga o‘xshash ikkinchi bir xatoga yo‘l qo‘yib yozilgan kichik “m” harfini ko‘rsatishi mumkin.

O‘quvchilar darrov uning ham xatosini aytib beradilar. (Birinchi boshlash elementi uzun bo‘lib ketgan.) Harflardagi kamchiliklar tahlil qilib bo‘lingandan so‘ng doskadagi noto‘g‘ri yozilgan harflarni o‘chirib tashlab, to‘g‘ri yozish qoidalari eslatib o‘tiladi va yuqoridagi kabi kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik uqtiriladi. Bunday to‘g‘ri va noto‘g‘ri yozilgan harflarni taqqoslash orqali o‘quvchilar shunday xulosaga keladilar: to‘g‘ri yozilayotgan harflarning elementlari bir xil qiyalikda bo‘lishi hamda ular orasidagi masofa bir xilda saqlanishini bilib oladilar.

Qoida bo‘yicha o‘quvchilar harflarni elementlarga ajratib yozmasalar ham, har bir harfning qanday elementlardan tuzilganini, yozayotganda peroni qaysi tomonga harakat qildirishni, qayerda burilish bo‘lishini, qaysi elementi qanday qiyalikda yozilishini yaxshi bilishlari kerak. Bu esa o‘quvchilarga harflarning shaklini yana ham chuqurroq o‘zlashtirib olishga katta yordam beradi.

Birinchi sinfda yozuv mashqlarini tashkil etish birmuncha murakkab bo‘lib, bir necha xil vazifani o‘z ichiga oladi: bolalar o‘qituvchining so‘zini tinglaydilar, doskaga yozgan harf va so‘zlarni ko‘rib boradilar, ayrim matnlarni ko‘chirib yozadilar, so‘z va bo‘g‘inlarni tahlil qiladilar va hokazo.

Har bir yozuv mashg‘ulotini boshlashdan oldin hamda butun dars jarayonida ham o‘quvchilarga to‘g‘ri o‘tirish qoidalarini eslatib turish maqsadga muvofiqdir. Bu masalani oson hal etishning yana bir yo‘li sinfga to‘g‘ri o‘tirish qoidalari ko‘rsatilgan plakatlarni osib qo‘yishdir. O‘quvchilarda chiroyli, aniq va toza yozishga qiziqish va muhabbat uyg‘otish uchun birinchi navbatda o‘qituvchining o‘zi chiroyli yozishi lozim.

Birinchi sinfda o‘qish darslarida o‘quvchilar tovush hamda bosma harflar bilan tanishtirilsa, tovush va harflarni analiz va sintez qilish orqali ularning nutqi o‘stiriladi. Shu kabi yozuv darsining ham ayrim o‘ziga xos xususiyati bor. Masalan, agar o‘quvchilar o‘qish darsida «Alifbe» kitobidagi tayyor bosma harflardan foydalansalar, yozuv darsida bu narsa ko‘rinmaydi. Har bir harf va uning elementini o‘quvchining o‘zi namunaga qarab yozadi. Shuning uchun ham bu sinfda yozuvga o‘rgatish o‘z navbatida quyidagi kabi qator tushunchalarni bilishni talab etadi: **baland-past, bir xil, keng-tor, yaqin-uzoq, yuqoriga, pastga, o‘rta (oraliq), uzunroq-kaltaroq, teng, teng bo‘lmagan masofa, to‘g‘ri-qiya, chapga-o‘ngga.**

O‘qituvchi yozuv malakasiga o‘rgatishga boshlashdan oldin o‘quvchilar bilan yuqoridagi ko‘rsatib o‘tilgan tushunchalar ustida ish olib borishi lozim. Bu o‘quvchilarga harflarning shaklini uning harakatini yaxshi tushunishlariga katta yordam beradi.

Birinchi sinfda yozuv mashqlari uchun berilgan alifbegacha bo‘lgan davrni birmuncha uzaytirish mumkin. (“Alifbe” kitobida esa bu davr uchun 6-7 kun berilgan). Ammo bu davrda yozuv darsi bilan o‘qish darsi o‘rtasida birmuncha farq bo‘lishi mumkin, bundan cho‘chimaslik kerak, chunki bu vaqtda o‘quvchilar so‘z va harflarni o‘tilgan materiallar asosida yozib o‘rganadilar. Keyinchalik esa o‘qish bilan yozuv darsi bir-biri bilan uzviy bog‘langan holda davom etadi.

O‘qishning birinchi haftalaridagi tayyorgarlik mashqlari asosan og‘zaki nutqni o‘stirishga qaratiladi. Ammo butun dars davomida og‘zaki nutq bilan shug‘ullanish bolalarni zeriktirib qo‘yishi mumkin. Shuning uchun bu darslarning ma’lum qismini og‘zaki nutqini o‘stirishga, ma’lum qismini esa yozuv mashqlari uchun sarflash kerak. Bu davrda husnixatga oid tayyorgarlik mashqlarini tashkil etishning ahamiyati katta.

Birinchi sinf o‘quvchilari bilan tayyorgarlik mashqlarini to‘g‘ri olib borish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak.

1.Partada to‘g‘ri o‘tirishga, avtoruchkani to‘g‘ri ushlashga va daftarni to‘g‘ri tutishga o‘rgatish.

2.O‘quvchilarning husnixatga qiziqishlarini o‘stirish.

3.Bolalarning taqqoslash va chamalash qobiliyatlarini o‘stiruvchi mashqlarni bajartirish.

4.Qo‘l va barmoq muskullarining harakatini o‘stirish.

Tayyorgarlik mashqlarini bajarish uchun o‘quvchilarni qora va rangli qalamlar hamda yozuv daftari bilan ta’minlash lozim. O‘qituvchining bu davrda rangli bo‘rlardan foydalanishi yaxshi samaralar beradi. Tayyorgarlik davrida o‘tkaziladigan mashqlarni ma’lum guruhlarga bo‘lib, avval sodda, keyin murakkabroq mashqlarni bajarish lozim. Mashqlarni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

Birinchi guruh mashqlar

Darsning maqsadi. O‘quvchilarni daftarning chiziqlari bilan tanishtirish va nuqtalarni ko‘z bilan chamalab qo‘yishga o‘rgatish.

Birinchi vazifa. O‘quvchilarga barobar masofada nuqtalar qo‘yishni o‘rgatish.

Ikkinchi vazifa. O‘quvchilarga «barobar masofa», «yaqin», «uzoq» kabi tushunchalarni o‘rgatish.

Uchinchi vazifa. O‘quvchilarni daftarning qiya holati bilan tanishtirish. Bolalarga oldin daftarni tik, keyin esa qiya qilib qo‘yish topshiriladi. So‘ngra daftarning qiya va tik holatlari qiyos qilib ko‘rsatiladi hamda yozuvning qiyaligi daftarga taalluqli ekanligi bolalarga tushuntiriladi.

To‘rtinchi vazifa. O‘quvchilarning qalam ushlashlari tekshirib chiqiladi va qizil rangli qalam bilan bir qator nuqta qo‘yib chiqish topshiriladi.



Ikkinchi guruh mashqlar

Darsning maqsadi. Chiziqlarning qiya shaklda yozilishini ko‘rsatish hamda chiziqlar orasidagi masofani to‘g‘ri topishga o‘rgatish.

Birinchi vazifa. Kichik harflar yoziladigan chiziqlar orasiga qiya tayoqchalar chizishni mashq qildirish.

O‘qituvchi bu mashqni doskada namuna tarzida ko‘rsatib, beradi. O‘quvchilar esa qizil rangli qalam bilan qiya tayoqchalarni chizadilar. O‘quvchilar bir qator yozib bo‘lganlaridan so‘ng ular tekshirib chiqiladi va tahlil qilinadi. (Tayoqchalarning bo‘yi va qiyaligi,

ular orasidagi masofa bir xilmi?) Yozilgan tayoqchalarning bir xilligini tekshirish uchun ularning o‘rtasiga ko‘k rangdagi qalam bilan nuqtalar qo‘ydiriladi.



Agar nuqtalar barobar masofada bo‘lsa, o‘quvchi vazifani to‘g‘ri bajargan, nuqtalar barobar masofada bo‘lmasa, o‘quvchi xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘ladi. Xatoga yo‘l qo‘ygan o‘quvchilarga shu mashqni qayta bajartirish lozim.

Uchinchi guruh mashqlar

Darsning maqsadi. O‘quvchilarga «baland», «yuqori» va «past» tushunchalarni anglatish. Chiziqlar orasini to‘g‘ri topishga o‘ragatish.

Birinchi vazifa. Har xil balandlikdagi qiya tayoqchalarni yozdirish. O‘qituvchi doskada daftarning yuqori chizig‘idan pastki chizig‘igacha uzun tayoqchalar tushirishni, tayoqchalarning teng o‘rtasini topib, nuqta qo‘yishni aytadi; uzun tayoqchaning yarmidan, ya’ni nuqta qo‘yilgan yeridan uning yoniga kichik qiya tayoqcha chizishni topshiradi. Uzun tayoqchalarning o‘rtasiga qo‘yilgan kichik tayoqcha gorizontal chiziq bilan bog‘lanadi.



Doskada tayoqchalarning baland va pastligi taqqoslab ko‘rsatib beriladi. Shundan so‘ng o‘quvchilar vazifani bajarishga kirishadi.

To‘rtinchi guruh mashqlar

Darsning maqsadi. Har xil shaklga va qiyaliklarga ega bo‘lgan chiziqlarning unsurlarini yozishga o‘rgatish.

Birinchi vazifa. Uzun tayoqcha unsurini bir necha bo‘laklarga bo‘lib, ularning orasidagi masofani bir xilda saqlashga o‘rgatish. (Bu chiziqlar jigar rang qalam bilan chizdiriladi).

Ikkinchi vazifa. Tayoqchalarning baland-pastligi, oralaridagi masofaning tengligi tekshirilib chiqilgandan so‘ng zangori rang qalam

bilan har xil qiyalikka ega bo‘lgan kichik chiziqchalar chiziladi. Natijada archa daraxti shakliga o‘xshash chiziqlar hosil bo‘ladi.



O‘quvchilar bu mashqni bajarish orqali oraliq masofalarni chamalashga va qiyaliklarni to‘g‘ri saqlashga o‘rganadilar.

Beshinchi guruh mashqlar

Darsning maqsadi. O‘quvchilarga «keng» va «tor» tushunchasini anglatish; osti ilmoqli kichik tayoqcha shaklidagi elementni yozishga o‘rgatish.

Birinchi vazifa. Osti ilmoqli kichik tayoqcha elementini har xil rangli qalamda bajarish. Masalan, 3 ta tayoqcha qizil rangda, 3 ta tayoqcha ko‘k rangda bajarilsa, o‘quvchilarning qiziqishlari ortadi.

Ikkinchi vazifa. O‘tkir burchak hosil qilib yozilgan element bilan osti ilmoqli kichik tayoqcha elementlarini qiyos qilib ko‘rsatish. (Osti ilmoqli tayoqcha elementining to‘g‘ri yozilishi ko‘rsatib o‘tiladi, chunki bu element kichik harflarning yozilishida ko‘p uchraydi.)



Birinchi: qiya chiziqcha chizamiz.
Ikkinchi: o‘ngga qayiramiz.
Uchinchi: qator o‘rtasigacha diagonal tarzda qiya chiziq yozamiz.

O‘quvchilarga bu qoidalar tushuntirilgandan so‘ng quyidagi mashq bajartiriladi. O‘quvchilarga “ilmoq” unsurini yozish o‘rgatiladi.

Musataqil tarzda o‘ngga qaytish unsuri bajariladi.

Sanoq ohang metodi orqali “ilmoq” unsurini yozishga o‘rgatiladi.



“Ilmoq” unsuri ikki qiya chiziqchalar uzra yozishga o‘rgatiladi.



Quyidagi chiziqlarda “qiya chiziq” va “ilmoq” unsurlarini yozish mashq qilinadi. Sekinlik bilan tez yozishga ham o‘rganib boriladi. Bir minutda bir qator yoziladi.



Oltinchi guruh mashqlar.

Darsning maqsadi. Cho‘zinchoq doira shaklini yozishga o‘rgatish.

Birinchi vazifa. Cho‘zinchoq doira shakli bilan tanishtirish hamda uni aylana bilan qiyos qilib ko‘rsatish .

O‘qituvchi doskada aylana va uning yoniga cho‘zinchoq doira shaklini yozib, ularni solishtirib ko‘rsatadi;



Ularning bir-biridan farqini tushuntiradi: aylana - bu koptok yoki tarvuzga, cho‘zinchoq doira esa olxo‘ri yoki qovun shakliga o‘xshaydi. So‘ng o‘qituvchi cho‘zinchoq doirani tik va qiya holatda yozib ko‘rsatadi. O‘quvchilar uni solishtirib ko‘radilar: biri tik holatda, ikkinchi esa bir tomonga qiya qilib yozilgan.

O‘qituvchi cho‘zinchoq doira shaklidagi bu elementni bir tomonga qiya qilib yozish shart ekanligini ta’kidlaydi. O‘quvchilar uning yozilishini bir necha marta havoda bajaradilar, so‘ngra yozishga ruxsat etiladi. O‘qituvchi cho‘zinchoq doiraning balandligini ham tayoqcha bilan barobar yozilishini eslatadi. O‘quvchilar bir qatorga bitta kichik tayoqcha va bitta cho‘zinchoq doira shaklini almashtirib yozadilar.



Cho‘zinchoq doira shaklining orasiga qo‘yilgan bu kichik tayoqchalar uning qiyaligini saqlab yozishga yordam beradi.

Yettinchi guruh mashqlar

Darsning maqsadi. Kichik harf elementlarining qo‘shib yozilishini hamda ularning orasidagi masofani to‘g‘ri saqlashga o‘rgatish.

Birinchi vazifa. Osti ilmoqli kichik tayoqcha elementini mashq qildirish hamda ularni bir-biriga qo‘shib yozishga o‘rgatish.



Bu vazifaning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bajarilganini mashqni bajarib bo‘lgandan so‘ng ikkita element o‘rtasidagi bo‘shliqqa boshqa rangli qalam bilan nuqta qo‘ydirish orqali ham bilish mumkin.



Agar o‘quvchi vazifani to‘g‘ri bajargan bo‘lsa, nuqta harf elementlari orasiga to‘g‘ri joylashadi, aksincha, noto‘g‘ri bajarilgan

bo‘lsa, nuqta uchun joy topilmaydi. Bunday usul bilan vazifani tekshirish ularda uchraydigan xatoning oldini olishning birdan-bir to‘g‘ri yo‘lidir.

Sakkizinchi guruh mashqlar

Darsning maqsadi. «Uzunchoq» va «kaltaroq» tushunchasini anglatish.

Birinchi vazifa. Ikki xil uzunlikdagi yotiq va tik tayoqcha elementlarini yozib ko‘rsatish.



Bu vazifa ham rangli qalam bilan bajariladi. O‘quvchilar bu tayoqchalarning qaysi biri uzun, qaysi biri qisqa ekanini solishtirib ko‘radilar.

To‘qqizinchi guruh mashqlar

Darsning maqsadi. Harf elementlarini bir qatorga to‘g‘ri joylashtirishga o‘rgatish.

Birinchi vazifa. O‘quvchilarga bir qator cho‘zinchoq doira shaklini yozib mashq qildirish.

Ikkinchi vazifa. O‘quvchilarga zangori qalam bilan cho‘zinchoq doira ichiga bir xil masofada kichik tayoqcha chizib chiqish topshiriladi. Har bir tayoqcha bargning o‘rta qismi, ya’ni uning tomirlari vazifasini bajaradi. Bargning ham kichik tayoqcha, bu esa bargning bandi hisoblanadi

Tayyorgarlik mashqlarini bunday tashkil etish o‘quvchilarni avtoruchka bilan yozishga tayyorlashda katta rol o‘ynaydi. Ammo tayyorgarlik davrida o‘quvchilar yozuvga taalluqli bo‘lgan hamma malakalarni to‘liq hosil qildilar deb bo‘lmaydi. Shuning uchun ayrim tayyorgarlik mashqlarini harflarini o‘rgatish davrida ham olib borish mumkin, masalan, kichik **u** harfini yozdirishga o‘rgatishda uning ikkinchi osti tugunchakli elementining bog‘lanishida qiynalishlari mumkin.

Yuqorida ko‘rsatilgan tayyorgarlik mashqlari qat’iy bo‘lmay o‘qituvchi o‘quvchilarning kuchiga qarab bir oz soddalashtirishi yoki, aksincha, murakkabroq qilib olishi mumkin.

Ayrim mashqlarda harf elementlari nuqtalar bilan qo‘shib berilgan: bunday ishlar o‘quvchilarning chamalash qobiliyatlarini o‘stirishga yordam beradi.

Sinfda husnixat mashqlari o‘qituvchi tomonidan doskada yozib ham ko‘rsatiladi.

Alifbe davrida yozuv texnikasini o‘rgatishning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘quvchilar tayyorgarlik davrida ayrim mashqlarni bajargan bo‘lishlariga qaramay, o‘qituvchi navbatdagi darsni e’lon qilish bilan birga yozuv asboblarini qayta tekshirib chiqishi lozim. Shu bilan birga, quyidagi vazifalarni bajarishni maqsad qilib qo‘yishi lozim:

1. Barmoq va qo‘l muskullari harakatini o‘stiruvchi gimnastik mashqlar o‘tkazish.
2. Doskaga mashqni yozib ko‘rsatish va asosiy e’tiborni nimaga jalb etishni tushuntirish. (Ayrim o‘quvchilar harfni qanday yozishni so‘zlab berishlari ham mumkin)
3. Daftardan foydalanishni, yozuvni qayerdan boshlashni tushuntirish.
4. Partada to‘g‘ri o‘tirish, ruchkani to‘g‘ri ushlash, daftarni to‘g‘ri tutish qoidalarini eslatib o‘tish.
5. Har bir qatorga nechta harf yozishni tushuntirish, o‘quvchilarning yozuvini muntazam kuzatib borish.
6. Ishning birinchi qismi tugallangandan so‘ng (o‘qituvchining savoliga qarab) bajargan yozuvlarini doskadagi namuna bilan solishtirib ko‘rishga va yo‘l qo‘ygan xatolarini topishga o‘rgatish.
7. Vazifani qayta tushuntirish orqali o‘quvchilardagi kamchiliklarni yo‘qotish.
8. Jismoniy mashq daqiqalari o‘tkazish.
9. Yangi mashqni tushuntirish, dasrlikning qaysi beti, qachon va necha qator yozish kerakligini belgilab qo‘yish.
10. Ko‘z bilan daftar orasidagi masofani to‘g‘ri saqlashga o‘rgatish.
11. Har bir mashqni bajarishda uni tahlil qilish, zarur bo‘lsa, qo‘shimcha ko‘rsatmalar berish.
12. O‘quvchilarga bajariladigan vazifalarni aniq ko‘rsatish.

Bu davrda o‘quvchilarni asta-sekin «Husnixat» daftaridan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatib borish zarur. O‘qituvchining ko‘rsatmasiga binoan o‘quvchi daftardan zarur mashqni topishi va bajarishi lozim.

Alifbegacha bo‘lgan davrdan boshlab harf va uning elementlarini bir xil balandlikda, qiyalikda va qalinlikda yozishga qaratish talab etiladi.

Ko‘chirib yozish mashqlari uchun esa ayrim harf elementlari emas, balki alohida guruhlar beriladi.

Alifbegacha bo‘lgan davrda bu talablarning amalga oshirilishi alifbe davrida darsni yanad samaraliroq olib borish uchun imkoniyat yaratadi.

Alifbe davrida o‘quvchilar nutq tovushlari bilan tanishadilar, so‘z tuzishga, so‘z va gaplarni o‘qishga hamda ayrim elementlar, harflar, o‘tilgan harflar ishtirokida so‘z va gaplar yozish ham o‘rgatiladi. Alifbe davrida bolalarni yozishga o‘rgatish juda muhimdir. Bu davrda o‘quvchilarga harf va uning elementlari «Alifbe» daftarida ko‘rsatilgan tartibda o‘rgatiladi. O‘quvchilarga vaqt-vaqti bilan yozuv gigienasi qoidalarini eslatib turish lozim.

Alifbe davrida bajariladigan asosiy grafik ishlar quyidagilardan iborat:

1. Kichik va bosh harflarni alifbe tartibida yozish.
2. Harflarni bo‘g‘in va so‘zlarda qo‘shib yozish.
3. Qo‘l harakatini uzmay yozishga o‘rgatish.
4. Harflarning qiyaligini va enini to‘g‘ri saqlashga o‘rgatish.

O‘quvchilar tomonidan harflarning shaklini yozishda ularning yozuvini ko‘zdan kechirib chiqish, ayrim harflarning elementini noto‘g‘ri yozayotgan o‘quvchilarga shu elementning to‘g‘ri yozilishini ko‘rsatib berish lozim. O‘quvchilarda bu davrda harflarni to‘liq yozmaslik, harflarni almashtirib yozish kabi xatolar uchraydi. Alifbe davrida (va o‘quv yilining 2 yarmida ham) o‘quvilarning yozayotgan matnlarini uch xil yo‘l bilan tahlil qilish mumkin:

a) so‘z tarkibini aniqlash;

b) so‘zning ma’nosini aniqlash;

d) mashqlarning grafik tasviri ustida ishlash.

Shularning hammasini hisobga olgan holda «Husnixat» daftaridagi mashqlarni joylanishi «Alifbe» kitobi asosida berilgan.

Alifbe davrida o‘quvchilarni bo‘g‘inlab yozishga, keyinroq esa so‘zlarni bir butun qilib yozishga o‘rgatish lozim.

Ayrim o‘quvchilar so‘zlarni harflarni alohida-alohida yozishga harakat qiladilar, bunga aslo yo‘l qo‘ymaslik lozim, chunki harflarni alohida-alohida yozish natijasida ayrim harflarni tushirib qoldiradilar va almashtirib yozadilar. Bu davrda o‘quvchilarni yoddan yozishga

ham o‘rgatish lozim. Buning uchun quyidagi kabi topshiriqlarni berib borish lozim: matnni o‘qib, yozilishiga qara, doskaga qaramay yoz, o‘qi, namuna bilan solishtirib ko‘r.

Alifbe davrining oxirida ko‘pchilik o‘quvchilarda yozuv malakasi hosil bo‘ladi, ammo bu bilan qanoatlanmasdan yozuvga o‘rgatish malakasini takomillashtirib borish talab etiladi. Quyida kichik **r** harfining qanday o‘rgatilishini ko‘rsatib o‘tamiz.

Dars mavzusi. Kichik «r» harfini to‘g‘ri va chiroyli yozishga o‘rgatish.

Darsning borishi.

O‘quvchilar, oldingi darsda «Alifbe» kitobidan qaysi tovushni o‘tgan edik? Shu tovush so‘zning o‘rtasida, oxirida va boshida kelgan so‘zlardan ayting (o‘quvchilar so‘z topadilar). Endi kesma alifbedan kichik r harfini toping. Mana bu - kichik **r** harfining bosma shakli. Endi sizlar bilan harfning yozilishini o‘rganamiz. (O‘qituvchi doskada ko‘rsatadi.) Men qaysi tomondan boshlab yozyapman va qaysi tomonga qo‘limni yo‘naltiryapman: shunga qarab turing.

Kichik r harfi ikki elementdan tuzilgan bo‘lib, birinchi elementi ikkita bir-biriga qo‘shilgan to‘lqinsimon unsurdan tashkil topgan bo‘lib, ikkinchi elementi esa osti ilgakli kichik tayoqcha shaklida bo‘ladi. Ammo yozayotganda har ikki elementini bir-biriga qo‘shib yozamiz, bu harfni yozishda qo‘l harakati uzilmaydi.

-Qarang, men harfning birinchi unsurini qanday yozaman, daftarning o‘rta chizig‘idan 1,5 mm pastdan boshlab yuqoriga qarab qiya va ilmoqli shaklda yozamiz, ikkinchi unsurni yuqori chiziqdan pastga qarab to‘g‘ri chiziqli ilmoq shaklida yozamiz.

Bu harfni yozishda uning qiyaligiga alohida e’tibor bering. U daftarning qiya chizig‘iga parallel bo‘lsin.

Avtoruchkani chiziqning ustidan qayta yurgizishda uni yo‘g‘on qilib yubormang, chunki harfning yo‘g‘onligi bir xil qalinlikda bo‘lishi kerak.

-Qani, o‘quvchilar, bu harfni yozishga boshlashdan oldin, yozuv vaqtida partada qanday o‘tirish lozim ekanligini aytib bering-chi? Oyog‘imiz qaerda turishi kerak? Gavdani qanday tutamiz? (O‘quvchilar javob beradilar.) Ruchkani qaysi barmoqlarimiz bilan ushlaymiz? Ko‘rsatkich barmog‘imiz qaerda turadi? Avtoruchkani qanday ushlayotganimizni tekshirib ko‘ramiz. «Bir» deganda ko‘rsatkich barmog‘imizni ko‘taramiz, «ikki» deganda tushiramiz.

(O‘quvchilar ruchkani ko‘targan holda ko‘rsatkich barmoqlarini ko‘rsatadilar).

Endi daftarimizning to‘g‘ri turganligini tekshiramiz. Daftarning chetki qirralarini partaning ustidagi qiya chiziqqa to‘g‘rilab olamiz. Harfni yozishga boshlaymiz. Siz ham harflarni men daftaringizda ko‘rsatgandek qilib bir tekis yozing. Bir qatorga 10 tadan ortiq yozmang.

Shundan keyin o‘qituvchi o‘quvchilarning yozuvlarini tekshirib chiqib, zarur bo‘lsa tegishli ko‘rsatmalar beradi, o‘quvchilar yana ikki qator yozib mashq qiladilar.

O‘quvchilar kichik r harfini yozish malakasini egallab olganlaridan keyin «Husnixat» daftaridan so‘zlar yozdiriladi: ari, arra, anor, shar.

O‘quvchilarga so‘zlarni yozdirishdan avval o‘qituvchi doskada ularning bog‘lanishini ko‘rsatib beradi va kichik **r** harfi o‘zidan oldingi va keyigi harflar bilan qo‘l harakati uzilmasdan qo‘shib yozilishini eslatib o‘tadi.

Bir qator yozib bo‘lingandan so‘ng o‘quvchilarning qo‘llari toliqib qolmasligi uchun qisqa og‘zaki ko‘rsatmalar beriladi.

Darsni yakunlashda o‘qituvchi o‘quvchilarda uchragan ayrim tipik xatolarni va eng yaxshi yozgan o‘quvchilarni eslatib o‘tadi, uyga vazifa beradi: ikki qator kichik **r** harfini va shu harf ishtirok etgan so‘zlarni yozib kelish.

Birinchi sinfda o‘quv yilining ikkinchi yarmida ona tili darslarida yozuvning orfografik tomoniga e’tibor berib, uning grafik tomonini esdan chiqarib qo‘ymaslik kerak. Ayrim harflarning yozilishini bir yoki ikki kun emas, balki bir necha kun mashq qildirish mumkin. Ammo mashqlarning turi har xil bo‘lishi lozim. «Husnixat» kitobida II yarim yil uchun berilgan materiallar “Alifbe” davridagiga o‘xshab soatlarga yoki qismlarga ajratilgan emas. O‘qituvchi o‘z istagicha ona tilidan o‘tayotgan mavzusiga moslab yozuv mashqlarini tanlab olishi mumkin.

Uyga vazifa qilib shu harf ishtirok etgan so‘zlarni topib yozib kelish topshiriladi. Agar o‘quvchilar shunda ham bu harfning yozilishini yaxshi o‘zlashtirib ololmasalar, keyingi darslarda yana takrorlash mumkin. Ayrim vaqtlarda esa shu harfdan tashkil topgan so‘zlarni esa «Husnixat» daftaridan ko‘chirib yozishga berish mumkin.

Kichik harflarday bosh harflar ham guruhlarga ajratib berilgan. Masalan, o‘xshash elementli L va M harflarini bir darsda mashq qildirish mumkin. Bosh harflarni mashq qildirishda o‘quvchilarga tanish bo‘lgan shahar va daryolarning nomini, kishilarning ismini yozdirish mumkin.

Quyida ona tili darsining tarkibiy qismida husnixat mashqlari qanday o‘tkazilishini namuna tarzida ko‘rsatib o‘tamiz.

Dars mavzusi: d va t undoshlarining aytilishi va yozilishi.

Darsning borishi.

Darsning boshlanishida o‘quvchilar bilan quyidagicha savol javob o‘tkaziladi.

1. Gap nimadan tuziladi?
2. So‘z nimalardan tuziladi?
3. Tovushni nima qilamiz?
4. Yozuvda tovushlar nima bilan ifodalanadi?

Shundan so‘ng yangi mavzuni bayon qilishga o‘tiladi.

Yangi mavzu d va t undoshlarining aytilishi va yozilishini o‘quvchilarga tushuntirishdan oldin chiroyli yozuv qoidalariga asoslanib “Husnixat” daftaridagi d va t harflarini ikki qatordan yozib mashq qildiriladi. Harflarni yozdirishga boshlashdan oldin ularning qanday yozilishi, qanday unsurlardan tuzilganligi, boshqa harflar bilan bog‘lanishi haqida yana qayta tushuncha berib, eslatib o‘tiladi: kichik t harfi ikki unsurdan tuzilgan bo‘lib, ular qo‘lni uzgan holda yoziladi. Boshqa harflar bilan, so‘zning qayerida kelishidan qat’iy nazar, qo‘shilib yoziladi. Kichik d harfi ham shu tartibda tushuntiriladi. Keyin «Ona tili» darsligidan shu mavzuga oid material tushuntriladi va mashqlar bajariladi. Mashqni 3-4 o‘quvchiga o‘qitib, d va t undoshlari qatnashgan so‘zlar izohlab yozdiriladi. Shundan so‘ng yangi mavzuga mos maqol va topishmoqlarni yozdirish mumkin.

Husnixat mashqlarini ona tili darsi bilan bunday bog‘lab o‘tish to‘g‘ri va chiroyli yozish malakalarini hosil qilish va ona tili fanini ham puxta o‘zlashtirishga asos bo‘ladi.

Husnixatga o‘rgatish metodlari ichida genetik metodi ham bor. Bu metoddan foydalanishda harflar ma’lum o‘xshash guruhlarga ajratilishi va ularning qanday unsurlardan iborat ekanligini ko‘rsatish lozim. Hozirgi kunda ham bu metoddan qisman foydalanilmoqda. Genetik metodning asosiy xususiyati kichik va bosh harflarni

guruhlarga bo‘lib yozdirishdir. Masalan, harflarni quyidagi guruhlarga bo‘lib yozish tavsiya etiladi.

I. O‘xshash unsurli kichik harflar guruhlari:

1-guruh: i, u, n, m, t, e, y.

2-guruh: h, j, k, f.

3-guruh: o, o‘, q, a, g, g‘, p.

4-guruh: e, b, x.

4-guruh: r, v,s, sh, ch.

II. O‘xshash unsurli bosh harflar guruhlari:

1-guruh: U, L, Z, I.

2-guruh: M, R, K, N, A.

3-guruh: O, O‘, Q, Ch, Ch.

4-guruh: e, S, Sh, Z.

5-guruh: V, G, Q, U.

6-guruh: T, F, R, B, R.

1-guruh o‘xshash unsurli kichik harflar. Kichik ***i*** harfining yozilishi o‘quvchilarga unchalik qiyinchilik tug‘dirmaydi. Ular bu harfni yozishni tez o‘rganib oladilar. O‘qituvchi faqat harfning nuqtasi va ilgaksimon unsurini to‘g‘ri qo‘yilishi va yozilishiga e’tibor qaratadi. Bu harf ikki urinishda yoziladi. Avval nuqtadan pastki qism, so‘ngra nuqta qo‘yiladi. Kichik **i** harfini yozishda o‘quvchilar quyidagi xatolarga yo‘l qo‘yadilar.

1. Harf nuqtasini balandroqda yoxud pastki asosiy unsurga yopishtirib yozadilar:



2. Asosiy unsuri ilmog‘ini noto‘g‘ri – burchakli yoxud xat barobarida yozadilar:



Bunday kamchiliklarning oldini olish uchun o‘quvchilar ko‘proq mashq qilishlari lozim va namunaga qarab yozishni o‘zlashtirishlari kerak.

Kichik ***u*** harfining yozilishi o‘quvchilarga tanish bo‘lsa ham uning yozilish shaklini qayta ko‘rsatish zarur: ikki chiziqning o‘rtasini belgilab olib, pastga qarab kichik tayoqcha tushuramiz va uni pastki chiziqqa yetkazmay turib o‘ngga buramiz va yuqoriga qarab davom ettiramiz. Qo‘lni daftardan olmasdan turib, ikkinchi unsurini tushiramiz:



Kichik **u** harfini yozishda o‘quvchilar quyidagi xatolarga yo‘l qo‘yishlari mumkin:

1. Harf unsurlari orasidagi masofalarni juda keng yoki tor va burilish joyini qirrali qilib yozadilar:



2. Harfni juda yirik (8 mm balandlikda) yoki juda mayda (2 mm balandlikda) qilib yozadilar:



Bunday kamchiliklarning oldini olish uchun daftarni to‘g‘ri tutish malakasi mustahkamlanadi, harf unsurlarini bog‘lab yozishga o‘rgatiladi.

Kichik ***n*** harfi ikki unsurdan iborat bo‘lib, ular qo‘shib yoziladi:



Bu harfni yozishda o‘quvchilar quyidagi kabi xatolarga yo‘l qo‘yishi mumkin:

1. Birinchi va ikkinchi unsurlarini yozishda qiyalikni har xil qilib qo‘yadilar:



2. Harf unsurlari orasidagi masofani keng yoki tor qilib yozadilar:



Kichik ***m*** harfi uch unsurdan iborat bo‘lib, ular qo‘l harakati uzilmay bir-biriga bog‘lab yoziladi.

Bu harfni yozishda uchraydigan asosiy kamchilik-unsurlar orasidagi masofani to‘g‘ri saqlay olmaslik:



Bunday kamchilikning oldini olish uchun to‘g‘ri va noto‘g‘ri yozilgan harflarni taqqoslab ko‘rsatish lozim.

Kichik ***y*** harfini yozishda ham qo‘l harakati uzilmaydi. Uning birinchi unsuri kichik ***u*** harfining unsuriga o‘xshash yoziladi, ikkinchi unsuri esa satr chizig‘idan pastga tushirilib, katta tuguncha hosil qilib, boshqa harflar bilan bog‘lanadi.



Bu harfni yozishda uchraydigan asosiy kamchilik tugunchakli unsurini juda qisqa yoki juda uzun yozilishidir:



2-guruh o‘xshash unsurli kichik harflar.

Kichik **o** harfi cho‘zinchoq doira shaklida bo‘lib, uni ikki ko‘rinishda yozish mumkin:



O harfini yozishda o‘quvchilar ko‘pincha quyidagi xatoga yo‘l qo‘yadilar:

1. **O** harfini oziga cho‘zinchoq emas, balki lo‘nda va to‘g‘ri yozadilar:



2. Harfni kichkina va ingichka yozadilar.



O‘quvchilar **o‘** harfini yozish jarayonida ham aynan shunday xatolarga yo‘l qo‘yadilar.

Kichik ***a*** harfining unsurlari qo‘shib yoziladi. U o‘zidan keyin yoziladigan harflar bilan ham oson bog‘lanadi. Kichik ***a*** harfini yozish uchun birinchi navbatd cho‘zinchoq doira o‘tkaziladi va qo‘lni daftardan olmasdan turib ikkinchi elementi tushiriladi:



Bu harfning yozilish shaklini o‘quvchilar juda yaxshi o‘zlashtirib olishlari zarur. Agar uning yozilish tarzini yaxshi o‘zlashtirib ololmasalar qo‘lni uzib yozishga o‘rganib qoladilar. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga bu harfning yozilishini qayerdan boshlashni va qayerda tugatishni doim eslatib turishi lozim.

O‘quvchilarning yozuvida quyidagicha noto‘g‘ri yozilgan ***a*** harflarini uchratish mumkin:

1. Ikkinchi (osti ilmoqli tayoqcha) unsuri birinchi cho‘zinchoq doira unsuridan yuqoriga chiqib ketadi:



2. Cho‘zinchoq doira shaklidagi unsurini ochiq qoldirib, unsurlarni to‘g‘ri bog‘lay olmaydilar:



3. Unsurlarning qo‘shilish joyida burchak (joy) qoldirmaydilar:



O‘qituvchi bunday xatolarni tuzatish uchun doskada yana qayta (katta o‘lchamda) to‘g‘ri yozilishini ko‘rsatib berishi lozim.

Kichik ***g*** harfi ikki unsurdan iborat bo‘lib, o‘zidan keyingi harflar bilan oson bog‘lanadi:



Bu harf yozilish shakli jihatidan sodda bo‘lishiga qaramay o‘quvchilar quyidagi xatolarga yo‘l qo‘yadilar:



Bu xatolarni tuzatish uchun harflar bilan bir qatorda, osti ilmoqli, uzun tayoqcha shaklidagi unsurini yozdirish va ularni qiyos qilib ko‘rsatish lozim. O‘quvchilar ***g‘*** harfini yozish jarayonida ham asosan shunday xatolarga yo‘l qo‘yadilar.

Kichik **p** harfi unsurlarga ajratilmay bir butun shaklda yozdiriladi. Bu harfni yozishda qatorlar orasining o‘rtasidan pastki qatorlar orasining o‘rtasigacha uzun tayoqcha tushiramiz, keyin esa qo‘l harakatini uzmay tayoqcha bo‘ylab yuqoriga ko‘taramiz va satrlar orasini to‘ldirib tayoqchaga ulangan **o** yozamiz.

Bu harfni yozishda o‘quvchilarning xatida quyidagi kamchiliklarni uchratish mumkin:

1. Qo‘l harakatini uzib, unsurlarini alohida-alohida yozish:



2. Uzun tayoqcha shaklidagi chiziqning ustidan qo‘lni qayta aniq yurgiza olmaydilar, burilish chizig‘ini daftar chizig‘ining ostidan boshlaydilar:



3. Harf unsurlarining qiyaligini to‘g‘ri saqlay olmaydilar:



Bunday kamchiliklarning oldini olish uchun o‘quvchilarning diqqatini harf unsurlarining to‘g‘ri yozilishiga tortib, quyidagicha mashqlar o‘tkazish lozim:



Kichik ***q*** harfi kichik ***o*** harfiga osti tugunchakli unsurini qo‘shib yozish orqali hosil bo‘ladi:



Ushbu harfni yozishda quyidagi xatolarga yo‘l qo‘yadilar:
1. Birinchi va ikkinchi unsuri noto‘g‘ri bog‘lanadi:



2. Ikkinchi unsurning keyingi harfga bog‘lanadigan ilmoqi qator o‘rtasidan emas, balki pastroqdan qo‘yiladi:



3-guruh o‘xshash unsurli kichik harflar.

Kichik e harfini yozishda o‘quvchilar deyarli xatoga yo‘l qo‘ymaydilar, chunki e unsurlarga ajratilmay, bir butun shaklda yoziladi. Kichik e harfi boshqa harflar bilan oson bog‘lanadi:



Ammo ayrim o‘quvchilar bu harfni quyidagicha xato yozadilar:



Kichik ***b*** harfi ikki xil shaklda yoziladi:



Agar kichik ***b*** harfi so‘zning oxirida kelsa, yopiq holda yoziladi, so‘zning boshida yoki o‘rtasida kelsa, ulash unsuri bilan qo‘shib yoziladi:



O‘quvchilar bu harfning yuqoridagi chiquvchi unsurini bir tomonga qiyshaytirib yozsalar uni quyidagicha mashqlar o‘tkazish orqali tuzatish mumkin:



Kichik ***x*** harfi o‘ng va chap yarim cho‘zinchoq doira shaklidan iborat bo‘lsa ham, ular bir-biriga bog‘lab yoziladi.

Bu harfni yozishda o‘quvchilar quyidagi kamchiliklarga yo‘l qo‘yadilar:

1. Harf unsurlarining ustidan qo‘lni qayta aniq yurgiza olmaydilar:



Bunday xato ayniqsa uning elementlarini qo‘shib yozishda ko‘proq uchraydi.

Harf unsurlarini bog‘lashda qo‘l harakatini uzimay yozadilar:



Bunday xatolarning bo‘lmasligi uchun ***x*** harfni qo‘l harakatini uzib yozishni qayta mashq qildirish lozim.

Endi o‘xshash unsurli bosh harflar guruhlaridan ayrim harflarning yozilishi borasida to‘xtalib o‘tamiz.

Birinchi guruhdan: Katta ***U*** harfi ikki unsurdan iborat bo‘lib, birinchi unsuri ham usti, ham tagi ilmoqli, uzun tayoqcha shaklidan, ikkinchi unsuri esa tagi ilmoqli uzun tayoqcha shaklidan iborat:



Bu harfni yozishda o‘quvchilar ham osti, ham usti ilmoqli birinchi unsurini haddan tashqari yotiq qilib, burib yozadilar:



Ikkinchi guruhdan: katta ***H*** harfi unsurlarga ajratilmay, bir butun shaklda yoziladi. Uning pastki va ustki tugunchaklari bir xil bo‘lishi lozim:



Katta ***H*** harfining yozilish texnikasi murakkab bo‘lmasa-da, o‘quvchilarning yozuvlarida quyidagicha o‘xshash ayrim kamchiliklarni uchratish mumkin:

1. Harf unsurlarining burilish joyini juda katta yoki kichik qilib yozadilar:



Katta *K* harfi ikki unsurdan iborat bo‘lib, ikkinchi unsuri ham usti, ham tagi ilmoqli tayoqchadan iborat bo‘lib, keyingi kichik harflar bilan oson bog‘lanadi:

O‘quvchilar bu harfni yozishda ruchkani chiziqning ustidan qayta aniq yurgiza olmaydilar yoki qo‘l harakatini uzib, unsurlarga ajratib yozadilar:



Ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf qilish uchun o‘qituvchi qo‘lning aniq harakat qilishini va qo‘lni uzmasdan yozishni muntazam ta’kidlab turishi lozim.

Beshinchi guruhdan: katta ***Y*** harfi ikki unsurdan iborat bo‘lib, birinchi unsuri tagi va usti ilmoqli tayoqcha shaklidan, ikkinchi unsuri esa tagi tugunchakli uzun tayoqcha shaklidan iborat. Ammo uning unsurlari bir butun shaklda yoziladi:



Yozuv jarayonida yozuv sifatini shakllantirish katta ahamiyatga ega. Yozuvning aniq, toza, bir xil qiyalikda va balandlikda bo‘lishi hamda bir tekis silliq yozilishi uning sifatini ta’minlaydi.

Yozuv sifatini shakllantirish uchun quyidagi ko‘rsatmalarga amal qilish lozim:

1. Harf unsurlari va harflarni to‘g‘ri bog‘lab yozish.
2. Yozuvni 65º qiyalikda yozishga o‘rgatish.

3. Har bir qatordagi harflarning bir xil balandlikda bo‘lishiga erishish.

4. Harf unsurlari, harflar va so‘zlar orasidagi masofalarni bir xilda saqlash.

5. Sinfdagi barcha o‘quvchilarni bir xil tezlikda ravon qilib yozishlariga erishish.

Yillar davomida o‘quvchilarni chiroyli va bexato yozishga o‘rgatish uchun quyidagi metodlardan foydalanib kelinmoqda:

Namunaga qarab ko‘chirish va yozish. Bu juda qadimiy usul bo‘lib, eski maktablarda juda keng foydalanilgan. XX asrning boshlarida ham bu metod rus maktablarida keng qo‘llanilgan. Bu metodda o‘qituvchi o‘quvchilarga harf va uning unsurlarini och rangda yozib bergan, o‘quvchilar esa uning ustidan mexanik ravishda bo‘yaganlar. O‘quvchilarni bu usul bilan yozuvga o‘rgatish o‘qituvchidan juda ko‘p vaqt talab etgan. Keyinchalik o‘qituvchining ishini osonlashtirish maqsadida harf va uning unsurlari och rang bilan ko‘rsatilgan alohida daftarlar ham chiqarilgan. O‘quvchilar bu daftarlardan foydalanib, harf va uning unsurlarini yozishga o‘rganganlar. Bunday metod bilan husnixatga o‘rgatish o‘quvchilarni faqat ko‘chirishga odatlantirib, harflarning shaklini mustaqil yozishga imkon bermagan. Shuning uchun bu metod keyinchalik kam qo‘llanilgan. Faqat ayrim hollardagina yozuv malakasi bo‘sh bo‘lgan o‘quvchilarga o‘qituvchi harf va uning unsurlarini qalam bilan yozib bergan. O‘quvchilar esa uning ustidan siyoh bilan yurgizib chiqqanlar, lekin bu metoddan muntazam ravishda foydalanishga ruxsat etilmagan.

Keyinchalik bu metod takomillashib turli guruhlarga bo‘lindi.

Chiroyli yozuvga o‘rgatishning eng asosiy usullaridan biri **harflarning shaklini namuna qilib ko‘rsatish va yozdirishdir**. Har bir harf namunasi doskada barcha o‘quvchilarning diqqatini jalb qilgan holda yoki ayrim o‘quvchilarga daftarda alohida - alohida ko‘rsatib berilishi lozim. O‘quvchining vazifasi esa doskada eslab qolgan shakllari (harf, bo‘g‘in, so‘zlar)ni o‘z daftariga to‘g‘ri aks ettirishdir.

O‘qituvchi harf va harf unsurlarini doskada shunday tarzda yozishi lozimki, u barcha o‘quvchilarga bir xilda ko‘rinib tursin. Bundan tashqari harflarni yozayotganda ovoz chiqarib, bolalar diqqatini doskaga jalb etib yozishi kerak. O‘qituvchi har bir harf elementlarini qayerdan boshlab qayerga tugashini ham ovoz chiqarib va ham yozib ko‘rsatish lozim, toki keyinchalik o‘quvchilardan so‘ralganda ular aytib

bilishlari va amalda ko‘rsatib olishlari lozim. Shundagina bu usul samara beradi.

Namunaga qarab ko‘chirib yozish usulida o‘quvchilar, asosan, harflarning shaklini “Yozuv daftari”dagi namunaga qarab ko‘chirib yozadilar.

Namunaga qarab ko‘chirib yozish tayyor harflarning ustidan yozishga nisbatan ancha murakkab bo‘lib, ularning har ikkalasini qaysi vaqtda qo‘llashni o‘qituvchi yaxshi bilishi kerak.

Tayyor holdagi nuqtalar bilan ifodalangan harflar ustidan qo‘lni yurgizib mashq qilish ixtiyorsiz jarayon bo‘lib, o‘quvchilar bu topshiriqni oson bajaradilar. Ikkinchidan, “Husnixat” daftariga berilgan namunaga qarab yozdirish o‘qituvchining vaqtini ancha tejaydi.

Chiziqli metod. Chiziqli metod XIX asrning boshlarida qo‘llanila boshlangan. Bu metodning qo‘llanilishi bilan turli chiziqli daftarlar chiqarila boshlanadi, bu esa o‘quvchilarga harflarni chiroyli hamda bir tomonga bir oz moyil qilib yozish uchun ma’lum darajada qulaylik tug‘dirdi. Bunday daftarlardagi chiziqlar, ya’ni harf turlari bir necha yotiq va qiya chiziqlardan iborat bo‘lib, ular kichik va bosh harflarni yozish uchun mo‘ljallanadi. Chiziqli daftarlar bir necha xil bo‘lib, har bir turi ma’lum sinflarga mo‘ljallab chiqariladi:

a) **ikki chiziqli daftar** – kichik harflar yoziladigan gorizontal chiziqlar orasidagi masofa 5 mm ga, bosh harflar yoziladigan gorizontal chiziqlar orasidagi masofa esa 11 mm ga, qiya chiziqlar orasidagi masofa esa 3,3 mm ga teng bo‘lib, 1-sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan edi. 1970-yildan boshlab bunday daftar maktablarda qo‘llanmaydigan bo‘ldi.

b) **ikki chiziqli daftar** – qiya chiziqlari orasidagi masofa 25 mm ga, kichik harflar yoziladigan gorizontal parallel chiziqlar orasidagi masofa 5 mm ga, bosh harflar yoziladigan parallel chiziqlar orasidagi masofa esa 10 mm ga teng bo‘lib, 1970-yildan boshlab 1-sinf o‘quvchilari uchun tavsiya etila boshlandi.

c) **bir chiziqli daftar** – parallel chiziqlari orasidagi masofa 8 mm ga teng bo‘lib, 1970-yildan boshlab 2-sinf o‘quvchilari uchun tavsiya etildi.

Genetik metod. Mazkur metod harflarni o‘xshash unsurlarini hisobga olib guruhlarga bo‘lib o‘rgatishga tayanadi. Bu metodning asosiy xususiyati shundaki, bosh va kichik harflar guruhlarga bo‘lib yozdiriladi. Genetik metoddan asosan boshlang‘ich sinflarning 2- 4-sinflarida foydalanish tavsiya etiladi.

Genetik metodga asosan harflar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

Kichik harflar guruhi:

1-guruh: i, m, n, r, u.
2-guruh: a, e, f, g, o, g‘, o‘.
3-guruh: b, d, h, j, y.
4-guruh: k, l, q, p, t.
5-guruh: s, v, x, z.

Bosh harflar guruhi:

1-guruh: I, J, L, U.
2-guruh: A, M, N.
3-guruh: e, O, Q, X, O‘.
4-guruh: G, H, K, Y, G‘.
5-guruh: B, D, F, P, R, T.
6-guruh; S, V, Z.

Genetik usulda o‘qituvchi, kichik va bosh harflarni guruhlarga ajratish bilan birga, ularning qanday unsurlardan tuzilganligini va ularning nomlarini yaxshi bilishi hamda yoza olishi lozim. Yuqorida ko‘rsatilgan kichik va bosh harflar guruhlarini bir-biridan ajrata olgan va ularning shaklini to‘g‘ri o‘zlashtirgan o‘quvchilargina harflarni chiroyli yoza olishlari mumkin.

Mazkur usulni qo‘llashda, o‘qituvchi, harf va uning elementlarini sanoq bilan yozdirish usulidan (bu usul haqida pastda ma’lumot beramiz) foydalangani ma’qul. Bu usulni ko‘proq 2-sinfda qo‘llash mumkin.

Sanoq-ohang metodi. O‘qituvchi mazkur usuldan foydalanishda harf va uning unsurlarini sanash orqali yozdirib tushuntiradi. Bu usulni ayniqsa savod o‘rgatish davrida keng qo‘llash mumkin.

Sanoq-ohang metodining boshqa metodlarga nisbatan afzallik tomonlari ko‘p. Birinchidan, u harflarni tekis yozilishini ta’minlaydi va harf unsurlarining tushib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi; ikkinchidan, sekin yozadigan o‘quvchilarni tez va sinfdagi barcha o‘quvchilar bilan barobar yozishga undaydi; uchinchidan, o‘quvchilarga harakatlarni aniq va dadil bajarishni o‘rgatadi; to‘rtinchidan, sinfda darsni jonlantirishga yordam beradi.

Mazkur metoddan butun dars davomida foydalanish tavsiya qilinmaydi, chunki o‘quvchilar charchab, yozuv sifatini pasaytirib yuborishlari mumkin.

Bu usuldan foydalanishda, asosan, harflarning asosiy unsuri **“bir”**, **“ikki”**, **“uch”** deb sanab boriladi, yordamchi ulash unsuri esa **“va”** deb bog‘lanadi.

Sanoq-ohang usulini qo‘llashda harf yoki unsurlar avval sanoqsiz yoziladi, so‘ngra sanoq bilan yozdiriladi.

Shuningdek, bu usul bilan yozishda dastlab sekinroq, keyinchalik uni tezlashtirib yozib ko‘rsatiladi. Bu usuldan bo‘g‘in, so‘z va gaplarni yozishda ham foydalanish mumkin.

Tasavvur orqali yozish. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan usullar bilan bir qatorda, tasavvur qilish orqali havoda harflarning shaklini yozdirib mashq qildiriladi. O‘qituvchi doskada yozib ko‘rsatgan harf yoki bog‘lanishlarni o‘quvchilarga qanday qilib yozishni, ruchkaning havoda harakatini ko‘rsatib, o‘quvchilar tasavvur hosil qilganlaridan so‘ng daftarga yozishga ruxsat etiladi. Bunday mashqlar o‘quvchilarning qiziqishlarini o‘stiradi hamda jismoniy mashqlarni ham bajarish imkonini beradi.

Yoddan chiqarmaslik lozimki, tasavvur orqali yozish chiroyli yozishga o‘rgatishda yordamchi usul vazifasini bajaradi.

O‘qituvchining namunaviy yozuvi– bolalarda to‘g‘ri yozuvni shakllantirishning asosiy omili hisoblanadi. Yozishga o‘rgatish ko‘pincha taqlid qilish orqali amalgam oshadi. O‘qituvchining birinchi o‘quv yilida sinf taxtasi yoki o‘quvchi daftariga yozganlari asl nusxa sifatida ko‘riladi, chunki o‘quvchilar undan o‘z daftariga ko‘chirib oladilar.

Shuning uchun o‘qituvchining husnixati to‘g‘ri va chiroyli bo‘lis hi lozim. Sinf taxtasiga yozilgan yozuvi esa o‘quvchining daftaridagi harflarning joylashishiga mos xolda bo‘lishi kerak. Amaliyotning ko‘satishicha, a gar o‘qituvchi qatorning oxirigacha yozmasa (to‘ldirmasa), bolalar ha undan namuna olib qatorning oxirigacha yozishmaydi, qog‘ozni bekorga sarf etishadi va so‘zlarni keyingi qatorga to‘g‘ri ko‘chirish yo‘llani o‘rgana olmaydi lar, shubhali hollarda qator oxirigacha ko‘chirmaydigan bo‘lishadi.

O‘qituvchi o‘z yozuvini yanada chiroyli va mukammal bo‘lishi uchun uzluksiz shug‘ullanib borishni o‘z oldiga maqsad qi lib qo‘yishi shart.

Shunday fikrlar bor, agar muntazam yozib borilsa, yozuv yaxshilanib boradi.Lekin buning aksi ham bo‘lishi mumkin:inson qanchalik ko‘p yozsa, uning yozuvi shunchalik tushunarsiz bo‘lib borar ekan.

O‘qituvchi to‘g‘ri husnixatda yozishni o‘rganib oli shi lozim.O‘qituvchi faqat nazariy jihatdangina emas,balki har bir harf uchun yo‘lga qo‘yilgan amaliy proporsional bog‘liqlikni ham bilishi darkor.

Shu bilan bir vaqtda lozim bo‘lgan mashqlar orqali qo‘lning kaftiniva barmoqlar harakatini yengillatish va rivojlantirish kerak bo‘ladi.

O‘qituvchi sinf taxtasida yozish usullarini ham egallab olishi lozim.Sinf taxtasidayozish jarayonida xatolarga yo‘l qo‘ymasli gi kerak..Masalan , harflarni grafik yozish,uning uzoqdan qandayko‘rinishini hisobga olmasdan yozish, barcha asosiy va birlashtiruvchi unsurlarni bir hil qolipda yozish kabi .

Faqatgina yaxshi yozuvga ega bo‘lgan holdagina o‘qi tuvchi bolalarga namuna bo‘la oladi va ulardan yaxshi natijalar olishi mumkin.O‘quvchilar harflarning tuzilishini ,uni chizishdagi ketma ketligini yaxshi o‘zlashtirib olishlari

uchun o‘qituvchi bularning hammasini sinf taxtasida ko‘rgazmali tarzda ko‘rsatishi lozim.

O‘quvchi chiroyli va to‘g‘ri yozuvda sinftaxtasiga bo‘rda aniq va chiroyli yozadigan o‘q ituvchining o‘quvchilari chiroyli va to‘g‘ri yozadilar.

Sinf taxtasida yozish malakalariga quyidagilar kiradi:1-navbatda qo‘l harakatini rivojlantirish, simmetriyani xis qilish va taxtaning qaysi qismida yozilgan harf, so‘z va fraza yozilganini tezda topishni ,bir qarashda topa bilishlikni o‘rgatish lozim.

Bundan so‘ng bo‘r bilan yozishni u bilan ishlash te xnikasini o‘rganib olish lozim.Bo‘r bilan yozishda ingichka va qalin shtrixlarni yozishni ,shuningdek ingichka chiziqdan bosib yozishga o‘tish va h.zo malakalarni egallash lozim.Yozuvda sinf taxtasi va bo‘rning sifati katta ahamiyatga ega.

O‘qituvchi bolalarning daftaridagi xato-kamchiliklarni o‘z o‘rnida aniq ko‘rsatmasligi natijasida bolaning yozishiga nisbatan e’tiborsizlik yuzaga keladi.

Aniq va to‘g‘ri husnixatda yozishga nafaqat husnixat darsida, balki barcha dars turlarida va sinfdan tashqari yozuv ishlarida, yozma ariza, ular tomonidan tayyorlanadigan ko‘rgazmalar (devoriy gazetalar, jadvallar, shiorlar va h.zo) amal qilish kerak.

Orfografik - to‘g‘ri, aniq va tushunarli qilib yozi shni talab etish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchining pala - partish yozuvini va ikki varaq

qog‘ozga yozgan yozma ishini ham nazorat qilib borishi lozim. Har bir o‘quvchining daftari tartibli bo‘lishiga erishish kerak.

Harflarning yozilishi sodda va to‘g‘ri bo‘lishi kerak. Pedagogik amaliyotda, boshlang‘ich 1-2- sinflarda o‘rganiladigan shriftla rning namunasi ishlab chiqilgan. 3 va 4- sinflar amaliyotida qo‘llanadigan tez yozuv malakasining boshlang‘ich sinflaridagi yozuvdan anchagina farq qiladi. Xarakterli jiharlaridan biri shundaki, tez yoziladigan yozuvda ayrim so‘zlar qog‘ozdan qo‘l uzmasdan yoziladi.

Husnixatga o‘rgatish izchil va ketma-ketlik xarakteriga ega bo‘lishi lozim. O‘rgatish jarayonida o‘qituvchining dastur m aterialini, o‘quvchini soddaroq shakliy ko‘rinishga ega bo‘lgan harflardan, murakka broq ko‘rinishga ega harflarga o‘tkazishga va yirik hamda sekin yozuvdan, mayda va tez yozuvga o‘tkazishda e’tibor beriladi.Husnixat mashqlarini o‘zaro bog‘li qlikda muntazam uyushtiriladi.

Shuni yodda tutishi kerakki, bolani sekin yozuvda harfni to‘g‘ri yozishni o‘rganib olmaguncha tez yozuvga o‘tkazish mumkin emas. Shuning uchun ham dasturda tez yozish ko‘nikmalari 3-4-sinflarda shakllantiriladi.

Ayrim o‘quvchilarning yozuvidagi individual farqlikni kuzatib boorish mumkin. Bu farq o‘ta qiya yozilishda va hokazolarda kuzatiladi.

Dastlabki yozuvga o‘rgatish paytida individual ko‘p ko‘zga tashlanmaydi, bu hol ko‘proq yuqori sinflarda tez yozuvga o‘tgan paytda kuzatiladi.

Yozuvdagi individuallik o‘ziga xoslikni 4- sinflarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar jarayonida aniqlash mumkin, chunki bu davrda o‘quvchilar mustaqil ravishda bir chiziqli daftarga yozishga o‘tgani bo‘ ladi.

O‘quvchida aniq va ravon yozuv hosil bo‘lishi uchun o‘qituvchi o‘quvchining butun diqqatini harfning grafik shakliga, boshqa harf bilan qo‘shilib ketmasligiga, har biri bir - biridan o‘ziga ko‘rsat ilgan o‘lchamga e’tiborini qaratishi lozim.

O‘quvchilarning husnihat bilan to‘g‘ri yozish ko ’nikmalarini rivojlantirib boorish, husnixatga o‘rgatish ishlarini sistematik tarzda olib borish talab etiladi. Buning uchun ham o‘quvchilar to‘g‘ri yozuvning har kungi ko‘nikmasi bilan cheklanib qolmay, uzluksiz ravishda nazorat tekshiruv ishlarini yoki yozuvning sifatini ‘ko‘rish’ ishlarini olib borishlari zarur bo‘ladi.

O‘quvchilar nazorat vaqtini oldindan bilganlari ma’ qul, chunki bungacha ruchkadagi kamchilikni va daftarni tayyorlab qo‘yishga vaqt ajratadilar. Yozib bo‘lgach, bolalar o‘z ishlarini o‘rtoqlari bilan al mashadilar va o‘qituvchi bilan birgalikda tahlil qiladilar. Eng yaxshi ishlar o‘quvchi burchagiga ilib qo‘yiladi

Nazorat paytida husnixat qoidalariga rioya etgan holda yozilganiga, harflarning to‘g‘ri yozilganligiga, matnning oson o‘qilishiga, yozuv bir tekisligiga, matnni o‘qish uchun va qog‘ozni tejashni rejalay ol ishga va h. zolarga e’tibor berish lozim. Muntazam ravishda nafaqat ona tili darslaridagi yozma ishlarini, balki o‘quvchining boshqa o‘quv fanlaridagi yozuvini ham tekshirib borish lozim.

Nazorat - tekshiruv ishlarini bir - biri bilan solishtira olishi uchun o‘quvchilarning ishlarini maxsus joyga ilib qo‘yila di. Buning uchun nazorat - tekshiruv ishlarini alohida qog‘ozga yozish kerak va uncha katta bo‘lmagan matn asaosida bo‘lishi kerak. Yozuv malakasini yaxshilanganligini solishtirib borish uchun har bir o‘quvchining nazorat - tekshiruv ishlarini saqlab qo‘yish lozim.

Savol va topshiriqlar

1. Husnixatga o‘rgatishga qanday metodik talablar qo‘yiladi?
2. Husnixat bilan yozish nimalarga bog‘liq?
3. Husnixatga o‘rgatish izchilligi va ketma-ketligi deganda nimani tushunasiz?
4. Barcha predmet darslarida o‘quvchining husnixat bilan yozishi qanday nazorat qilib boriladi?

9-MAVZU: HUSNIXAT DARSLARIDA O‘QUVCHILAR YOZUVIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR.

Reja:

1. Husnixat darslarini shakllantirish metodikasi.
2. Birinchi sinf o‘quvchilari uchun tavsiya etiladigan daftar parametrlari.

Tayanch so‘zlar: *husnixat darslari, yozuga qo‘yiladigan talablar, qo‘l motorikalari, mashq daftarlari, o‘quv qurollari*

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi.Darslik. –T.: TDPU, 2013. – 70 b.

2. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Sobirova N. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. - T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2008.

3. Adizova N.B., Adizova N.B. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Buxoro: “Durdona”, 2021. -112 b.

4. Adizova N.B, Jumayev R.X., Qo‘ldoshev R.A., Ismatov S.R. Ona tili o‘qitish metodikasi. Buxoro. Durdona.: 2021. -292 b.

5. Safarova R va boshq. Alifbe. - T.: “O‘qituvchi” , 2020

6. H.Bakiyeva, N.Ahmedova, N.Azizova, D.Nosirova, B.Teshaboyeva, U.Ismoilova, B.Egamberdiyeva “Savodga o‘rgatish darslari”.-T.: “Extremum- press”, 2014. -119 b.

7. Safarova R., G‘ulomov M., Inoyatova m. Savod o‘rgatish darslari. 1-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.-T.: “Tafakkur”, 2012.-141 b

8.Azimova I, Mavlonova K, Quronov S, Tursun Sh. “Ona tili va o‘qish savodxonligi ” 1- sinf uchun darslik.I-II qism. “Yangiyo‘l poligraf servis” MCHJ nashriyoti. 2021-yil. 208 b

9.PIRLS 2021 Assessment Frame work. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association forthe Yevaluationof Yeducational Achievement (IEA), TIMSS& PIRLS International Study Center, Lynch School of Yeducation, Boston College. 2019. www.timssandpirls.bc.edu

Axborot manbalari

1.www. tdpu. Uz

2.www. pedagog. Uz

3.www. Ziyonet. Uz

4www. yedu. Uz

5.tdpu-INTRANET. Ped tdpu-INTRANET. Ped

O‘qituvchi sinfda o‘quvchilarning ish joyini to‘g‘ri tashkil etgandan so‘ng ularga yozuv qurollari va daftardan qanday foydalanishni o‘rgatishi lozim. Innovatsion ta’lim sharoitida ham birinchi navbatda o‘qituvchi o‘z shogirdlari uchun sifatli yozuv qurollari tanlaydi, chunki yozuvning chiroyli bo‘lishi ko‘p jihatdan

yozuv qurollariga bog‘liqdir. Hozirgi zamonda yozuv qurollarining turi nihoyatda ko‘p va ularning hammasi ham talabga javob bermaydi. Shuning uchun o‘qituvchining o‘zi talabalarni sifatli yozuv qurollari bilan ta’minlashi lozim. Ayni damda umumta’lim maktablarimizda, hatto boshlang‘ich ta’limda ham an’anaviy ruchkalar yordamida o‘quv jarayoni tashkil qilinadi. Holbuki, birinchi sinflarda o‘quvchilar zamonaviy yozuv qurollari bilan ta’minlangan bo‘lmog‘i lozim. Zamonaviy yozuv qurollari deganda nimani nazarda tutamiz? Bularga ayni damda xorijiy rivojlangan davlatlarining boshlang‘ich sinflarida bolalarga yozishni o‘rgatishga qo‘llanadigan yozish uchun bolalar korrektorlari – bolalar uchun yozuv ushlagichi, o‘quv holatini tuzatuvchisi, yordamchi qalamlar, ergonomik tuzatish vositalari, yozuvni tuzatish uchun ruchka ushlagich va boshqalardan juda unumli foydalanishadi.

Endigina maktab ostonasiga qadam qo‘yib, yozishni o‘rganish jarayonida turli xil qiyinchiliklarni (ruchka va yo qalamni to‘g‘ri tuta bilmaslik, daftar qatorida to‘g‘ri yozo‘lmaslik, qo‘l mushaklarini tez-tez og‘rishi, qo‘lni tez charchashi, noto‘g‘ri pozitsiya, xunuk va chalkash yozuv, qalamni noto‘g‘ri ushlab turish, qog‘ozni juda qattiq bosish, miyopi, disgrafiya (yuqori aqliy funksiyalarning shakllanmaganligi sababli doimiy, takroriy xatolarda namoyon bo‘ladigan yozish jarayonining qisman buzilishi)) boshidan kechirayotgan o‘quvchilarga zamonaviy yozishga ko‘maklashuvchi vositalar bilan yordam berish mumkin. Bu vositalarga nimalar kiradi: yozish texnikasini tuzatish uchun nozul, yozish simulyatori, to‘g‘ri yozish uchun o‘rgatuvchi nozul va boshqalar.

Yuqorida tilga olingan qurilmalar bolalarga qalam va ruchkalarni to‘g‘ri ushlab turishga yordam beradi: barmoqlar endi og‘rimaydi, bolaning yozish paytida tutadigan holati tuzatiladi, ushlash zaiflashadi (bu osonroq, tezroq va chiroyli yozishni o‘rganishga yordam beradi).

Qalam va ruchkalarda ergonomik o‘quv qopqog‘idan foydalanish yozuvni endi o‘rganayotgan hamda grafik malakalarini shakllantirayotgan o‘quvchilarga yanada qulayroq o‘rganish tajribasini beradi. Yozuvni yengillashtiruvchi qurilmalar o‘quvchilarning barmoqlarini tutqichning to‘g‘ri holatiga olib boradi, bu esa uni qalam yo ruchkani boshqa tarzda (noto‘g‘ri, xato) ushlashini oldini oladi.

Ish yuritish materiallarida, odatda o‘naqaylar uchun mahsulotlar “R” (ingl. Right-o‘ng) harfi, chapaqaylar uchun “L” (ingl. Left – chapaqay) harfi bilan belgilanadi.

1-rasm. Ruchkalarning turlari

Dunyoda o‘naqaylar va chapaqaylar uchun maxsus o‘quv qurollari ishlab chiqaradigan korxonalar ham mavjud.

Bu korxonalarda o‘quv qurollari bilan birgalikda turli xildagi moslamalar ham ishlab chiqariladi. Bu moslamalar o‘naqay va chapaqay o‘quvchilarga ruchka bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirishga katta yordam beradi. Ushbu moslama – uyinchoqlar orqali o‘quvchilarni ruchka tutish, uni to‘g‘ri ishlatish va u bilan samarali yozish malakasini shakllantiradi. Biz pastda ana shunday moslamalarning metodik ahamiyati va o‘quvchilarni yozuvga tayyorlashda qanchalik ahamiyati borligi haqida fikr yuritamiz **(1-rasm).**



2-rasm. O‘quvchilarni yozuvga tayyorlash

Suratda ko‘rsatilgandek simulyator birinchi sinf o‘quvchisining barmoqlariga qo‘yiladi va ushbu moslama bolalarni qo‘l muskullarini hamda ularni harakatini muvofiqlashtirishga yordam beradi. Ushbu moslama - tuyaqush yurishi, yugurishi, to‘siqlardan sakrab o‘tishi, futbol o‘ynashi, boshini egishi, raqsga tushishi, turli xil narsalarni olib yurishi, shuningdek, bola xayoli taklif qiladigan boshqa harakatlarni bajarishi mumkin. Bola tuyaqushning uzun bo‘yinidagi lentadan ko‘p rangli halqalarni kiygizishi yoki sharf bog‘lashi mumkin.

“Tuyaqush” yumshoq, egiluvchan materialdan tayyorlangan bo‘lib, uni har qanday bolaning qo‘lining ko‘rsatkich va o‘rta barmoqlariga osongina qo‘yish mumkin. Barmoq simulyatori bilan bir necha hafta mashq qilgandan so‘ng, bolanning qo‘llari qanchalik kuchli bo‘lganligini ko‘rib hayron bo‘lasiz. Muayyan mashqlardan so‘ng kichik narsalarni, shu jumladan ruchka va qalam bilan qiyin ishlarni bajarishda bola qo‘llarining chidamlilik va epchilligi oshganini sezish mumkin.

3-rasmdagi moslama esa qo‘lning nozik motorikasini rivojlantirish va qo‘l va barmoqlarni muvofiqlashtirish uchun bir qator afzaliklarga ega.

3-rasm. Qo‘lning nozik motorikasini rivojlantirish

“*Filcha*” –aqlli barmoq ustasi, stol usti va yo‘l o‘yini. Simulyator bola barmoqlariga qo‘yiladi va "Filcha" harakatga o‘rgatiladi. Bola fil yurishi, yugurishi, orqa oyoqlarida o‘tirishi, futbol o‘ynashi, tanasi bilan har xil narsalarni ko‘tarishi va uzukni tanasi bilan aylantirishi mumkin.

Mashqlar qo‘l harakatlarini muvofiqlashtiradi va rivojlanishini ta’minlaydi, shuningdek, bu boladagi tasavvur, tafakkur va obrazli nutqni rivojlantirish uchun noyob material vazifasini ham bajaradi.

Filcha yumshoq, egiluvchan materialdan tayyorlangan bo‘lib, uni har qanday bola qo‘lining 5 barmog‘iga osongina qo‘yish mumkin. Bu moslama, asosan, 4 yoshdan 8 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun tavsiya etiladi.

4- rasmda “Unicum” moslamasi - qo‘llarni o‘rgatish uchun “O‘z–o‘zini o‘rgatadigan ruchka” mashq mashinasi berilgan.

4-rasm. “Unicum” moslamasi

Birinchi sinf o‘quvchilariga oson, tez va chiroyli yozishni o‘rgatish uchun, birinchidan, ruchka yoki qalamni qanday tutishni yaxshi o‘rgatish kerak. Yuqorida rasmi berilgan simulyator bolalarga rasm chizish va yozish usullarini o‘rgatishda barmoqlarning to‘g‘ri joylashishini rivojlantirish uchun osonlikcha o‘yin uslubida imkon beradi – ruchka (qalam) ushlab turish uchun oson va qulaydir.

Voyaga yetgan har bir barmoq qanday joylashishi kerakligi va tutqichning qiyshayishi qanday bo‘lishi lozimligini tushuntirib berib, doimiy ravishda bolani nazorat qilish shart emas. Bolaga birinchi marta o‘rganishda yordam berish kifoya.

Simulyator yozishda ruchka yoki qalamning mutlaqo to‘g‘ri egilishini, barmoqlarning to‘g‘ri holatini ishlab chiqishga va uchta masalani yechishga imkon beradi: xattotlik – bola toza va chiroyli yozadi; yozish tezligi – bola tez yozadi; yozishda qo‘l charchashi – uzoq vaqt yozishda ham qo‘l charchamaydi;

“O‘z–o‘zini o‘rgatadigan ruchka (qalam)” bu yozuv qurollarini ushlab turish uchun qulaylik emas, balki bolani yozishni o‘rgatish, bolalar va kattalar uchun noto‘g‘ri yozish texnikasini tuzatish uchun noyob simulyator hisoblanadi.

5-rasmdagi ruchka termoplastik elastomerdan tayyorlangan. Bolalarni 3 yoshdan qalamga, yozish texnikasini to‘g‘rilashga – 6 yoshdan ruchkaga o‘rgatish beqiyos yordam beradi.

5-rasm. Termoplastik elastomerdan tayyorlangan ruchka

Birinchi sinf o‘quvchilarining grafik malakalarini shakllantirishda Germaniyada ishlab chiqarilgan noyob Stabilio ruchkalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Mazkur ruchkalar yozish paytida maksimal qulaylikni ta’minlaydi, chunki u ham o‘naqay va ham chapaqaylar qo‘llari tuzilishining antropometrik va fiziologik xususiyatlarini va ularning yozish metodlarini hisobga olib yasalgan. Tananing maxsus shakli va barmoqlar bilan tutashgan kauchuk tutash zonasi yozuv paytida qo‘l va yelkada mushaklarning charchashiga yo‘l qo‘ymaslik uchun qo‘l va barmoqlarni to‘g‘ri holatida saqlaydi. Bundan tashqari, bu ruchkalar chiroyli yozuvga o‘rgatishda samarali vosita hisoblanadi. Murakkab ruchka (qalam) siyohlari bilan bir xil, ammo qatorlarda farqli o‘laroq yumshoq, tezroq, yengilroq yozadi va bulg‘anmaydi. Bundan tashqari: 1) bu ruchkalar uni to‘g‘ri tutish mahoratini o‘rgatadi va shakllantiradi; 2) chiroyli yozuv malakalarini shakllantiradi; 3) rangi qog‘ozda bir zumda quriydi va bulg‘anmaydi; 4) g‘ayrioddiy dizayni bilan ajralib turadi, diqqatni jalb qiladi va bolalarni yozishga tez o‘rgatadi;

6-rasmda ko‘rsatilganidek, Fransiyadagi Maped kompaniyasining o‘quvchilar uchun maxsus Visio sharikli ruchkasi ham grafik malakalarni shakllantirishga qo‘l keladi.

6-rasm. Visio sharikli ruchkasi

Birinchi sinf o‘quvchilari uchun grafik malakalarni shakllantirishda Visio ruchkalari ko‘rinishi yaxshiroq bo‘lishi va yozuv paytida mukammal ushlash uchun maxsus egri shaklga ega. Ushbu shakl qo‘lning to‘g‘ri holatini boshqaradi, bu ayniqsa yozishni o‘rganayotgan bolalar uchun juda muhimdir. Yumshoq tutash joyi eng yaxshi qulaylik va hatto yozishni kafolatlaydi.

Konusli po‘lat uchi neylon yoki neylon uchiga qaraganda qo‘l bosimiga yaxshiroq bardosh beradi. Uning shakli ham chap qo‘lda yozayotgan o‘quvchi yozuvini ko‘rishi uchun maxsus ishlab chiqilgan (2.2.7-rasm).

7-rasm. Flair Angular sharikli ruchkasi

7-rasmda original Flair Angular sharikli ruchkasi tasvirlangan. Ular ham o‘quvchilarni yozuvga o‘rgatishga yo‘naltirilgan. Ushbu ruchkalarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, uchi muayyan burchak

ostida joylashgan. Bu uni ham o‘naqaylar va ham chapaqaylar uchun ideal qiladi, chunki u yozilgan narsalarni ko‘rishga imkon beradi. Ruchkani ushlash joyi “tishlangan”, shuning uchun ruchka qo‘lda sirpanmaydi va yengil, havodor yozuvga erishiladi. Past viskoziteli nemis siyohi bilan to‘ldirilgan (8-rasm).

8-rasm. Sattler Grip Writing Aid yozuv asboblari

8-rasmda anatomik Sattler Grip Writing Aid yozuv asboblari ko‘rsatilgan. Ularning ushlagichi deyarli har qanday yozuv asboblariga mos keladi.

Bu moslamalar yozuv predmetiga kiyiladi va yozuv paytida o‘quvchilarning barmoqlarini to‘g‘ri ushlab turishga imkon beradi. Ular yumshoq toksik bo‘lmagan kauchukdan tayyorlangan.

Yuqorida ko‘rsatganimiz yozuv moslamalari va ruchkalar o‘quvchilarda yozuvni o‘rganishning dastlabki davrlarida hamda grafik malakalarini shakllantirishda katta yordam beradi. Ulardan ota-onalar va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.

Zamonaviy yozishga ko‘maklashuvchi vositalarni bosqichma-bosqich qo‘llash yanada samaraliroq bo‘ladi. Masalan:

1-2-bosqich: Boshida 5 ta barmoq (ajratuvchi o'yinchoq bilan), keyin – 3 ta barmoq.

3-bosqich – ikkita barmoq.

4-bosqich – ikkita barmoq, ajratuvchi bilan.

5-bosqich – ikkita barmoq (jingalak nozul).

6-bosqich – baliq shaklidagi nozul, barmoqlar uchun chuqur moslashtirilgan.

7-bosqich, oxirgisi (hamma uchun, kattalar uchun ham to‘g‘ri keladi, ko‘p yozuvchilar uchun) – cheklovchi, barmoqlar pastga tushmasligi uchun.

Bolalar uchun yozish korrektorlarining musbat tomonlari:

Birinchi kundan boshlab qo‘lning yozishga hamda qalam va ruchkalarni ushlashga to‘g‘ri sozlaydi, yozish vaqtida qo‘l kamroq charchaydi, o‘naqayga ham chapaqayga ham bir xil to‘g‘ri keladi, yengil, chiroyli, qayta-qayta ishlatiladigan, yozish paytida qomatning to‘g‘ri holati shakllanadi.

Innovatsion ta’lim sharoitida birinchi sinf o‘quvchilaridan ham juda ko‘p narsa talab etiladi. O‘qishning birinchi bosqichida bolalar yozishni o‘rganish bilan bog‘liq juda ko‘p qiyinchiliklarga duch kelishadi: qo‘llari tez charchaydi, daftar qatorlarini aralashtirib yo almashtirib yuboradilar, harf va uning unsurlarini to‘g‘ri yozib bilmaydilar; bola “chap”, “o‘ng”, “varaq”, “sahifa”, “qator” kabi tushunchalarni farqiga bormaydi, tushunmaydi. Bu qiyinchiliklar qo‘l va barmoqlarning yaxshi rivojlanmaganligi hamda yaxshi cho‘t ololmaslik bilan bog‘liqdir. Maktabgacha ta’lim muassasalarida hamda birinchi sinfning tayyorlov davrida bolalar qo‘lini yozuvga hamda grafik malakalarni shakllantirishga qaratilgan maxsus mashqlar tashkil etiladi. Bunga daftar va uning qatorlari bilan tanishish ham katta yordam beradi. Daftar asosiy yozuv quroli sifatida katta ahamiyatga egadir. U birinchi navbatda sifatli oq qog‘ozdan, silliq va chiziqlari aniq ko‘rinib turadigan bo‘lishi kerak.

Talabga muvofiq 1-sinf o‘quvchilari uchun qiya chiziqlari orasidagi masofa 25 mm ga, kichik harflar yoziladigan satr chizig‘i oralig‘i 5 mm ga teng bolgan ikki chiziqli daftar tavsiya etiladi. Daftarning qiya chiziqlari 65^{o}ga teng bo‘lishi lozim (**9-rasm**):



9-rasm. Birinchi sinf o‘quvchilari uchun tavsiya etiladigan daftar parametrlari

Qiya chiziqlari siyrak bo‘lgan ikki chiziqli daftarga yozdirib mashq qildirish orqali 1-sinf o‘quvchilarini mayda harflar bilan tez yozishga tayyorlab boriladi. Bunday daftarda mashq qilish o‘quvchilarga harflarning eni va ular orasidagi masofani ko‘z bilan chamalashga hamda harflarning qiyaligiga rioya qilishga imkon beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun tavsiya etilgan bir chiziqli daftarning parallel chiziqlari orasidagi masofa 8 mm ga teng bo‘lib, undan kam oraliqdagi daftarga (bir chiziqli daftarlar turli-tuman bo‘lib, ular orasidagi masofalar ham har xildir) yozdirish mumkin emas. 2-sinfda bir chiziqli daftarga kichik harflarning bo‘yi 3 mm, bosh harflarning bo‘yi 6 mm ga teng bo‘lishi lozim. Daftar hoshiyasi 30 mmga teng bo‘lishi kerak (**10-rasm**).



10-rasm. Daftar hoshiyasi

O‘quvchilar tomonidan noto‘g‘ri yozilgan harf va uning unsurlari faqat hoshiyada yozib ko‘rsatiladi.

O‘quvchilarda yozuv malakasini to‘g‘ri shakllantirish uchun daftarni to‘g‘ri tutishda alohida e’tibor berish lozim, chunki daftar butun o‘qish davomida o‘quvchining zarur yozuv qurollaridan biri hisoblanadi.

O‘quvchilarning, xususan 1-sinf o‘quvchilarining daftar tutishlariga yaxshi ahamiyat bermaslik, uning zarur qoidalarini tushuntirmaslik yozuv sifatining pasayishiga olib keladi.

O‘quvchilarning daftarlariga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri daftarning tashqi ko‘rinishini bir xilda bo‘lishiga erishishdir. Daftarning muqovasiga husnixat qoidalariga moslab bir xilda yozish kerak.

1-sinf o‘quvchilarining daftarlari ustiga o‘qituvchining o‘zi yozib berishi kerak. 2-sinfdan boshlab o‘quvchilarning o‘zlari daftarning muqovasiga o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatilgan namunaga qarab mustaqil yoza olishlari mumkin.

Har bir o‘quvchida yozuv uchun ikkita daftar bo‘lishi lozim. Biriga sinfda yozadi va o‘qituvchiga tekshirish uchun topshiradi, ikkinchisini esa o‘qituvchidan qaytarib oladi. Nazorat ishlari uchun esa alohida daftar tuttiriladi.

O‘qituvchilarning daftarlari o‘qituvchi tomonidan muntazam ravishda tekshirib boriladi. Daftarni toza tutgan va chiroyli yozgan o‘quvchilarni rag‘batlantirib borish kerak. O‘quvchilarni rag‘batlantirishda faqat “4” va “5” baholar bilan chegaralanmay, ularning daftarlari ustiga alohida ajralib turishi uchun **“yulduzcha”, “bayroqcha”, “beshburchak”,**

“to‘rtburchak” va **“uchburchak”**lar qo‘yib berish mumkin. Qaysi o‘quvchining daftarida yulduzcha, bayroqcha va beshburchak bo‘lsa, o‘sha o‘quvchi yaxshi yozgan hisoblanadi. Rag‘batlantirishning bu turidan 1-2-sinflarda keng foydalanish mumkin.

Ta’kidlaganimizdek, boshlang‘ich sinflarda harflarning qiyaligini bir xilda, ya’ni 65ºda saqlash katta ahamiyatga ega. O‘quvchilarga harflarning qiyaligini to‘g‘ri saqlashga o‘rgatishdan oldin daftarni parta ustiga qanday qo‘yishni tushuntirish lozim. Daftarning parta ustida noto‘g‘ri turishi gigiena qoidalarining buzilishiga ham sabab bo‘ladi, chunki yozuvning qiyaligi ham daftarning holatiga qarab belgilanadi. Agar daftar ko‘rsatilgan qiyalikda tursa, yozuv ham 65º qiyalikda yoziladi. Agar daftarning holati o‘zgarsa, yozuvning ham qiyaligi o‘zgaradi. Shuning uchun har bir darsda o‘qituvchi o‘quvchilar daftarini kuzatib borishi kerak. Daftarning pastki chap burchagi ko‘krak o‘rtasida to‘g‘ri bo‘lishi yoki daftarning qiya chizig‘i parta qopqog‘ining chetiga tik bo‘lishi kerak (2.2.11-rasm)



11-rasm. Birinchi sinf o‘quvchilari uchun tavsiya etiladigan daftarning parta ustidagi holati

Daftar beti yozuv bilan to‘lib borgan sari daftar yuqoriga surib boriladi. Chap qo‘l bilan esa daftarning yuqori tomoni bosib turiladi. Yozuv darslarida daftarning parta ustida to‘g‘ri turishini tashkil etish birinchi galdagi vazifadir. Bu muhim vazifani amalga oshirish o‘qituvchidan ko‘p mehnat talab etadi. Buning uchun sinf partasining ustiga ikki o‘quvchining har biri uchun ingichka qiya nazorat chiziq chiziladi. Bu chiziqning ostki uchi o‘quvchilarning chap ko‘kraklari o‘rtasida to‘g‘ri bo‘lib, parta qopqog‘iga nisbatan 65º qiya bo‘ladi. Natijada hamma o‘quvchilarning oldida (partada) nazorat chiziqlar bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quvchilarni daftarning chetini yoki o‘rtasini shu nazorat chiziqqa tekis qilib qo‘yishlariga erisha olsa bas. Satrlar to‘lib borgan sari daftarni shu chiziq bo‘ylab yuqoriga ko‘tarib borish lozim (2.2.12-rasm).



12-rasm. Birinchi sinf o‘quvchilari uchun tavsiya etiladigan daftarning parta ustidagi holati

Agar daftarning chap beti to‘lsa, daftarning buklanadigan yeri nazorat chiziqqa to‘g‘rilab olinadi va o‘ng betiga yozishga o‘tiladi (2.2.13-rasm).



13-rasm. Daftarning nazorat chizig‘iga to‘g‘rilab olinishi

Bu usuldan bir chiziqli daftarga yozishda keng foydalanish mumkin. Bunday nazorat chiziqlar daftarni buklashdan saqlaydi. Chunki ba’zi o‘quvchilar o‘ziga qulaylik tug‘dirish maqsadida daftarni buklab yozadilar. Daftarning hoshiyasiga ham e’tibor berish lozim, chunki daftarning chetida qoldirilgan joy yozuvning tekis chiqishiga, so‘zlarni bog‘inlarga ajratishga, ayrim noto‘g‘ri yozilgan harf va uning elementlarini to‘g‘ri yozib ko‘rsatishga imkon beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari daftarni saqlashda bir oz qiyinchiliklarga uchraydilar. Shuning uchun ularga daftar o‘lchamidan katta bo‘lgan va qalin materialdan ishlangan maktab sumkasidan foydalanishni tavsiya etish lozim.

Ko‘zlardan matngacha bo‘lgan eng yaxshi masofa 30-35 santimetr (eng keng tarqalgan qiymat 33 santimetr). Sahifagacha bo'lgan masofa tirsakdan barmoq uchigacha bo‘lgan uzunlikdan kam bo‘lmasligi kerak. Bu qulay, chunki sizning chizg‘ichingiz doimo sizning qo‘lingizda. Odatda bu masofa to‘g‘ri o‘tirganingizda va qo‘llaringizni stolga kitob bilan qo‘yganingizda olinadi.

Tez o‘qish paytida matnni 30-40 santimetr masofada saqlash kerak, chunki faqat bu holda periferik ko‘rish to‘liq quvvat bilan qo‘llaniladi. Bundan tashqari, ma’lumotni o‘qish uchun qarash matn orqali minimal yo‘ldan o‘tishi kerak bo‘ladi. Matnlarni ko‘zlarga juda yaqin o‘qish tavsiya etilmaydi. Bundan nafaqat ko‘rish yomonlashadi, balki charchoq tezroq boshlanadi.



Xitoy boshlang‘ich ta’limidan ibrat olish jihatlari juda ko‘p.

Xitoyda bolalarga ikki yoshidan boshlab ta’lim berila boshlanadi.

Birinchi sinfning birinchi choragida o‘quvchi 400 ieroglifni tanishi shart.

Xitoy fuqarosi boshlang‘ich ta’limga to‘qqiz yoshgacha qabul qilinishi mumkin.

Xitoyda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining davomati Ta’lim vazirligi tomonidan nazoratga olingan.

Hozirda mamlakatning 90 foizi hududida majburiy boshlang‘ich ta’lim yo‘lga qo‘yilgan, o‘qishni aro yo‘lda tashlab ketuvchilarga qattiq chora ko‘riladi. Xitoy maqolida “Munosib ustoz topish mushkul, munosib o‘quvchiga ega bo‘lish esa yuz karra mashaqqatli” deganlaricha bor. Munosib bo‘lish uchun xitoyliklar hatto bog‘cha yoshidan bir necha fanlardan repetitorlarda o‘qishadi. Mamlakatdagi ta’lim tizimi kuchli raqobat va eng yuqori natijaga erishishga qaratilgani sabab xitoyliklar bir umr bosimda o‘qishga, ishlashga, yashashga o‘rganadilar. Olti yashar bola maktabga kirish uchun test ko‘rinishidagi o‘zining ilk imtihonini topshiradi va o‘n ikki yoshigacha boshlang‘ich ta’limni egallashadi. Oltinchi sinfni tamomlagach, Xitoy

o‘quvchilari imtihon topshiradilar, bu – boshlang‘ich ta’limdan o‘rta ta’limga o‘tish bosqichi hisoblanadi. Uch yillik o‘rta ta’lim mobaynida kuniga 6-7 ta fan o‘qitiladi. Bordi-yu imtihondan o‘tolmasa, bu o‘rta ta’limdan, oliy o‘quv yurtidan-u barqaror ishdan umid qolmadi degani. Bugungi taraqqiyotini tartib-intizom soyasida ko‘rgan Chin mamlakatida tartibsizlik shafqatsiz jazolanishi tabiiy. O‘n ikkita darsni sababsiz qoldirish maktab o‘quvchisini ta’limdan mosuvo qiladi.

“Kitobga bunchalik egilmang!” va “Qaddingizni to‘g‘ri tuting!” gaplani boshlang`ich sinflarda juda ko`p ishlatiladi. O'qituvchilar ularni qayta-qayta takrorlamasliklari uchun Xitoyda maktab stollari uchun noodatiy qurilmani o'ylab topishdi.

Bu qurilma yozish va o‘qish jarayonini nazorat qilishga juda asqotadi. Qo‘zlarni tez charchashdan himoya qiladi. Mazkur qurilma ko‘zlarni daftar (yozish jarayonida) va kitobdan (o‘qish jarayonida) 30-35 sm uzoqlikda saqlashga majburlaydi. Xitoylik bolalar stolda o'tirganda, ustki ustun ularning yelkalari va ko'kragiga suyanib, qadni ushlab turadi va shu bilan gavdani daftar ustida juda past egilishiga yo'l qo'ymaydi.

Ikkinchidan, unga kitobni qo‘yib o‘qish jarayonini me’yoriy normalarda saqlash mumkin.

O‘quvchilarni daftarga yozdirishga boshlashdan oldin ularga sana, sarlavha va yozuvlarni qaerdan boshlab yozishni tushuntirish lozim.

Daftardagi sarlavha va yozuvlarning to‘g‘ri joylanishi yozuvning sifatini oshiradi. Noto‘g‘ri qo‘yilgan sarlavha xatning sifatiga salbiy ta’sir etadi

IKKI DO‘ST

Bir bor ekan, bir…

(To‘g‘ri)

IKKI DO‘ST

Bir bor ekan, bir…

(Noto‘gri)

1-sinf o‘quvchilaridan kunlarni raqamlar bilan, oylarning nomini esa harflar bilan varaqning o‘rtasdiga yozish talab etiladi.

O‘quvchilarning yozgan harf va matnlarini muntazam ravishda qizil siyoh bilan tekshirib, zarur ko‘rsatmalar berib borish o‘quvchilarning kelgusida benuqson yozishlari uchun zamin hozirlaydi.

O‘quvchilarning ishlarini baholashga alohida e’tibor qilib, tegishli ko‘rsatmalar berib borish lozim. O‘quvchilarning bahosi bajarilgan ishning ostiga qo‘yilishi kerak.

O‘quvchilarning daftarlariga **“Ko‘rildi”, “Xato”** tarzida emas, **“Chiziqdan yoz”, “Harflar orasidagi masofani to‘g‘ri saqla”, “Harflarni bog‘lab yoz”, “Qiyaroq yoz”** kabi yozib ko‘rsatish maqul.

O‘quvchilarning husnixatga, daftar tutishga qiziqishlarini o‘stirish maqsadida maktab bo‘yicha eng yaxshi tutilgan daftarlarni yig‘ib ko‘rgazma tashkil etish kerak.

Avtoruchka. Hozirgi kunda avtoruchkalar xilma-xil bo‘lib, ularning hammasi ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mos kelmaydi. Birinchi sinf o‘quvchilarining ota-onalari odatda sumka, maktab formasi va qulay poyabzalni ehtiyotkorlik bilan tanlaydilar, lekin ko‘pchilik o‘quvchi uchun eng muhim vosita ruchka ekanligini unutishadi. Maktabda bola juda ko‘p va tez-tez yozishga majbur bo‘ladi, shuning uchun buni amalga oshirish uchun qulay bo‘lgan ruchkani tanlash muhimdir.

Bolalar uchun moyli ruchka bilan yozish qulay va yoqimli. Ruchkalar turli chiziq qalinligi bilan ishlab chiqariladi: odatda ular 0,5 mm, 0,7 mm, 1 mm, 1,5 mm bo‘ladi. Chiziqlar qanchalik qalinroq bo‘lsa, yozish shunchalik oson bo‘ladi, lekin ingichka chiziqli matn yanada chiroyli va toza ko‘rinadi. Birinchi sinf o‘quvchilari uchun o‘rta

variant (0,7 mm)ni tavsiya etish kerak. Shu bilan birga o‘quvchilarga turli qalinlikdagi ruchkalar bilan yozib ko‘rishga ijozat berish va ulardan so‘rash kerak, qaysisi bilan yozish qulayroq deb.

Avtoruchkalardan foydalanish qoidalari tayyorgarlik davri mashg‘ulotlari davomida o‘rgatilishi lozim. O‘quvchilarni sharikli avtoruchkada yozishga o‘rgatishdan avval, undan qanday foydalanish, siyohli naycha (sterjen)ni qanday almashtirish, uni saqlash qoidalarini o‘rgatish lozim. O‘qituvchi shogirdlarini avtoruchka bilan tanishtirish jarayonini suhbat tarzida tashkil etishi mumkin:

- Bolalar, bugun biz birgalikda sharikli avtoruchkadan qanday foydalanishni o‘rganamiz. Avtoruchka bilan yozishni o‘rganishdan oldin sizlar bazi bir qoidalarni bilishlaringiz lozim. Hozir shu haqda suhbat qilamiz. Qani kim menga aytadi: qalam qanday bo‘ladi?

O‘quvchi: Qalam – bu yog‘och tayyoqcha, o‘rtasida esa qora bo‘yog‘i bor.

Shundan keyin o‘qituvchi qalam va avtoruchkani ko‘rsatib, ularning bir – biridan farqini so‘raydi.

O‘quvchi: Avtoruchka siyoh bilan yozadi, qalam esa siyohsiz yozadi.

O‘qituvchi: To‘g‘ri, avtoruchka siyoh bilan yozadi. Endi men sizlarga sharikli avtoruchkaning qanday tuzilishini ko‘rsataman. Mana, mening qo‘limda sharikli avtoruchka. Uning qismlarini alohida-alohida ko‘rib chiqamiz. Bu qopqoq siyohli naycha (sterjen)ni saqlaydi. Mana bu avtoruchkaning siyohli naychasi (o‘qituvchi ruchkani qismlarga bo‘ladi). Uning ichi siyoh bilan to‘ldirilgan. Shuning uchun unga ehtihotkorlik bilan munosabatda bo‘lishimiz kerak (o‘qituvchi uni qo‘liga olib ko‘rsatadi). Faqat naychaning siyohi tugagandan keyin uni almashtirish kerak.

Shunday qilib o‘qituvchi sharikli avtoruchkaning old va orqa qopqog‘i, siyohli naychasi hamda himoya qopqog‘i bilan shogirdlarini mufassal tanishtiradi. O‘quvchilarning o‘zlari ham ustozlari yordamida ruchkani qismlarga bo‘lib qayta yig‘ishni mashq qiladilar.

Sharikli avtoruchkaning qismlari bilan tanishtirilgandan so‘ng undan qanday foydalanish qoidalari tushuntiriladi.

O‘qituvchi: Yozayotganda avtoruchka uch barmoq: bosh, ko‘rsatkich, o‘rta barmoq bilan ushlanadi (O‘qituvchi aytganlarini amalda ko‘rsatib beradi, o‘quvchilar esa u ko‘rsatgan amallarni takrorlaydilar). Men ko‘rsatgandek avtoruchkani qo‘lingizga oling.

Yozayotganingizda avtoruchkaning kichik qopqoq tomoni o‘ng elkangizga to‘g‘ri tursin (O‘qituvchi har bir o‘quvchiga yozish vaqtida ruchkani qanday ushlashni ko‘rsatib chiqadi). Yozib bo‘lgandan so‘ng avtoruchkani partaning ustidagi chuqurchaga qo‘ying. Dars tugagandan so‘ng esa ruchkangizni o‘z qutichangizga solib qo‘yishni unutmang.

Sharikli avtoruchka bilan yozish yuzasidan ota-onalar bilan ham suhbat o‘tkazish lozim. Buning uchun o‘qish boshlanishidan uch-to‘rt kun oldin ota-onalarni yig‘ib, ularga bolalari qanday avtoruchkada yozishlari va, faqat, shu tavsiya etilgan avtoruchkalarni olib berish tushuntiriladi.

Avtoruchkaning yozuvga doim tayyor bo‘lishi, husnixatga o‘rgatishning asosiy shartlaridan biridir, shuning uchun unga alohida e’tibor berish talab etiladi.

Jismoniy mashq lahzalarini tashkil etish. Birinchi sinfda qadam qo‘yayotgan o‘quvchilarning jismoniy hamda ruhiy chiniqishlarini (imkoniyatlarini) hamma vaqt hisobga olib turish lozim. Chunki bu yoshdagi bolalar imkoniyatlaridan tashqaridagi ruhiy va jismoniy yuklamani juda qiyinchilik bilan qabul qiladilar. Xususan, yozuv darslari agar ular imkoniyatlari darajasida tashkil etilmasa, ular tez charchaydilar va ularning bilim olish ishtiyoqlari tez so‘nadi. Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining qo‘l va barmoq muskullari ham etarli darajada taraqqiy etmaganligi bois ularni yozuv darslarida zo‘rlab yozdirish salbiy oqibatlarga olib kelishini o‘qituvchi bilishi lozim. Bolalarni zo‘riqtirib qo‘ymaslik uchun dars jarayonida turli xildagi jismoniy mashq lahzalarini tashkil etish ijobiy samara berishi tajribalarda isbotlangan. Faqat shuni unutmaslik lozimki, jismoniy mashqlar bolalarning yosh xuxsusiyatlariga mos bo‘lishi hamda faqat qo‘l va barmoq muskullarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Taniqli rus olimi, atoqli pedagog K.D.Ushinskiy maktabga endigina qadam qo‘yayotgan bolalar bilan jismoniy mashq lahzalarini tashkil etish borasida quyidagilarni yozib qoldirgan edi: **“Birinchi darsdayoq o‘qituvchi bolalarni komanda bilan bajariladigan harakatlarga o‘rgatishi kerak. Bu harakatlar bolalarga, charchagan a’zolarini harakatlantirish bilan birga, o‘zlarini tetik tutishlari uchun ham katta yordam beradi”** (Ushinskiy K.D. Tanlangan asarlar. T.II. Uchpedgiz, 1939,).

Tan olish lozim hozirgi vaqtda ayrim o‘qituvchilar kasbdoshlari bilan musobaqaga kirishib, sifat borasida batamom unutib qo‘yadilar.

Bunday o‘qituvchilar shogirdlarimni boshqalardan oldinroq savodli, tez va chiroyli yozadigan qilaman deb, o‘quvchilarni tanaffusga ham chiqarmay, ularning charchashlarini ham hisobga olmay nihoyatda ko‘p yozdiradilar. Yosh fiziologiyasi va jismoniy imkoniyatlariga mos kelmaydigan bunday yuklama natijasida o‘quvchilar tez toliqadilar, harakatlari sust bo‘lib qoladi. Tabiiyki, charchoq natijasida ularning yozuvlari xunuklashib, ko‘p xato qiladigan bo‘ladilar.

Ortiqcha yuklamadan charchagan o‘quvchilar elkalarini chiqarib, ko‘kraklarini partaga tirab, kerishib o‘tiradilar. Bu hol qonni yuritish uchun beixtiyor qilinadigan harakatlardir. Chunki organizm o‘z faoliyatini yaxshilash uchun beixtiyor harakat qiladi. Bunday harakatlarning oldini olish uchun vaqt-vaqti bilan jismoniy mashq lahzalarini tashkil etib turishning katta ahamiyati bor. Bu borada taniqli o‘zbek olimi va metodisti Mirhabib G‘ulomov quyidagi asosli fikrlarini keltirgan edi: **“O‘quvchilarga dars protsessida bajariladigan mashqlar oson bo‘lib, kam vaqt olishi, ularning jismoniy jihatdan o‘sishlariga, qo‘l muskullarining mukammallashishiga va qaddi-qomatlarini to‘g‘ri, erkin tutishlariga yordam berishi lozim. Yozuv darslarida (10-15 minut o‘tgandan so‘ng) o‘quvchilar betoqat bo‘lib, orqalariga yoki yonlariga yastanib o‘tiradilar, o‘rinlaridan turib ketadilar, bu ularning charchaganlarini bildiradi”** (“Husnixat metodikasi”. – Toshkent: O‘qituvchi, 1976).

Ta’kidlaganimizdek, dars jarayonida, har 10-15 daqiqada o‘quvchilarning nafas olishlarini yaxshilash, qo‘l va oyoq muskullarini chigalini yozish maqsadida lahzalik jismoniy mashqlar tashkil etilishi lozim. Shuning uchun barmoq va qo‘l harakatlarini o‘stiruvchi mashqlarni partada o‘tirgan holda yoki parta yonida turib bajarnirish mumkin. Dars jarayonida bunday mashqlar bir necha marta o‘tkazilishi mumkin. O‘qituvchi shogirdlarining ahvolini hisobga olib mashqlarni qachon o‘tkazishni belgilaydi. Metodik talablarga muvofiq mashqlarni avval o‘qituvchining o‘zi amalda bajarib ko‘rsatadi.

O‘quvchilarga quyidagi mashqlarni bajartirish tavsiya etiladi:

1-mashq. Dastlabki holat – o‘rningizdan turib, qo‘llarni oldinga cho‘zib turing. Bir deganda barmoqlarni ochamiz (1-rasmga qarang), ikki deganda barmoqlarni bukamiz.



1-mashq

2-mashq. Dastlabki holat – tirsaklar partaning ustiga qo‘yiladi, barmoqlar musht qilinib, yengil tutiladi hamda chap va o‘ng tomonga 5-6 marta aylantiriladi (2-rasmga qarang).

2-rasm

Bunday masqlarni yana ham qiziqarliroq tashkil etish va o‘tkazish mumkin. Masalan, butun sinf birgalikda quyidagi she’rni yoddan aytib qo‘llarini oldinga cho‘zib, uni o‘ng va chapga harakat qildiradilar:

Yozdik, yozdik, charchadik,
Ruchkani qo‘yib dam oldik.
Yoza-yoza qo‘llarim
Charchadi barmoqlarim.
Agar chiroyli yozsam
Rahmat aytar muallim.

Savol va topshiriqlar

1. Husnixat darslarini shakllantirish metodikasi haqida fikr yuriting.
2. Birinchi sinf o‘quvchilari uchun tavsiya etiladigan daftar parametrlari necha sm bo‘lishi kerak.
3. Jismoniy mashq lahzalarini tashkil etish usullari.

10-MAVZU: 1-2-SINFLARDA HUSNIXAT DARSLARI.

Reja:

1.Alifbegacha bo‘lgan davrda tayyorgarlik mashqlarini tashkil etish.

2.Alifbe davrida yozuv texnikasini o‘rgatishning o‘ziga xos xususiyatlari.

Tayanch so‘zlar: *1-2-sinf husnixat darslari, alifbe darslari, xato va kamchiliklar, kichik harflar.*

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi.Darslik. –T.: TDPU, 2013. – 70 b.

2. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Sobirova N. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. - T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2008.

3. Adizova N.B., Adizova N.B. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Buxoro: “Durdona”, 2021. -112 b.

4. Adizova N.B, Jumayev R.X., Qo‘ldoshev R.A., Ismatov S.R. Ona tili o‘qitish metodikasi. Buxoro. Durdona.: 2021. -292 b.

5. Safarova R va boshq. Alifbe. - T.: “O‘qituvchi” , 2020

6. H.Bakiyeva, N.Ahmedova, N.Azizova, D.Nosirova, B.Teshaboyeva, U.Ismoilova, B.Egamberdiyeva “Savodga o‘rgatish darslari”.-T.: “Extremum- press”, 2014. -119 b.

7. Safarova R., G‘ulomov M., Inoyatova m. Savod o‘rgatish darslari. 1-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.-T.: “Tafakkur”, 2012.-141 b

8.Azimova I, Mavlonova K, Quronov S, Tursun Sh. “Ona tili va o‘qish savodxonligi ” 1- sinf uchun darslik.I-II qism. “Yangiyo‘l poligraf servis” MCHJ nashriyoti. 2021-yil. 208 b

9.PIRLS 2021 Assessment Frame work. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association forthe Yevaluationof Yeducational Achievement (IEA), TIMSS& PIRLS International Study Center, Lynch School of Yeducation, Boston College. 2019. www.timssandpirls.bc.edu

Axborot manbalari

1.www. tdpu. Uz
2.www. pedagog. Uz
3.www. Ziyonet. Uz
4www. yedu. Uz
5.tdpu-INTRANET. Ped tdpu-INTRANET. Ped

Boshlang‘ich sinflarda harflarning shaklini to‘g‘ri yozishga o‘rgatish o‘qituvchidan ham, o‘quvchilardan ham ko‘p mehnat talab etadi. O‘quvchi har bir harfning tuzilishini, yozilishini ko‘rishi va tasavvur hosil qila olishi lozim. O‘qituvchi esa o‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni aniqlashi va uni tuzatish yo‘llarini belgilashi kerak.

O‘quvchilar tomonidan ham, o‘qituvchi tomonidan ham har bir harf aniq yozilishiga erishish, buning uchun ko‘p mashq qilish kerak bo‘ladi. Dastlab yozish sur’ati sekin bo‘ladi, keyinchalik o‘quvchilar harflarning yozilish shaklini yaxshi o‘zlashtirib olganlaridan so‘ng yozuvning tezligi ortib boradi.

Harflarning shaklini tushuntirishda dastlab doskaga yozib ko‘rsatish juda muhimdir. Buning uchun o‘qituvchining o‘zi yaxshi yoza oladigan bo‘lishi kerak. Agar o‘qituvchi bir harfni bir safar boshqa shaklda, ikkinchi safar yana bir shaklda yozib ko‘rsatsa, o‘quvchilar ikkilanib qoladilar va xatoga yo‘l qo‘yadilar.

O‘quvchi to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri yozilgan harflarni bir-biridan ajrata olishi, ulardagi asosiy kamchiliklar nimadan iborat ekanligini ko‘rsata olishi lozim. Shuning uchun ham o‘quvchilarda harfning shaklini analitik ko‘rish malakasini o‘stirish talab etiladi. Analitik ko‘rish malakasi faqat to‘g‘ri va noto‘g‘ri yozilgan harflarni solishtirish orqali o‘stirib boriladi.

O‘qituvchi o‘rgatmoqchi bo‘lgan harfning shaklini va yozilish tartibini doskada ko‘rsatib bergandan so‘ng o‘quvchilarga 2-3 qator mustaqil yozishga ruxsat etishi mumkin. Bu vaqt ichida o‘qituvchi sinfni aylanib, o‘quvchilarning yozuvini tekshirib chiqishi va xato yozayotgan o‘quvchilarning yozuvlaridan o‘quvchilar darrov uning ham xatosini aytib beradilar. (Birinchi boshlash elementi uzun bo‘lib ketgan.) Harflardagi kamchiliklar tahlil qilib bo‘lingandan so‘ng doskadagi noto‘g‘ri yozilgan harflarni o‘chirib tashlab, to‘g‘ri yozish qoidalari eslatib o‘tiladi va yuqoridagi kabi kamchiliklarga yo‘l

qo‘ymaslik uqtiriladi. Bunday to‘g‘ri va noto‘g‘ri yozilgan harflarni taqqoslash orqali o‘quvchilar shunday xulosaga keladilar. Bittasini namuna uchun tanlab olib, doskada o‘quvchi qanday xato yozgan bo‘lsa, o‘qituvchi ham shunday shaklda yozib ko‘rsatadi.

Agar o‘quvchilar o‘z o‘rtoqlarining yo‘l qo‘ygan xatosini ko‘rsalar, shu ondayoq qo‘l ko‘tarib, uni tuzatishga harakat qiladilar. Agar o‘quvchi harfni juda ham noto‘g‘ri yozgan bo‘lsa, o‘quvchilar taajjublanadilar va unga tanqidiy nazar bilan qaraydilar. Shunday tanqidiy munosabatning o‘zi ko‘p xatolarning oldini olishga yordam beradi. Bunday noto‘g‘ri yozilgan harflarni doskada yozib ko‘rsatish orqali tahlil qilish maqsadga muvofiqdir, chunki uni hamma o‘quvchilar kuzatib turadilar. Masalan, qoidaga mos qilib yozilgan kichik «m» harfi bilan noto‘g‘ri yozilgan kichik «m» harfini doskada quyidagicha yonma-yon ko‘rsatish mumkin.

Kichik «m» harfini yozishda yo‘l qo‘yilgan asosiy kamchilik nimadan iborat ekanligini o‘qituvchi o‘quvchilardan so‘raydi. O‘quvchilar javob beradilar. (Uchinchi osti ilmoqli tayoqcha shaklidagi elementi ikkinchi kichik tayoqcha shaklidagi elementdan kichik bo‘lib qolgan). Aslida esa ular barobar bo‘lishi kerak edi. Shundan so‘ng o‘qituvchi yana shunga o‘xshash ikkinchi bir xatoga yo‘l qo‘yib yozilgan kichik «m» harfini ko‘rsatishi mumkin:

O‘quvchilar darrov uning ham xatosini aytib beradilar. (Birinchi boshlash elementi uzun bo‘lib ketgan.) Harflardagi kamchiliklar tahlil qilib bo‘lingandan so‘ng doskadagi noto‘g‘ri yozilgan harflarni o‘chirib tashlab, to‘g‘ri yozish qoidalari eslatib o‘tiladi va yuqoridagi kabi kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik uqtiriladi. Bunday to‘g‘ri va noto‘g‘ri yozilgan harflarni taqqoslash orqali o‘quvchilar shunday xulosaga keladilar: to‘g‘ri yozilayotgan harflarning elementlari bir xil qiyalikda bo‘lishi hamda ular orasidagi masofa bir xilda saqlanishini bilib oladilar.

Qoida bo‘yicha o‘quvchilar harflarni elementlarga ajratib yozmasalar ham, har bir harfning qanday elementlardan tuzilganini, yozayotganda peroni qaysi tomonga qarakat qildirishni, qaerda burilish bo‘lishini, qaysi elementi qanday qiyalikda yozilishini yaxshi bilishlari kerak. Bu esa o‘quvchilarga harflarning shaklini yana ham chuqurroq o‘zlashtirib olishga katta yordam beradi.

I sinfda yozuv mashqlarini tashkil etish birmuncha murakkab bo‘lib, bir necha xil vazifani o‘z ichiga oladi: bolalar o‘qituvchining

so‘zini tinglaydilar, doskaga yozgan harf va so‘zlarni ko‘rib boradilar, ayrim tekstlarni ko‘chirib yozadilar, so‘z va bo‘g‘inlarni tahlil qiladilar va hokazo.

Har bir yozuv mashg‘ulotini boshlashdan oldin hamda butun dars jarayonida ham o‘quvchilarga to‘g‘ri o‘tirish qoidalarini eslatib turish maqsadga muvofiqdir. Bu masalani oson hal etishning yana bir yo‘li sinfga to‘g‘ri o‘tirish qoidalari ko‘rsatilgan plakatlarni osib qo‘yishdir.

O‘quvchilarda chiroyli, aniq va toza yozishga qiziqish va muhabbat uyg‘otish uchun birinchi navbatda o‘qituvchining o‘zi chiroyli yozishi lozim. I sinfda o‘qish darslarida o‘quvchilar tovush hamda bosma harflar bilan tanishtirilsa, tovush va harflarni analiz va sintez qilish orqali ularning nutqi o‘stiriladi. Shu kabi yozuv darsining ham ayrim spetsifik xususiyati bor.

Masalan, agar o‘quvchilar o‘qish darsida «Alifbe» kitobidagi tayyor bosma harflardan foydalansalar, yozuv darsida bu narsa ko‘rinmaydi. Har bir harf va uning elementini o‘quvchining o‘zi namunaga qarab yozadi.

Shuning uchun ham bu sinfda yozuvga o‘rgatish o‘z navbatida quyidagi kabi qator tushunchalarni bilishni talab etadi: **baland-past, bir xil, keng-tor, yaqin-uzoq, yuqoriga, pastga, o‘rta (oraliq), uzunroq-kaltaroq, teng, teng bo‘lmagan masofa, to‘g‘ri-qiya, chapga-o‘ngga.**

O‘qituvchi yozuv malakasiga o‘rgatishga boshlashdan oldin o‘quvchilar bilan yuqoridagi ko‘rsatib o‘tilgan tushunchalar ustida ish olib borishi lozim. Bu o‘quvchilarga harflarning shaklini uning harakatini yaxshi tushunishlariga katta yordam beradi.

I sinfda yozuv mashqlari uchun berilgan alifbegacha bo‘lgan davrni birmuncha uzaytirish mumkin. (»Alifbe» kitobida esa bu davr uchun 6-7 kun berilgan). Ammo bu davrda yozuv darsi bilan o‘qish darsi o‘rtasida birmuncha farq bo‘lishi mumkin, bundan cho‘chimaslik kerak, chunki bu vaqtda o‘quvchilar so‘z va harflarni o‘tilgan materiallar asosida yozib o‘rganadilar. Keyinchalik esa o‘qish bilan yozuv darsi bir-biri bilan uzviy bog‘langan holda davom etadi.

O‘qishning birinchi haftalaridagi tayyorgarlik mashqlari asosan og‘zaki nutqni o‘stirishga qaratiladi. Ammo butun dars davomida og‘zaki nutq bilan shug‘ullanish bolalarni zeriktirib qo‘yishi mumkin. Shuning uchun bu darslarning ma’lum qismini og‘zaki nutqini o‘stirishga, ma’lum qismini esa yozuv mashqlari uchun sarflash kerak.

Bu davrda husnixatga oid tayyorgarlik mashqlarini tashkil etishning ahamiyati katta.

I sinf o‘quvchilari bilan tayyorgarlik mashqlarini to‘g‘ri olib borish uchun

quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak.

Partada to‘g‘ri o‘tirishga, avtoruchkani to‘g‘ri ushlashga va daftarni to‘g‘ri tutishga o‘rgatish.

1.O‘quvchilarning husnixatga qiziqishlarini o‘stirish.

2.Bolalarning taqqoslash va chamalash qobiliyatlarini o‘stiruvchi mashqlarni bajartirish.

3.Qo‘l va barmoq muskullarining harakatini o‘stirish.

Tayyorgarlik mashqlarini bajarish uchun o‘quvchilarni qora va rangli qalamlar hamda yozuv daftari bilan ta’minlash lozim. O‘qituvchining bu davrda rangli bo‘rlardan foydalanishi yaxshi samaralar beradi.

Tayyorgarlik davrida o‘tkaziladigan mashqlarni ma’lum guruhlarga bo‘lib, avval sodda, keyin murakkabroq mashqlarni bajarish lozim. Mashqlarni quyidagi gruppaarga bo‘lish mumkin:

Birinchi guruh mashqlar

Darsning maqsadi. O‘quvchilarni daftarning chiziqlari bilan tanishtirish va nuqtalarni ko‘z bilan chamalab qo‘yishga o‘rgatish.

Birinchi vazifa. O‘quvchilarga barobar masofada nuqtalar qo‘yishni o‘rgatish.

Ikkinchi vazifa. O‘quvchilarga «barobar masofa», «yaqin», «uzoq» kabi

tushunchalarni o‘rgatish.

Uchinchi vazifa. O‘quvchilarni daftarning qiya holati bilan tanishtirish. Bolalarga oldin daftarni tik, keyin esa qiya qilib qo‘yish topshiriladi. So‘ngra daftarning qiya va tik holatlari qiyos qilib ko‘rsatiladi hamda yozuvning qiyaligi daftarga taalluqli ekanligi bolalarga tushuntiriladi.

To‘rtinchi vazifa. O‘quvchilarning qalam ushlashlari tekshirib chiqiladi va qizil rangli qalam bilan bir qator nuqta qo‘yib chiqish topshiriladi.



I k k i n ch i g u r u h m a sh q l a r

Darsning maqsadi. Chiziqlarning qiya shaklda yozilishini ko‘rsatish hamda chiziqlar orasidagi masofani to‘g‘ri topishga o‘rgatish.

Birinchi vazifa. Kichik harflar yoziladigan chiziqlar orasiga qiya tayoqchalar chizishni mashq qildirish.

O‘qituvchi bu mashqni doskada namuna tarzida ko‘rsatib, beradi. O‘quvchilar esa qizil rangli qalam bilan qiya tayoqchalarni chizadilar. O‘quvchilar bir qator yozib bo‘lganlaridan so‘ng ular tekshirib chiqiladi va tahlil qilinadi. (Tayoqchalarning bo‘yi va qiyaligi, ular orasidagi masofa bir xilmi?) Yozilgan tayoqchalarning bir xilligini tekshirish uchun ularning o‘rtasiga ko‘k rangdagi qalam bilan nuqtalar qo‘ydiriladi.



Agar nuqtalar barobar masofada bo‘lsa, o‘quvchi vazifani to‘g‘ri bajargan, nuqtalar barobar masofada bo‘lmasa, o‘quvchi xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘ladi. Xatoga yo‘l qo‘ygan o‘quvchilarga shu mashqni qayta bajartirish lozim.

U ch i n ch i g u r u h m a sh q l a r

Darsning maqsadi. O‘quvchilarga «baland», «yuqori» va «past» tushunchalarni anglatish. Chiziqlar orasini to‘g‘ri topishga o‘ragatish.

Birinchi vazifa. Har xil balandlikdagi qiya tayoqchalarni yozdirish. O‘qituvchi doskada daftarning yuqori chizig‘idan pastki chizig‘igacha uzun tayoqchalar tushirishni, tayoqchalarning teng o‘rtasini topib, nuqta qo‘yishni aytadi; uzun tayoqchaning yarmidan, ya’ni nuqta qo‘yilgan eridan uning yoniga kichik qiya tayoqcha chizishni topshiradi. Uzun tayoqchalarning o‘rtasiga qo‘yilgan kichik tayoqcha gorizontal chiziq bilan bog‘lanadi.



Doskada tayoqchalarning baland va pastligi taqqoslab ko‘rsatib beriladi. Shundan so‘ng o‘quvchilar vazifani bajarishga

T o‘ r t i n ch i g u r u h m a sh q l a r

Darsning maqsadi. Har xil shaklga va qiyaliklarga ega bo‘lgan chiziqlarning unsurlarini yozishga o‘rgatish.

Birinchi vazifa. Uzun tayoqcha unsurini bir necha bo‘laklarga bo‘lib, ularning orasidagi masofani bir xilda saqlashga o‘rgatish. (Bu chiziqlar jigar rang qalam bilan chizdiriladi).

Ikkinchi vazifa. Tayoqchalarning baland-pastligi, oralaridagi masofaning tengligi tekshirilib chiqilgandan so‘ng zangori rang qalam bilan har xil qiyalikka ega bo‘lgan kichik chiziqchalar chiziladi. Natijada archa daraxti shakliga o‘xshash chiziqlar hosil bo‘ladi.



O‘quvchilar bu mashqni bajarish orqali oraliq masofalarni chamalashga va qiyaliklarni to‘g‘ri saqlashga o‘rganadilar.

B e sh i n ch i g u r u h m a sh q l a r

Darsning maqsadi. O‘quvchilarga «keng» va «tor» tushunchasini anglatish; osti ilmoqli kichik tayoqcha shaklidagi elementni yozishga o‘rgatish.

Birinchi vazifa. Osti ilmoqli kichik tayoqcha elementini har xil rangli qalamda bajarish. Masalan, 3 ta tayoqcha qizil rangda, 3 ta tayoqcha ko‘k rangda bajarilsa, o‘quvchilarning qiziqishlari ortadi.

Ikkinchi vazifa. O‘tkir burchak hosil qilib yozilgan element bilan osti ilmoqli kichik tayoqcha elementlarini qiyos qilib ko‘rsatish. (Osti ilmoqli tayoqcha elementining to‘g‘ri yozilishi ko‘rsatib o‘tiladi, chunki bu element kichik harflarning yozilishida ko‘p uchraydi.) O‘quvchilarga bu qoidalar tushuntirilgandan so‘ng bir qator oralatib, bitta kichik to‘g‘ri tayoqcha va bitta osti ilmoqli kichik tayoqcha elementi yozdiriladi.



O l t i n ch i g u r u h m a sh q l a r.

Darsning maqsadi. Cho‘zinchoq doira shaklini yozishga o‘rgatish.

Birinchi vazifa. Cho‘zinchoq doira shakli bilan tanishtirish hamda uni aylana bilan qiyos qilib ko‘rsatish.

O‘qituvchi doskada aylana va uning yoniga cho‘zinchoq doira shaklini yozib, ularni solishtirib ko‘rsatadi;



Ularning bir-biridan farqini tushuntiradi: aylana - bu koptok yoki tarvuzga, cho‘zinchoq doira esa olxo‘ri yoki qovun shakliga o‘xshaydi. So‘ng o‘qituvchi cho‘zinchoq doirani tik va qiya holatda yozib ko‘rsatadi. O‘quvchilar uni solishtirib ko‘radilar: biri tik holatda , ikkinchi esa bir tomonga qiya qilib yozilgan.

O‘qituvchi cho‘zinchoq doira shaklidagi bu elementni bir tomonga qiya qilib yozish shart ekanligini ta’kidlaydi. O‘quvchilar uning yozilishini bir necha marta havoda bajaradilar, so‘ngra yozishga ruxsat etiladi. O‘qituvchi cho‘zinchoq doiraning balandligini ham tayoqcha bilan barobar yozilishini eslatadi. O‘quvchilar bir qatorga bitta kichik tayoqcha va bitta cho‘zinchoq doira shaklini almashtirib yozadilar.



Cho‘zinchoq doira shaklining orasiga qo‘yilgan bu kichik tayoqchalar

uning qiyaligini saqlab yozishga yordam beradi.

E t t i n ch i g u r u h m a sh q l a r

Darsning maqsadi. Kichik harf elementlarining qo‘shib yozilishini hamda ularning orasidagi masofani to‘g‘ri saqlashga o‘rgatish.

Birinchi vazifa. Osti ilmoqli kichik tayoqcha elementini mashq qildirish hamda ularni bir-biriga qo‘shib yozishga o‘rgatish.



Bu vazifaning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bajarilganini mashqni

bajarib bo‘lgandan so‘ng ikkita element o‘rtasidagi bo‘shliqqa boshqa rangli qalam bilan nuqta qo‘ydirish orqali ham bilish mumkin.



Agar o‘quvchi vazifani to‘g‘ri bajargan bo‘lsa, nuqta harf elementlari orasiga to‘g‘ri joylashadi, aksincha, noto‘g‘ri bajarilgan bo‘lsa, nuqta uchun joy topilmaydi. Bunday usul bilan vazifani tekshirish ularda uchraydigan xatoning oldini olishning birdan-bir to‘g‘ri yo‘lidir.

S a k k i z i n ch i g u r u h m a sh q l a r

Darsning maqsadi. «Uzunchoq» va «kaltaroq» tushunchasini anglatish.

Birinchi vazifa. Ikki xil uzunlikdagi yotiq va tik tayoqcha elementlarini yozib ko‘rsatish. Bu vazifa ham rangli qalam bilan bajariladi. O‘quvchilar bu tayoqchalarning qaysi biri uzun, qaysi biri qisqa ekanini solishtirib ko‘radilar.

T o‘ q q i z i n ch i g u r u h m a sh q l a r

Darsning maqsadi. Harf elementlarini bir qatorga to‘g‘ri joylashtirishga o‘rgatish.

Birinchi vazifa. O‘quvchilarga bir qator cho‘zinchoq doira shaklini yozib mashq qildirish.

Ikkinchi vazifa. O‘quvchilarga zangori qalam bilan cho‘zinchoq doira ichiga bir xil masofada kichik tayoqcha chizib chiqish topshiriladi. Har bir tayoqcha bargning o‘rta qismi, ya’ni uning tomirlari vazifasini bajaradi. Bargning ham kichik tayoqcha, bu esa bargning bandi hisoblanadi

Tayyorgarlik mashqlarini bunday tashkil etish o‘quvchilarni avtoruchka bilan yozishga tayyorlashda katta rol o‘ynaydi. Ammo tayyorgarlik davrida o‘quvchilar yozuvga taalluqli bo‘lgan hamma malakalarni to‘liq hosil qildilar deb bo‘lmaydi. Shuning uchun ayrim tayyorgarlik mashqlarini harflarini o‘rgatish davrida ham olib borish mumkin, masalan, kichik **u** harfini yozdirishga o‘rgatishda uning ikkinchi osti tugunchakli elementining bog‘lanishida qiynalishlari mumkin.

Yuqorida ko‘rsatilgan tayyorgarlik mashqlari qat’iy bo‘lmay o‘qituvchi o‘quvchilarning kuchiga qarab bir oz soddalashtirishi yoki, aksincha, murakkabroq qilib olishi mumkin.

Ayrim mashqlarda harf elementlari nuqtalar bilan qo‘shib berilgan: bunday ishlar o‘quvchilarning chamalash qobiliyatlarini o‘stirishga yordam beradi.

Sinfda husnixat mashqlari o‘qituvchi tomonidan doskada yozib ham ko‘rsatiladi.

Alifbe davrida yozuv texnikasini o‘rgatishning o‘ziga xos xususiyatlari.

O‘quvchilar tayyorgarlik davrida ayrim mashqlarni bajargan bo‘lishlariga qaramay, o‘qituvchi navbatdagi darsni e’lon qilish bilan birga yozuv asboblarini qayta tekshirib chiqishi lozim. Shu bilan birga, quyidagi vazifalarni bajarishni maqsad qilib qo‘yishi lozim:

1. Barmoq va qo‘l muskullari harakatini o‘stiruvchi gimnastik mashqlar o‘tkazish.
2. Doskaga mashqni yozib ko‘rsatish va asosiy e’tiborni nimaga jalb etishni tushuntirish. (Ayrim o‘quvchilar harfni qanday yozishni so‘zlab berishlari ham mumkin.)
3. Daftardan foydalanishni, yozuvni qayerdan boshlashni tushuntirish.
4. Partada to‘g‘ri o‘tirish, ruchkani to‘g‘ri ushlash, daftarni to‘g‘ri tutish qoidalarini eslatib o‘tish.
5. Har bir qatorga nechta harf yozishni tushuntirish, o‘quvchilarning yozuvini muntazam kuzatib borish.
6. Ishning birinchi qismi tugallangandan so‘ng (o‘qituvchining savoliga qarab) bajargan yozuvlarini doskadagi namuna bilan solishtirib ko‘rishga va yo‘l qo‘ygan xatolarini topishga o‘rgatish.
7. Vazifani qayta tushuntirish orqali o‘quvchilardagi kamchiliklarni yo‘qotish.
8. Fizkultura minutlari o‘tkazish. (Fizkultura minutlarini o‘tkazish uchun mashqlar namunasi 1 bobda berilgan.)
9. Yangi mashqni tushuntirish, dasrlikning qaysi beti, qachon va necha qator yozish kerakligini belgilab qo‘yish.
10. Ko‘z bilan daftar orasidagi masofani to‘g‘ri saqlashga o‘rgatish.
11. Har bir mashqni bajarishda uni tahlil qilish, zarur bo‘lsa, qo‘shimcha ko‘rsatmalar berish.

O‘quvchilarga bajariladigan vazifalarni aniq ko‘rsatish.

Bu davrda o‘quvchilarni asta-sekin «husnixat» daftaridan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatib borish zarur. O‘qituvchining ko‘rsatmasiga binoan o‘quvchi daftardan zarur mashqni topishi va bajarishi lozim. Alifbegacha bo‘lgan davrdan boshlab harf va uning elementlarini bir xil balandlikda, qiyalikda va qalinlikda yozishga qaratish talab etiladi.

Ko‘chirib yozish mashqlari uchun esa ayrim harf elementlari emas, balki alohida guruhlar beriladi.

Alifbegacha bo‘lgan davrda bu talablarning amalga oshirilishi alifbe davrida darsni yanad samaraliroq olib borish uchun imkoniyat yaratadi.

Alifbe davrida o‘quvchilar nutq tovushlari bilan tanishadilar, so‘z tuzishga, so‘z va gaplarni o‘qishga hamda ayrim elementlar, harflar, o‘tilgan harflar ishtirokida so‘z va gaplar yozish ham o‘rgatiladi. Alifbe davrida bolalarni yozishga o‘rgatish juda muhimdir. Bu davrda o‘quvchilarga harf va uning elementlari «Alifbe» daftarida ko‘rsatilgan tartibda o‘rgatiladi. O‘quvchilarga vaqt-vaqti bilan yozuv gigiyenasi qoidalarini eslatib turish lozim.

Alifbe davrida bajariladigan asosiy grafik ishlar quyidagilardan iborat:

1. Kichik va bosh harflarni alifbe tartibida yozish.
2. Harflarni bo‘g‘in va so‘zlarda qo‘shib yozish.
3. Qo‘l harakatini uzmay yozishga o‘rgatish.
4. Harflarning qiyaligini va enini to‘g‘ri saqlashga o‘rgatish.

O‘quvchilar tomonidan harflarning shaklini yozishda ularning yozuvini ko‘zdan kechirib chiqish, ayrim harflarning elementini noto‘g‘ri yozayotgan o‘quvchilarga shu elementning to‘g‘ri yozilishini ko‘rsatib berish lozim. O‘quvchilarda bu davrda harflarni to‘liq yozmaslik, harflarni almashtirib yozish kabi xatolar uchraydi. Alifbe davrida (va o‘quv yilining 2 yarmida ham) o‘quvilarning yozayotgan matnlarini uch xil yo‘l bilan tahlil qilish mumkin:

a) so‘z tarkibini aniqlash;
b) so‘zning ma’nosini aniqlash;
c) mashqlarning grafik tasviri ustida ishlash.

Shularning hammasini hisobga olgan holda «Husnixat» daftaridagi mashqlarni joylanishi «Alifbe» kitobi asosida berilgan.

Alifbe davrida o‘quvchilarni bo‘g‘inlab yozishga, keyinroq esa so‘zlarni bir butun qilib yozishga o‘rgatish lozim.

Ayrim o‘quvchilar so‘zlarni harflarni alohida-alohida yozishga harakat qiladilar, bunga aslo yo‘l qo‘ymaslik lozim, chunki harflarni alohida-alohida yozish natijasida ayrim harflarni tushirib qoldiradilar va almashtirib yozadilar. Bu davrda o‘quvchilarni yoddan yozishga ham o‘rgatish lozim. Buning quyidagi kabi topshiriqlarni berib borish lozim: matnni o‘qib, yozilishiga qara, doskaga qaramay yoz, o‘qi, namuna bilan solishtirib ko‘r.

Alifbe davrining oxirida ko‘pchilik o‘quvchilarda yozuv malakasi hosil bo‘ladi, ammo bu bilan qanoatlanmasdan yozuvga o‘rgatish malakasini takomillashtirib borish talab etiladi. Quyida kichik **r** harfining qanday o‘rgatilishini ko‘rsatib o‘tamiz.

Dars mavzusi. Kichik «r» harfini to‘g‘ri va chiroyli yozishga o‘rgatish.

Darsning borishi.

O‘quvchilar, oldingi darsda «Alifbe» kitobidan qaysi tovushni o‘tgan edik? Shu tovush so‘zning o‘rtasida, oxirida va boshida kelgan so‘zlardan ayting (o‘quvchilar so‘z topadilar). Endi kesma alifbedan kichik r harfini toping. Mana bu - kichik **r** harfining bosma shakli. Endi sizlar bilan harfning yozilishini o‘rganamiz. (O‘qituvchi doskada ko‘rsatadi.) Men qaysi tomondan boshlab yozyapman va qaysi tomonga qo‘limni yo‘naltiryapman: shunga qarab turing.

Kichik r harfi ikki elementdan tuzilgan bo‘lib, birinchi elementi ikkita bir-biriga qo‘shilgan to‘lqinsimon unsurdan tashkil topgan bo‘lib, ikkinchi elementi esa osti ilgakli kichik tayoqcha shaklida bo‘ladi. Ammo yozayotganda har ikki elementini bir-biriga qo‘shib yozamiz, bu harfni yozishda qo‘l harakati uzilmaydi.

-Qarang, men birinchi elementini qanday yozaman, daftarning o‘rta chizig‘idan 1,5 mm pastdan boshlab yuqoriga qarab qiya va ilmoqli shaklda yozamiz, ikkinchi unsurni yuqori chiziqdan pastga qarab to‘g‘ri chiziqli ilmoq shaklida yozamiz.

Bu harfni yozishda uning qiyaligiga alohida e’tibor bering. U daftarning qiya chizig‘iga parallel bo‘lsin.

Avtoruchkani chiziqning ustidan qayta yurgizishda uni yo‘g‘on qilib yubormang, chunki harfning yo‘g‘onligi bir xil qalinlikda bo‘lishi kerak.

-Qani, o‘quvchilar, bu harfni yozishga boshlashdan oldin, yozuv vaqtida partada qanday o‘tirish lozim ekanligini aytib bering-chi? Oyog‘imiz qayerda turishi kerak? Gavdani qanday tutamiz?

(O‘quvchilar javob beradilar.) Ruchkani qaysi barmoqlarimiz bilan ushlaymiz? Ko‘rsatkich barmog‘imiz qayerda turadi? Avtoruchkani qanday ushlayotganimizni tekshirib ko‘ramiz.

«Bir» deganda ko‘rsatkich barmog‘imizni ko‘taramiz, «ikki» deganda tushiramiz. (O‘quvchilar ruchkani ko‘targan holda ko‘rsatkich barmoqlarini ko‘rsatadilar).

Endi daftarimizning to‘g‘ri turganligini tekshiramiz. Daftarning chetki qirralarini partaning ustidagi qiya chiziqqa to‘g‘rilab olamiz. Harfni yozishga boshlaymiz. Siz ham harflarni men daftaringizda ko‘rsatgandek qilib bir tekis yozing. Bir qatorga 10 tadan ortiq yozmang.

Shundan keyin o‘qituvchi o‘quvchilarning yozuvlarini tekshirib chiqib, zarur bo‘lsa tegishli ko‘rsatmalar beradi, o‘quvchilar yana ikki qator yozib mashq qiladilar.

O‘quvchilar kichik r harfini yozish malakasini egallab olganlaridan keyin

«Husnixat» daftaridan so‘zlar yozdiriladi: ari, arra, anor, shar.

O‘quvchilarga so‘zlarni yozdirishdan avval o‘qituvchi doskada ularning bog‘lanishini ko‘rsatib beradi va kichik **r** harfi o‘zidan oldingi va keyigi harflar bilan qo‘l harakati uzilmasdan qo‘shib yozilishini eslatib o‘tadi.

Bir qator yozib bo‘lingandan so‘ng o‘quvchilarning qo‘llari toliqib qolmasligi uchun qisqa og‘zaki ko‘rsatmalar beriladi.

Darsni yakunlashda o‘qituvchi o‘quvchilarda uchragan ayrim tipik xatolarni va eng yaxshi yozgan o‘quvchilarni eslatib o‘tadi, uyga vazifa beradi: ikki qator kichik **r** harfini va shu harf ishtirok etgan so‘zlarni yozib kelish.

I sinfda o‘quv yilining ikkinchi yarmida ona tili darslarida yozuvning orfografik tomoniga e’tibor berib, uning grafik tomonini esdan chiqarib qo‘ymaslik kerak. Ayrim harflarning yozilishini bir yoki ikki kun emas, balki bir necha kun mashq qildirish mumkin. Ammo mashqlarning turi har xil bo‘lishi lozim. «Husnixat» kitobida II yarim yil uchun berilgan materiallar alifbe davridagiga o‘xshab soatlarga yoki qismlarga ajratilgan emas. O‘qituvchi o‘z istagicha ona tilidan o‘tayotgan temasiga moslab yozuv mashqlarini tanlab olishi mumkin.

Uyga vazifa qilib shu harf ishtirok etgan so‘zlarni topib yozib kelish topshiriladi. Agar o‘quvchilar shunda ham bu harfning

yozilishini yaxshi o‘zlashtirib ololmasalar, keyingi darslarda yana takrorlash mumkin. Ayrim

vaqtlarda esa shu harfdan tashkil topgan so‘zlarni esa «Husnixat» daftaridan ko‘chirib yozishga berish mumkin.

Kichik harflarga o‘xshash bosh harflar ham guruhlarga ajratib berilgan. Masalan, o‘xshash elementli L va M harflarini bir darsda mashq qildirish mumkin. Bosh harflarni mashq qildirishda o‘quvchilarga tanish bo‘lgan shahar va daryolarning nomini, kishilarning ismini yozdirish mumkin.

Quyida ona tili darsining tarkibiy qismida husnixat mashqlari qanday

o‘tkazilishini namuna tarzida ko‘rsatib o‘tamiz.

Dars mavzusi: d va t undoshlarining aytilishi va yozilishi.

Darsning borishi.

Darsning boshlanishida o‘quvchilar bilan quyidagicha savol javob o‘tkaziladi.

1. Gap nimadan tuziladi?
2. So‘z nimalardan tuziladi?
3. Tovushni nima qilamiz?
4. Yozuvda tovushlar nima bilan ifodalanadi?

Shundan so‘ng yangi temani bayon qilishga o‘tiladi.

Yangi mavzu d va t undoshlarining aytilishi va yozilishini o‘quvchilarga tushuntirishdan oldin chiroyli yozuv qoidalariga asoslanib «Husnixat» daftaridagi d va t harflarini ikki qatordan yozib mashq qildiriladi. Harflarni yozdirishga boshlashdan oldin ularning qanday yozilishi, qanday unsurlardan tuzilganligi, boshqa harflar bilan bog‘lanishi haqida yana qayta tushuncha berib, eslatib o‘tiladi: kichik t harfi ikki unsurdan tuzilgan bo‘lib, ular qo‘lni uzgan holda yoziladi. Boshqa harflar bilan, so‘zning qayerida kelishidan qat’i nazar, qo‘shilib yoziladi. Kichik d harfi ham shu tartibda tushuntiriladi. Keyin

«Ona tili» darsligidan shu mavzuga oid material tushuntriladi va mashqlar bajariladi. Mashqni 3-4 o‘quvchiga o‘qitib, d va t undoshlari qatnashgan so‘zlar izohlab yozdiriladi. Shundan so‘ng yangi temaga mos maqol va topishmoqlarni yozdirish mumkin.

Husnixat mashqlarini ona tili darsi bilan bunday bog‘lab o‘tish to‘g‘ri va chiroyli yozish malakalarini hosil qilish va ona tili predmetini ham puxta o‘zlashtirishga asos bo‘ladi.

Savol va topshiriqlar

1.Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish yo‘llari borasida gapirib bering.

2.Alifbegacha bo‘lgan davrda qanday tayyorgarlik mashqlari tashkil etiladi? Ularni qanday gurunlarga bo‘lish mumkin?

3.Alifbe davrida yozuv darslari qanday tashkil etiladi? Bunday darslarning o‘ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo‘ladi?

11-MAVZU: 3-4-SINFLARDA HUSNIXAT DARSLARI.

Reja:

1.Uchinchi va to‘rtinchi sinflarda husnixat malakalarini takomillashtirish.

2.Raqamlarni aniq va chiroyli yozish metodikasi.

3.Tinish belgilarini yozishga o‘rgatish.

Tayanch so‘zlar: *3-4-sinflarda husnixat draslari, husnixat malakalarini takomillashtirish, tinish belgilar, husnixat darslari.*

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi.Darslik. –T.: TDPU, 2013. – 70 b.

2. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Sobirova N. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. - T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2008.

3. Adizova N.B., Adizova N.B. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Buxoro: “Durdona”, 2021. -112 b.

4. Adizova N.B, Jumayev R.X., Qo‘ldoshev R.A., Ismatov S.R. Ona tili o‘qitish metodikasi. Buxoro. Durdona.: 2021. -292 b.

5. Safarova R va boshq. Alifbe. - T.: “O‘qituvchi” , 2020

6. H.Bakiyeva, N.Ahmedova, N.Azizova, D.Nosirova, B.Teshaboyeva, U.Ismoilova, B.Egamberdiyeva “Savodga o‘rgatish darslari”.-T.: “Extremum- press”, 2014. -119 b.

7. Safarova R., G‘ulomov M., Inoyatova m. Savod o‘rgatish darslari. 1-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.-T.: “Tafakkur”, 2012.-141 b

8.Azimova I, Mavlonova K, Quronov S, Tursun Sh. “Ona tili va o‘qish savodxonligi ” 1- sinf uchun darslik.I-II qism. “Yangiyo‘l poligraf servis” MCHJ nashriyoti. 2021-yil. 208 b

9.PIRLS 2021 Assessment Frame work. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association forthe Yevaluationof Yeducational Achievement (IEA), TIMSS& PIRLS International Study Center, Lynch School of Yeducation, Boston College. 2019. www.timssandpirls.bc.edu

Axborot manbalari

1.www. tdpu. Uz
2.www. pedagog. Uz
3.www. Ziyonet. Uz
4www. yedu. Uz
5.tdpu-INTRANET. Ped tdpu-INTRANET. Ped

Uchinchi sinf dasturida o‘quvchilar husnixatini takomillashtirish uchun quyidagi talab va tavsiyalar berilgan:

- Yozuvga oid malakalarni mustahkamlash;
- Bolalarni bir chiziqli daftarda yozishni mashq qildirish (harflarni balandlik

va kenglik o‘lchamini o‘zlashtirish):

- O‘quvchi uchun qiyin bo‘lgan ayrim bosh va kichik harflarni, harflar birikmasini yozishga, shuningdek, harflarni to‘g‘ri ulanishiga rioya qilish.

Shu tavsiyalarga tayangan holda uchinchi sinfda husnixat darslari tashkil etiladi. Bu sinfda o‘quvchilarning yozuv malakalarini mustahkamlash uchun ularga ko‘proq ko‘chirib yozish mashqlarini berish va yozuv tezligini hisobga olib boorish lozim. Tez yozish malakasini hosil qilish uchun qo‘l va barmoq muskullari harakatini o‘stiruvchi mashqlarni bajarish; ayrim kichik va bosh harflarning yozilish metodlarini ko‘rsatish kerak bo‘ladi.

Bunday mashqlar o‘quvchilarning chamalash qobiliyatlarini o‘stirishga,

harflarni bir-biriga tez bog‘lab yozishga o‘rgatishga katta yordam beradi.

Oquvchilar tayyorgarlik mashqlarini bajarib bo‘lganlaridan so‘ng asta-sekin yozuv tezligi oshib, tez yozish malakasi hosil bo‘la boradi. Bu davrda yozuvga o‘rgatish uchun qo‘yidagi malakalar hosil qilinishi zarur:

Harflarni qo‘l harakatini uzmasdan tez bir-biriga bog‘lab yozish.

Bosh va kichik harflarni bir-biriga bog‘lab yozish.

Matnga qarab ko‘chirib yozish.

To‘rtinchi sinfda ham chiroyli yozuvga o‘rgatishni ona tili darsi bilan bog‘liq holda olib boriladi. Bu sinfda bir chiziqli daftarga kichik harflarni 3 mm balandlikda, bosh harflarni esa 7 mm balandlikda yozish malakasi hosil qilinadi. Bu sinfda o‘qituvchi, harflarni yozilishini va o‘lchamlarini tushuntirish bilan bir qatorda, quyidagi talablarni eslatib turishi lozim:

1. Partada to‘g‘ri o‘tirish, ruchkani to‘g‘ri ushlash, daftarni to‘g‘ri tutish.
2. O‘quvchilarni mayda harfar bilan yanada tezroq yozishga o‘rgatish.
3. Kichik harflarni bir xil balandlikda, bosh harflarni bir xil balandlikda bir tekis qilib yozishga o‘rgatish.
4. Tez yozishga o‘rgatuvchi mashqlarni muntazam o‘tkazish.
5. Ayrim kichik va bosh harflarni tez yozish uchun moslashtirish.

Tez yozish ko‘nikmasi 1-2 sinflarda ham ma’lum darajada hosil qilingan. 3- 4 siflarda bu ko‘nikma alohida mashqlar berish orqali mustahkamlanadi. Yozuv tezligi esa asta-sekin ortib boradi. Bu mashqlarni bajarishda chamalash qobiliyatini o‘atirishga alohida e’tibor berish zarur.

3-4 sinfda ham ayrim murakkab harflarni alohida yozdirib mashq qildirish mumkin. Bunda har bir qatorda 12-14 ta bosh harf yozish kerak. Agar bundan ko‘p yozilsa, harflar orasidagi masofa va harflarning eni tor bo‘ladi, bundan kam yozilsa, aksincha, keng bo‘lib qoladi:



To‘g‘ri



Noto‘g‘ri

Xudi shuningdek, so‘zlarni yozishda ham harflarni juda zich yoki ularni orasini keng qilib yubormay bir me’yorda yozishga odatlanish lozim. So‘zlanning orasidagi masofa esa bir xil saqlanishi (5-6 mm dan oshmasligi, bundan oz ham bo‘lmasligi) kerak. Xatning chiroyli chiqishda harflar va so‘zlar orasidagi masofaning bir xilda bo‘lishi katta rol o‘ynaydi. Shuning uchun 3 sinfda bu masalaga alohida e’tibor berish lozim.

So‘zlarni qatorlarga to‘g‘ri joylashtirish malakasi ko‘proq ko‘chirib yozuv mashqlari orqali hosil qilinadi.

3-4 sinflarda bosh harflarning yozilishini ko‘proq mashq qildirish lozim. Bosh harflarni mashq qildirish orqali ayrim ish qog‘ozlarini xat, adres va hokazolarni yozish qoidalari ham tushuntiriladi. Bunday ish qog‘ozlarini aniq, ozoda va to‘g‘ri bajarish shu sinflardan boshlab talab etiladi.

Raqamlarni aniq va chiroyli yozish metodikasi. O‘quvchilarning raqamlarni ham aniq va chiroyli yozishlariga alohida e’tibor berish zarur. O‘quvchilarga raqamlar I-II sinfda bir katak orasiga III sinfda esa bir katak orasiga kichikroq qilib yozdiriladi.

Misollarni ishlash vaqtida raqamlar va matematik amallarning belgilari o‘z o‘rnida bo‘lishi, kataklarni ortiqcha qoldirib ketmaslik, belgilar bilan sonlarni qo‘shib yubormaslik lozim. Har bir raqam va har belgining o‘z o‘rnida bo‘lishi misolning to‘g‘ri echilishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Harflarga o‘xshash raqamlar ham guruhlarga ajratib yozishga o‘rgatiladi. Raqamlar asosan 3 guruhga bo‘linadi.

Birinchi guruh raqamlar (1, 4, 7). Harflarga o‘xshash raqamlar ham bir tomonga 65° qiya qilib yoziladi. 1 raqamining yozilishini quyidagi shakldan ko‘rish mumkin (bu raqamni yozishda qo‘l harakati uzilmaydi).

4 raqami uchta to‘g‘ri chiziq unsuridan iborat: birinchi unsuri qiya chiziq bilan boshlanib, keyin shu chiziqning davomidan yana gorizontal unsur davom ettiriladi. Uchinchi unsuri esa qiya tayoqcha shaklida qo‘l harakati uzilib yoziladi:

7 raqami uch unsurdan iborat bo‘lib, birinchi va ikkinchi unsuri bir-biriga qo‘shilib yoziladi, uchinchi unsuri - «belbog‘i» esa kichik gorizontal chiziq shaklida bo‘ladi:



Yuqorida ko‘rsatilgan 1, 4, 7 raqamlarining yozilishini mustahkamlash uchun mashq o‘tkazish kerak.

Ikkinchi guruh raqamlar (6, 9). 6 raqami ikki cho‘zinchoq va yarim cho‘zinchoq doira unsurdan tuzilgan bo‘lib, bu unsurlar bir-biriga qo‘shib yoziladi:



9 raqami 6 raqamining yozilishiga o‘xshash, yarim



cho‘zinchoq doira shaklidagi unsuri past tomonda bo‘ladi:

Uchinchi guruh raqamlar (2, 3, 5, 8, 0). 2 raqami unsurlarga ajratilmay bir butun qilib yoziladi:

3 raqami ikki unsurdan iborat bo‘lib, ikkala unsuri qo‘l harakati uzilmay bog‘lab yoziladi.:

Bu raqamning yuqoridagi yarim cho‘zinchoq doira unsuri kichikroq bo‘lsa chiroyli ko‘rinadi.

5 raqami uch unsurdan iborat bo‘lib, birinchi unsuri 7 raqamining birinchi unsuriga o‘xshash, ikkinchi unsuri esa kichik tayoqcha, uchinchi unsuri 3 raqamning ikkinchi unsuriga o‘xshash yoziladi:

8 raqami unsurlarga ajratilmay bir butun shaklda yoziladi:

Bu raqamni yozishga o‘rgatishda qo‘l harakatining qayerdan boshlanishini o‘quvchilarga aniq ko‘rsatish lozim. 8 raqamining yuqoridagi cho‘zinchoq doira qismi pastki cho‘zinchoq doira qismiga nisbatan bir muncha kichikroq bo‘ladi.

0 (nol) kichik 0 harfiga o‘xshash cho‘zinchoq doira shaklida yoziladi:

Matematik belgi va raqamlarni to‘g‘ri yozing



Qo‘shish



Ayirish



Ko‘paytirish



Bo‘lish



Shakllarni chizishni o‘rganing



O‘quvchilarga raqamlar bilan birga matematik amal va taqqoslash belgilarining yozilishini ham ko‘rsatib o‘tish lozim:

Tinish belgilarini yozishga o‘rgatish. Tinish belgilari, asosan qo‘shma gap tarkibidagi ayrim sodda gaplarni, gapning ajratilgan ikkinchi darajali bo‘laklari va uyushiq bo‘laklarni, kirish so‘z va gaplarni ajratish uchun ishlatiladi. Bu gaplar esa ayrim gap va gap bo‘laklarini grammatik ifodalanishiga, mazmunga va ohanglariga ko‘ra bir-biridan ajratiladi.

Hozirgi o‘zbek yozuvida o‘n xil tinish belgi ishlatiladi:

1. **.** (nuqta). 2. **?** (so‘roq belgisi). 3. **!** (undov belgisi). 4. **…** (ko‘p nuqta).
5. **,** (vergul). 6. **;** (nuqtali vergul). 7. **:** (ikki nuqta). 8. **–** (tire). 9. **( )** (qavs). 10. **“ ”**, « » (qo‘shtirnoq).

Tinish belgilari qoidalari tizimini tilshunoslikning punktuatsiya bo‘limi o‘rgatadi.

Quyida qo‘l yozma ishlarda tinish belgilarining qanday qo‘yilishini ko‘rsatib o‘tamiz.

Nuqta yozma va bosma tekstlarda daftar chizig‘ining ustiga dumaloq

shaklda qo‘yiladi.

So‘roq belgisi nuqtadan boshlanib, yarim doira va egri chiziqdan iborat bo‘ladi, egri chiziqning oxirgi qismi ingichkalashib boradi. Egri chiziqchaning ostidagi nuqta daftar chizig‘ining ustiga qo‘yiladi.

Undov belgisi yuqori qismi bilan yoziladigan to‘g‘ri tayoqcha va nuqtadan iborat bo‘lib, to‘g‘ri tayoqchaning oxirgi qismi ingichkalashib boradi, to‘g‘ri tayoqcha ostidagi nuqta daftar chizig‘ining ustiga qo‘yiladi.

Ko‘p nuqta (odatda ketma-ket qo‘yiladigan uchta nuqta) daftar chizig‘ining ustiga qo‘yiladi. Agar ko‘p nuqta so‘roq va undov belgisidan keyin qo‘yilishi kerak bo‘lsa, so‘roq yoki undov belgisidan keyin faqat ikkita nuqta qo‘yiladi.

Vergul nuqta bilan boshlanib, uning nuqtasi daftar chizig‘ining ustida, oxirgi qismi esa ingichkalashib, chiziqdan pastga tushadi.

Nuqtali vergulning nuqtasi vergulning ustiga qo‘yiladi.

Ikki nuqtaning ostidagi nuqta daftar chizig‘ining ustiga qo‘yiladi.

Tirening uzun-qisqaligi matematikadagi minus (ayiruv) bilan teng bo‘lib, daftar chizig‘idan bir oz yuqoriga qo‘yiladi.

Ayrim o‘quvchilar **tire** bilan orfografik belgi hisoblanadigan **chiziqchani (defisni)** farq qilmaydilar, ya’ni bularning har ikkisini bir xil kattalikda qo‘ya beradilar. Bu kamchilikning oldini olish zarur, chiziqcha (defis) tirening uchdan bir qismi bo‘lishi kerak.

Qavs uch xildir: kichik qavs, o‘rta qavs, katta qavs. Bularning hammasi matematikada qo‘llaniladi. Xatda esa tinish belgi sifatida asosan kichik qavs ishlatiladi.

Ochiladigan va yopiladigan qavslarning o‘rta qismi yarim doira shaklida yoziladi. Kichik qavsning uchdan bir qismi daftar chizig‘ining

ostiga tushib turadi. Qo‘shtirnoq odatda ikki xil (yozma va bosma shakli) qo‘yiladi. Yozma qo‘shtirnoq qo‘shaloq vergulga o‘xshab ochiladi, yopilishida esa teskari qo‘shaloq vergul tarzida qo‘yiladi.

Qo‘shtirnoqning bosma shakli matematikadagi kichik va katta belgilarning qo‘shaloq shakliga o‘xshaydi, u bosma tekstlarda qo‘llanadi.

Bolalarning yozma ishlarida qo‘shtirnoqning yozma shakli ishlatilishiga erishish lozim, buning uchun maxsus mashq o‘tkazib, qo‘shtirnoqning yozma va bosma shakllarini eslatib turish kerak.

Har bir tinish belgisi aniq va chiroyli qilib qo‘yilib, harflarning moyilligiga muvofiq, o‘ng tomonga qiya bo‘lib turishi zarur; bo‘yi, katta-kichikligi esa harflarga monand bo‘ladi.

Shunday qilib, husnixat qoidalariga faqat harflarni yozishdagina emas, balki
tinish belgilarini qo‘yishda ham rioya qilish zarur.

Savol va topshiriqlar

1.Uchinchi sinflarda husnixat darslari qanday tashkil etiladi?
2.To‘rtinchi sinflarda husnixat darslari qanday tashkil etiladi?
3.Nega biz raqamlarni aniq va chiroyli yozishga o‘rgatishimiz lozim?
4.Tinish belgilarini yoshish metodikasi borasida gapirib bering.

12-MAVZU: HUSNIXAT DARSLARIDA AXBOROT VA ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

Reja:

1. Husnixat darslarida pedagogic texnoloiyalarning o‘rni.
2. Husnixat darslarida axborot texnologiyalardan foydalanish usullari.

Tayanch so‘zlar: *husnixat darslari, ilg‘or-pedagogik texnologiyalar, information texnologiyalar, electron doska, kompyuter, SMART, kompyuterlashtirilgan ta’lim.*

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi.Darslik. –T.: TDPU, 2013. – 70 b.

2. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Sobirova N. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. - T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2008.

3. Adizova N.B., Adizova N.B. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Buxoro: “Durdona”, 2021. -112 b.

4. Adizova N.B, Jumayev R.X., Qo‘ldoshev R.A., Ismatov S.R. Ona tili o‘qitish metodikasi. Buxoro. Durdona.: 2021. -292 b.

5. Safarova R va boshq. Alifbe. - T.: “O‘qituvchi” , 2020

6. H.Bakiyeva, N.Ahmedova, N.Azizova, D.Nosirova, B.Teshaboyeva, U.Ismoilova, B.Egamberdiyeva “Savodga o‘rgatish darslari”.-T.: “Extremum- press”, 2014. -119 b.

7. Safarova R., G‘ulomov M., Inoyatova m. Savod o‘rgatish darslari. 1-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.-T.: “Tafakkur”, 2012.-141 b

8.Azimova I, Mavlonova K, Quronov S, Tursun Sh. “Ona tili va o‘qish savodxonligi ” 1- sinf uchun darslik.I-II qism. “Yangiyo‘l poligraf servis” MCHJ nashriyoti. 2021-yil. 208 b

9.PIRLS 2021 Assessment Frame work. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association forthe Yevaluationof Yeducational Achievement (IEA), TIMSS& PIRLS International Study Center, Lynch School of Yeducation, Boston College. 2019. www.timssandpirls.bc.edu

Axborot manbalari

1.www. tdpu. Uz
2.www. pedagog. Uz
3.www. Ziyonet. Uz
4www. yedu. Uz
5.tdpu-INTRANET. Ped tdpu-INTRANET. Ped

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017-yil 29-noyabr kuni “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi. Farmonda qayd etilishicha, zamonaviy sharoitlarda jahon fani va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishning, mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo‘lib bormoqda. Shu bilan birga, mamlakatimizda mavjud tizimli muammolarning mavjudligi, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni

ishlab chiqish va joriy etish uchun mavjud imkoniyatlar va salohiyatdan yetarlicha foydalanmaslik koʻzlangan islohotlarning samarali amalga oshirilishiga hamda mamlakatning jadal innovatsion rivojlanishiga toʻsqinlik qilmoqda. Farmon bilan Oʻzbekiston innovatsion rivojlanishining asosiy yoʻnalishlari belgilab olindi.

Mamlakatimiz yuqori texnologik sohalar boʻyicha dunyodan ortda qolib ketgan. Barcha sohalarni modernizatsiya qilish, jahon bilan hamqadam boʻlish uchun Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etib, shunday sharoitlar yaratdik. Bu jamoa yil yakuni boʻyicha bu borada aniq amaliy natijalarni koʻrsatishi kerak, - deya ta'kidladi prezintimiz Shavkat Mirziyoev.

Informatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi keyingi yillar ichida insoniyat shaxsining shakllanishiga ma'lum darajada iz qoldirdi. Yangi axborotlar, reklamalarning tezda kirib kelishi, televideniyada kompyuter texnologiyalarining qoʻllanishi, elektron oʻyinchoqlar va kompyuterlarning keng tarqalishi bola tarbiyasiga ta'sir koʻrsatmoqda. Natijada u yaxshi koʻrgan oʻyinlar, sevimli qahramonlari va qiziqishlari ham oʻzgaradi.

Eskirgan oʻquv dasturlari va metodik usullar oʻquvchilar bilimining pasayishiga olib keladi. Oʻqituvchilardan esa oʻqitishning yanada zamonaviy usul va vositalarini izlashga undaydi. Bunday vositalardan biri bu kompyuterdir.

Televizor, videomagnitafon, kitoblar imkoniyatlarni mujassamlashtirib, universal oʻyinchoq hisoblanib, turli xil oʻyinlarga qodir boʻlgan zamonaviy kompyuter shu bilan birga bola uchun uning savol va harakatlariga javob bera oladigan teng huquqli hisoblanadi. Maktabning oʻquv va oʻquv jarayonidan tashqari faoliyatida kompyuterlarning qoʻllanilishi bolada oʻqish motivatsiyasi oʻsishining va ijodiy imkoniyatlari rivojlanishining samarali xususiyatlaridan biridir.

Bir qator pedagoglar boshlangʻich sinf oʻquvchilarida kompyuter savodxonligining rivojlanishiga ikkilanadilar. Ularning ba'zilari kompyuterlar faqat sinfda bolaning e'tiborini chalgʻituvchi yana bir vosita deb hisoblasalar, boshqalari esa hisoblash texnikasi sohasida jiddiy professional tayyorgarliksiz oʻqituvchilarning darslarda kompyuterlardan foydalanishi va kompyuter savodxonligiga bolalarni oʻrgatish mumkin emas deb ta'kidlaydilar. Uchinchilari esa kompyuterlardan doimiy foydalanish maktabda shunday bir holatga

olib keladiki, unda insoniyat kompyutersiz sonlarni na qo‘shish, na hisoblay olishga qodir bo‘lishi xavfini ifodalaydilar. Yana bir muhim qarshilik mavjud bo‘lib, u bolalarning bir-biri bilan kam muloqotda bo‘lishi muammosidir. Chunki kompyuter zamonida ular vaqtlarining ancha qismini kompyuterda o‘tkazishadi.

Falsafa shundaki, innovatsion ta’lim sharoitida hatto boshlang‘ich ta’lim sohasini ham informatsion asrga adaptatsiyalanishidan boshqa chorasi yo‘q. Hisoblash texnikasi bilan tanishish bunday adaptatsiyaning faqat bir qismi sanaladi. Innovatsion ta’lim sharoitining asosiy maqsadi shundaki, bolalarni axborot-ma’lumotlarni qayta ishlashga o‘rgatish, topshiriqlarni bajara olishga, insonlar bilan muloqot qilish va jamiyatdagi o‘zgarishlar mohiyatini tushinishga o‘rgatish zarurdir. Kompyuter maqsadlari matematika, ijtimoiy fanlar, tabiyot va ona tili darslarida amalga oshirilishi lozim. Bunday integratsiya 1 yil davomida tugatilishi yoki bir qaysidir loyihani amalga oshirilish natijasi bo‘la olmaydi. Aksincha, bu oxiri yo‘q jarayondir. U o‘quv jarayonini umumiy kompyuterlash maqsadlarining birligini o‘z ichiga oladi. Uning amalga oshirilishi ma’muriyat, o‘qituvchi va pedagoglarning hamkorlik ishi natijasida erishish mumkindir. Kompyuterlashtirishning sotsial qirralari, asosiy usullar va vazifalar yechimidagi yondashuvlar, ma’lumotlarni qayta kompyuterda ishlash usullari sekin-asta murakkablashadi va matematika, tabiyot, ijtimoiy fanlar va ona tili darslarida turli usullar bilan muhokama etiladi. Bunday vaziyatda kompyuter o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida axborot-ma’lumot almashish vositasi bo‘lib qoladi.

O‘quv-tarbiyaviy jarayonda kompyuterlarning qo‘llanishi diapazoni juda katta: kompyuter ham ta’lim obyekti, ham ta’lim vositasi (usuli)dir. Ya’ni kompyuterlashtirish ta’limotining 2 yo‘nalishi bo‘lishi mumkin: informatika o‘rganish va turli predmetlarni (fanlarni) o‘rganishda undan foydalanish. Bunda kompyuter ta’lim, o‘rganish samaradorligining oshirilish usuli hisoblanadi. Kompyuter o‘quv ma’lumotlarini taqdim etish imkoniyatlarini ancha kengaytirdi. Rang, grafika, tovush, videotexnikaning zamonaviy vositalarini qo‘llash turli holat va muhitni modellashtirishga imkon beradi.

Kompyuter o‘quvchi motivatsiyasini kuchaytiradi. Kompyuterda ishlab turib, o‘quvchi topshiriqning yechimini kerakli yordamga tayangan holda oxirgacha yetkazish imkoniga ega bo‘ladi.

O‘quvchi bajarayotgan topshiriqlarning tiplari anchagina kengayadi: tuzish, dasturlash va hokazo.

Kompyuter o‘quvchi faoliyati ustidan nazoratni sifatli o‘zgartirishga imkon beradi, kompyuter barcha javoblarni tekshiradi, ko‘pgina hollarda esa nafaqat xatoni hisobga olib ko‘rsatadi, balki uning paydo bo‘lish sababini o‘z vaqtida aniqlab, bekor qilish uchun xarakterini aniq belgilaydi. Kompyuter o‘quvchilarga “2” baho qo‘ysa, ular tezda buni tuzatishga shoshiladilar. O‘qituvchi o‘quvchini tartib-intizom va e’tiborli bo‘lishga chaqirishi shart emas. Chunki ekranda 2-3 daqiqadan so‘ng keyingi topshiriq paydo bo‘ladi.

Kompyuter o‘quvchilarda o‘z faoliyatlari refleksiyasining shakllanishiga yordam beradi. Kompyuter texnikasining qo‘llanilishi darsni yanada qiziqarli, zamonaviy qiladi, individual o‘rganish sodir etiladi, nazorat va yakuniylarni xulosalash, o‘z vaqtida va obyektiv bo‘ladi.

O‘quvchi shaxsining ehtiyojlari, qiziqishlarining rivojlanishi va shakllanishi turli usullar bilan, shuningdek, tasviriy san’at usullari bilan ham amalga oshiriladi.

O‘quvchilar mustaqil tasviriy faoliyat bilan birga rasmlar, haykallar, arxitektura va dekorativ-amaliy san’at asarlarini qabul qilishga tayyor bo‘lgandagina muvaffaqiyat bo‘lishi mumkin.

Boshlang‘ich maktab o‘qituvchisi bolalarni o‘qishga o‘rgatishi, ularning bilish ehtiyojlarini rivojlantirishi shart. Zaruriy ilmiy asoslarni o‘zlashtirib olish uchun bilish vositalarini ta’minlashi lozim. Shuning uchun asosiy maqsadlardan biri o‘quv-biluv jarayonlarini rivojlantirishdir. O‘quv-biluv faoliyati biluv jarayonlarini, mantiqiy fikrlashni, e’tiborni, xotirani, nutqni, tasavvurni rivojlantiradi, o‘qishga bo‘lgan qiziqishni qo‘llab-quvvatlaydi. Bu barcha jarayonlar o‘zaro bog‘liqdir.

Elektron interfaol doska – bu sensorli kompyuterga ulangan ekran bo‘lib, kompyuterga ishni boshlash uchun interfaol doska yuziga qo‘l tegizsangiz bo‘ldi u ishlab ketadi.

SMART Notebook nomli maxsus ta’minlash dasturi esa interfaol doskalarda ishlashni osonlashtiradi, matnlar va audio - videomateriallar ustida ishlashni ta’minlaydi.

SMART Technologies Inc. (www.smarttech.com) kompaniyasi 1991- yil birinchi interfaol doskani chiqardi. Shundan beri **SMART** mahsuloti butun dunyoda cheksiz muvaffaqiyat qozondi.

Doska (sinf taxtasi) taraqqiyotining eng yuqori cho‘qqisi bu elektron interfaol doskalar hisoblanadi. Bu doskalar ham xuddi oddiy doskalarga o‘xshaydi. Lekin unga har nima yozilsa tezda shaxsiy kompyuter ekraniga chiqadi. Yozilgan informatsiya fayl shaklida saqlanadi hamda printerdan chiqarilishi mumkin. Elektron doskalarning eng yaxshi tomoni shundagi unda animatsiyalar imkoniyati juda yuqori. Rasm chizish, qo‘shish, ma’ruza matnlarini tayyorlash va boshqa shunga o‘xshash ishlarni rangli va animatsiyalar yordamida tez va sifatli bajarish imkoniyati mavjud.

Rossiyaning umumta’lim maktablarida 1996 yildan beri bu doskalardan foydalanadilar. Mazkur doskalardan boshlang‘ich sinflarda keng foydalanish yaxshi samara beradi.

Ustozlarimiz uchun ham bu doska katta imkoniyatlar eshigini ochib beradi. Masalan, birinchi sinflarda grafik malakalarni shakllantirish jarayonini ushbu doska orqali qiziqarli va samarali tashkil etish mumkin.

Birinchi sinfda yozuv mashqlarini tashkil etish birmuncha murakkab. Bu uchun birinchi navbatda tayyorgarlik mashqlarini yaxshi tashkil etish zarur. Oddiy doskada tayyorgarlik mashqlarini bajarish uchun o‘quvchilarni qora va rangli bo‘rlar bilan ta’minlash lozim. Agar elektron interfaol doskadan foydalanilsa bo‘r va lattaga umuman hojat qolmaydi. Elektron doskalarda xohlagan narsani xohlagan rangda yozish mumkin. Bu ham ortiqcha mehnat va pulni tejaydi, tozalik gigienasini ta’minlaydi hamda o‘quvchilar qiziqishini yuqori darajaga ko‘tarib, samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Grafik malakalarni shakllantirish uchun yaratiladigan mashqlarni ma’lum darajada guruhlarga bo‘lib, avval sodda, keyin murakkabroq mashqlarni bajarish lozim. Masalan, birinchi guruh mashqlarida o‘quvchilar chiziq ustida muayyan masofalarda nuqta qo‘yib chiqish mashqini bajarishlari kerak. Bu hol o‘quvchilarga zerikarli tuyuladi. Shu bois o‘qituvchi rangli bo‘rlardan foydalanib, ular qiziqishini oshirar edi.

Elektron doskalarda esa bu ish oddiy tus oladi. O‘quvchi nuqtalarni xohlagan rangida yozishi mumkin. Masalan, birinchi nuqtani ko‘k rangda, ikkinchisini qizil rangda, uchinchisini yashil rangda va hokazo. Tayyorgarlik mashqlari sirasiga turli xildagi geometrik figuralar, bayroqchalar, daraxtlar maketi, turli shakl va hajmdagi tayyoqchalarni chizish ham kiradi. Bu ishlarni elektron doskalar yordamida tez va sifatli tarzda o‘quvchilarga o‘rgatish mumkin. Masalan doskaning bir burchagida chizilgan kichik ilmoqchani sinf oxirida o‘tirgan o‘quvchi yaxshi ko‘rolmasligi mumkin. Elektron doska orqali har bir yozilgan va chizilgan narsa xohlagan kattalikda ko‘rsatilishi mumkin. Bu imkoniyat husnixat darslari samaradorligini oshirishga katta yordam beradi. Mazkur doskalarni osonlik bilan bir necha qismga bo‘lib, birdaniga bir necha o‘quvchiga topshiriqni bajartirish mumkin. Bajarilgan topshiriqlar kompyuter xotirasiga kiritilib boriladi. U xohlagan vaqtda orqaga qaytarilib qayta – qayta ko‘rilishi mumkin. Oddiy doskada esa yozilgan narsa o‘chirilsa tamom. Uni qayta ko‘rish imkoniyati yuqoladi. Elektron doskada esa uni xohlagan vaqtda qaytadan ko‘rish va tahrir etish imkoniyati mavjud.

Alifbe davrida bolalarni yozishga o‘rgatish juda muhimdir. Bu davrda o‘quvchilarga harf va uning unsurlari amaldagi “Alifbe” kitobida ko‘rsatilgan tartibda o‘rgatiladi.

Alifbe davrida bajariladigan asosiy grafik ishlar quyidagilardan iborat:

1. Kichik va bosh harflarni alifbe tartibida yozish.
2. Harflarni bo‘g‘in va so‘zlarda qo‘shib yozish.
3. Qo‘l harakatini uzmay yozishga o‘rgatish.
4. Harflarning qiyaligini va enini to‘g‘ri saqlashga o‘rgatish.

Mazkur ishlarni oddiy doska yordamida o‘quvchilarga o‘rgatish o‘qituvchidan katta zahmatni talab etadi. U bu uchun katta hajmdagi ko‘rgazma qurollar tayyorlashi lozim. Agar ushbu ishlar elektron interfaol doskalar yordamida o‘quvchilarga tushuntirilsa samarasi yuqori bo‘ladi, ham o‘qituvchining mehnati ancha yengil bo‘ladi. Ijodkor o‘qituvchi elektron doskalardan juda yaxshi foydalanishi mumkin.

Mazkur doska yordamida “Alifbe” darsligining xohlagan varaqi va yo sahifasini o‘quvchilarga kattalashtirilgan holda ko‘rsatish mumkin. Unda har bir o‘tilishi lozim bo‘lgan harfni unsurlarga bo‘lib o‘tish imkoniyati nihoyatda kattadir.

Ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi sinflarda ham o‘quvchilarni chiroyli yozishga o‘rgatishga elektron interfaol doskalardan foydalanish mumkin.

Grafik malakalarni shakllantirish jarayonida ***elektron slayd***lardan foydalangan holda mashg‘ulotlarni ham samarali va ham qiziqarli tashkil etish hamda o‘tkazish mumkin. Elektron slaydlar kompyuter orqali tayyorlanadi. Dars mashg‘ulotini ham elektron slayd tarzida tayyorlash mumkin. Bunda turli xildagi animatsiyalardan foydalanish mumkin (1- ilovaga qarang).

Har bir harfni o‘rgatish uchun maxsus elektron slaydlar tayyorlash mumkin. Bu ham qiziqarli ham samarali bo‘ladi. O‘quvchi darsni o‘qituvchi so‘zidan emas, balki kompyuterda chiroyli animatsiyalar bilan jihozlangan o‘yinlar orqali o‘zlashtirib boradi. Umuman olganda husnixat darslarini elektron slaydlar orqali o‘rgatib, yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Pastda elektron doskalardan namunalar berilgan:



Darsda ishni savodli tashkil etish o‘quvchini darsga qiziqtira bilish uchun sharoitlar yaratish o‘qituvchiga badiiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlarni qo‘llashga yordam beradi. Darslarning bunday tashkil etilishi qisqa muddat ichida bolalarga maktabgacha bo‘lgan yoshlarida ma’lum bo‘lgan tasviriy usullarni eslash va mustahkamlashga yordam beradi.

Oliy ta’lim tizimida amalga oshiriladigan eng dolzarb muammolardan biri yetuk, komil inson yetishtirib chiqarishdir. Bu maqsadni amalga oshirishda ona tili o‘qitish usuliyoti fanining ham o‘z o‘rni mavjud. Tilshunoslikdan olingan nazariy bilimlarni yosh avlodga yetkazish usullarini o‘rgatuvchi fan ona tili o‘qitish usuliyotidir. Shuning uchun ham ushbu fandan samaradorlikni oshirish maqsadida hozirgi zamon axborot texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirishi zamon talablariga javob beradigan sifatli o‘quv-uslubiy, ilmiy adabiyotlar, darsliklarning elektron versiyalarini ishlab chiqishdan iborat. Elektron darsliklar kompyuter texnologiyasiga asoslangan ko‘p axborotli ko‘rinishda: matnli, ovozli, video va multimediyali bo‘lishi talabalar uchun ona tili o‘qitish usuliyoti darslarini yanada chuqurroq o‘zlashtirish imkoniyatini yaratadi. Tovush tizimi va uning hosil bo‘lishida tovush apparatlarining ishtirok etish jarayonini talabalar multimediyali elektron darslik va axborot texnologiyalari yordamida hosil bo‘layotgan tovushning boshqa tovushlardan o‘xshash va farqli tomonlari xususida chuqur ma’lumotga ega bo‘ladi. Shuningdek, tovush apparatlarining savod o‘rgatish jarayonidagi ahamiyati rivojlanganlik darajasini ko‘rsatishda ham qator afzalliklarga ega. Ushbu fan yuzasidan biz har bir bo‘limni o‘z ichiga qamrab oluvchi elektron darsliklar yaratishni maqsad qilib qo‘yganmiz. Bu borada qator ishlarni amalga oshirga harakat qilyapmiz. Grammatik tushunchalarni o‘zlashtirishdagi samarador usullar haqida yetarli darajada to‘liq va aniq tasavvur olishda elektron darsliklarning o‘rni ulkan ahamiyat kasb etadi. Grammatik tushunchalarni o‘zlashtirishni quyidagi tartibda amalga oshirish mumkin:

1. Tovush, harf, so‘z. 2. So‘z turkumlari. 3.Uslubiyat va tinish belgilari.

Bu uchala tipdagi tushunchalar butun tilshunoslik bo‘limlarini o‘ziga birlashtirib olgan. Har birining o‘ziga xos xususiyatlarini

inobatga olib, uni multimediyali tasvirlardan foydalanib muhokama etilganda talabalarda ko‘proq tushunchalar hosil bo‘ladi.

Yelektron darsliklarning an’anaviy, bosma shaklda tayyorlangan adabiyotlardan afzalligi shundaki, ulardan kompyuterlar orqali masofali o‘qitish va o‘qish jarayonlarida keng foydalanish mumkin. O‘z navbatida talabalar mustaqil ravishda ulardan foydalanib darslarga avvaldan tayyorgarlik ko‘rishlari va hatto bir bo‘lim uchun tayyorlangan test majmualari asosida o‘z bilim darajasini aniqlash imkoniga ega bo‘ladi.

Buning uchun, avvalo, o‘qituvchining o‘zi kompyuter, elektron darslik va internet haqida tushunchaga ega bo‘lishi va ulardan foydalanishni bilishi lozim. Shunda o‘qituvchi darsni zamon talablari asosida o‘qita oladi, avlodni yangicha o‘qitish tizimi sari yetaklaydi. O‘zbekiston Respublikasining 2001- yil 23- maydagi “2001–2005 yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish “Internet”ning xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishini ta’minlash dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 230- sonli qarori fikrimiz dalilidir.

Uzliksiz ta’limning ilk bosqichlaridan boshlab o‘quvchilarga kompyuter, elektron darslik va internetdan foydalanish malakasini shakllantirish o‘quvchini uzluksiz ta’limning keyingi bosqichlarida bulardan mukammal foydalanishni o‘rgansa ularning bilim va malakasini oshirishiga zamin yaratadi.

Dunyoni o‘z qamroviga olgan, hayotning hamma sohasiga kirib kelayotgan kompyuter texnologiyasi xoh u telekomunikatsiya bo‘lsin, xoh u tibbiyot sohasi bo‘lsin, xoh u ishlab chiqarish korxonalari bo‘lsin kompyuter texnologiyasidan foydalanib, ishning samaradorligini oshiryaptilar. Shunday ekan, boshlang‘ich sinfda o‘qiyotgan bola ertaga kim bo‘lishi, qaerda ishlashi (telekomunikatsiya, tibbiyot, ishlab chiqarish va hokazolar)dan qat’iy nazar kompyuterlar bilan ishlashni bilish zarurati paydo bo‘layapti. Agar u kompyuterni boshqarolmasa qancha nazariy bilimi bo‘lishidan qat’iy nazar u bilimini amalga tadbiq etolmay ishdan bo‘shaydi, yo kompyuter boshqarishni o‘rganib, ishini davom ettiradi. Hadisi sharifda shunday: “Yoshlikda olingan ilm, toshga o‘yilgan naqshdir” deyiladi. Darhaqiqat, shunday ekan, boshlang‘ich sinflarda kompyuter yordamida dars tashkil etilsa, o‘quvchilar yoshligidan kompyuter haqida ma’lumotga ega bo‘lib dars samaradorligi ham oshadi. Buning uchun o‘qituvchilardan

izlanuvchanlik bilan bir qatorda kompyuter haqida ma’lumotga ham ega bo‘lishi va undan foydalana olishlari lozim. Darslarni kompyuterlashgan tizim asosida tashkil etish bugungi yoshlarimizning ertangi hayotidagi ayrim kamchiliklarning oldini olib (ishga borgach kompyuter bilan ishlashi), ularning o‘zlari tanlagan sohaning ravnaqiga hissalarini qo‘shishga zamin yaratadi. Bu ishni, avvalo, maktabgacha bo‘lgan ta’lim muassasalarida ham joriy etish lozim.

«Ta’lim to‘grisida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning talablariga binoan jahon ta’lim standartlariga to‘la javob bera oladigan barkamol avlodni tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. 2004-2009- yillarda maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturining qabul qilinishi ham bejiz emas, albatta. Davlatimizning bu Qonun va dasturlarini so‘zsiz, muvaffaqiyatli bajarish uchun biz ishni boshlang‘ich sinflardan, ayniqsa, uning poydevori hisoblanmish savod o‘rgatish davridan boshlashimiz lozim.

Bola orziqib kutilgan kun kelib u maktabga qatnay boshlaydi. Unga maktabda va sinfda bo‘layotgan har bir harakat qiziqarli tuyuladi. Shuning uchun u bu harakatlardan o‘yin elementlarini axtaradi. Bu besabab emas, albatta. U hali o‘yinqaroq bola, o‘quvchi bo‘lib to‘liq shakllanishiga ancha vaqt bor.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning o‘yin faoliyatini o‘qish faoliyatiga o‘tkazish birdan bo‘ladigan didaktik jarayon emas. Bu ikki faoliyatni alohida-alohida olib borib ham bo‘lmaydi, chunki bolaning o‘yin faoliyatida o‘quv elementlari, o‘quv faoliyatida esa o‘yin elementlari mavjud. Shuning uchun bolani zeriktirmasdan darsni zamonaviy pedagogik texnologiya, kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun amaliyot davridan boshlab talaba-bulg‘usi o‘qituvchi unimli foydalanishni o‘rganishi lozim. Shu maqsadda bizlar boshlang‘ich sinfning savod o‘rgatish davridan boshlab kopmyuter texnologiyalari asosida elektron darslik, prizentatsiya, animatsiya va didaktik o‘yinlar asosida darslarni o‘tishni taklif etmoqchimiz.

Boshlang‘ich sinf savod o‘rgatish davridan boshlab o‘quvchilarni yangicha ruhda, zamon bilan hamnafaslikda, sodda, qiziqarli darslarni joriy etish lozim. Buning uchun kompyuterlar yordamida darslarni juda katta natijalar bilan tugatish mumkin. Savod o‘rgatish davriga nazar tashlasak bolalar, asosan, o‘yin faoliyati bilan

tanish, o‘rtoq baladilar. Ularni zeriktirish katta xato bo‘lib, bu hatto bolaning ruhiy faoliyatiga ham ta’sir ko‘rsatishi ehtimoldan xoli emas.

Kompyuter texnologiyasining o‘zi bola uchun qiziqarli narsa. Unda bajaradigan amallar, o‘yinlar undan ham qiziqarli bo‘ladi. Demak, bola zerikmay kompyuterlashgan ta’limga qiziqishi tabiiy. Kompyuterdan dars jarayonida qanday foydalanish mumkin? u orqali qanday elektron darslik, animatsiya, prizentatsiya va didaktik o‘yinlarni tashkil etish mumkin? yoki lozimligi borasida fikr yuritmoqchimiz.

Bizlarga ma’lumki, savod o‘rgatishning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu bolalarning beg‘ubor, toza xotirasiga (biz uni ko‘pincha oq qog‘ozga o‘xshatamiz) ilmlar kaliti bo‘lgan harflarni muhrlashdir. Endi shu jarayonga batafsilroq to‘xtasak. O‘qituvchi dars jarayonida har bir harfni o‘qitish uchun sinf taxtasiga o‘sha harfni yozadi va talaffuz qiladi. Bu bilan o‘sha harfni bola xotirasiga poydevor etib joylashtiradi. Endi bir tasavvur eting: O‘zbekistonning minglab sinflarida minglab o‘qituvchi bolalarga savod o‘rgatish bilan band. Xo‘sh, ularning husnixati (chiroyli yozuvi kolligrafiyasi) va talaffuzi (ovozlarning talaffuz qilishi qobiliyati) bir xil yoki davlat standarti talablariga to‘la javob beradi, deb kim ayta oladi. Yoki o‘qituvchi biron bir sabab bois, harfni to‘g‘ri yozib yoki talaffuz qila olmaydi. Bu nazarga ilmaydigan, oddiydan tuyulgan kamchiliklar tilning ravnaqi, ravonligiga, albatta, salbiy ta’sir qiladi. Kompyuter esa bu kamchiliklardan xolidir.

Agar shu jarayonda elektron darslik yaratilsa, har bir harfning boshlang‘ich yozish elementlaridan boshlab yozishni qaerdan boshlab qaerga tugatishni, ovozlar talaffuzini bola katta ekranda standart holda ko‘rsa va eshitsa, bu til va millat uchun katta muvaffaqiyat bo‘ladi. Chunki endi butun respublikamiz maktablarida savod o‘rgatish davrida bolalar bir xil standart harflarni yozish va talaffuz qilishni o‘rganadilar. O‘qituvchi esa ortiqcha harakat va vaqt sarflashdan ozod bo‘lib bolalarni faol nazorat qilib har bir o‘quvchi bilan yakkama-yakka ishlay oladi.

Hozirgi kunda respublikamizda ta’limni kompyuterlashtirishga qancha e’tibor berilsa, ta’limning samarasi muvaffaqiyatli bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflarda kompyuter texnologiyasi asosida tashkil etish mumkin bo‘lgan dars namunalari ilovada keltirilgan.

O‘yinning borishi. Ma’lum bir so‘z berilgan bo‘lib ulardan ayrim harflari yashirib qo‘yilgan. Masalan, “Kitob” so‘zini olsak “K tob”

yozilib “i” harfi yashirib qo‘yilgan bo‘lib, o‘quvchilardan yashiringan harfni topib so‘zni o‘qish talab qilinadi. Bu o‘yinni kompyuter yordamida tashkil etish ko‘pgina afzallik va qulayliklar yaratadi. O‘quvchilarning o‘z ustiga mustaqil ishlashni o‘rganishi, mustaqil fikrlashlari va ishining natijasi ya’ni xatosini tahlil etib kompyuter baholashi yangi avlodning zamonaviy tafakkurini boyitishga katta zamin bo‘lib xizmat qiladi.

“O‘z-o‘rningni top” o‘yini

O‘yinning borishi. O‘qituvchi bolalarga xohlagan bir so‘zni yo gapni aytadi, masalan, “Vatan” so‘zi aytilib kompyuterlarga kiritiladi. O‘quvchilar har bir harfni ekranga chiqarish uchun bir amalni bajarishlari lozim bo‘ladi. Masalan, “V” harfini chiqarish uchun qanday amal bajarishdan qat`iy nazar, natijasi 21 chiqishi lozim. Chunki “V” harfi alfavitda 21- o‘rinda joylashgan. Shunday qilib, o‘quvchi “Vatan” so‘zini ekranga chiqarish uchun beshta amal bajaradilar. Qaysi o‘quvchi tez va to‘g‘ri bajarsa, kompyuterda ma’lum bir kuy bilan o‘quvchi taqdirlanadi va o‘qituvchi qaysi o‘quvchi topshiriqni birinchi bo‘lib bajarganini aniqlaydi. O‘yin davomida yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni kompyuter tahlil etadi.

Bu o‘yin husnixat va matematika darslarining o‘zaro uyg‘unligi, bog‘liqligini ta`minlaydi. Bola bu o‘yinni aynan kompyuterda bajarsa, yaxshi natija beradi. O‘yin jarayonida nafaqat matematik ifodalarni tuzib yechish, balki lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosiga joylashgan harflarning nomi va o‘rni xotirasiga muhrlanadi. Ular alfavitda qaysi harf qaerda, nechanchi o‘rinda joylashganini ham xotiralarida saqlab qoladilar. Bu bilan birga ko‘paytirish, bo‘lish, sonlarning yig‘indi va ayirmasini topish jadvalini o‘zlashtiradi.

Savol va topshiriqlar

1. Alifbe davrida bajariladigan asosiy grafik ishlarni bilasi?
2. Husnixat darslarida pedagogic texnologiyalarning o‘rni qanday?
3. Husnixat darslarida axborot texnologiyalardan foydalanish usullari haqida fikr yuriting?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi.Darslik. –T.: TDPU, 2013. – 70 b.

2. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Sobirova N. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. - T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2008.

3. Adizova N.B., Adizova N.B. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Buxoro: “Durdona”, 2021. -112 b.

4. Adizova N.B, Jumayev R.X., Qo‘ldoshev R.A., Ismatov S.R. Ona tili o‘qitish metodikasi. Buxoro. Durdona.: 2021. -292 b.

5. Safarova R va boshq. Alifbe. - T.: “O‘qituvchi” , 2020

6. H.Bakiyeva, N.Ahmedova, N.Azizova, D.Nosirova, B.Teshaboyeva, U.Ismoilova, B.Egamberdiyeva “Savodga o‘rgatish darslari”.-T.: “Extremum- press”, 2014. -119 b.

7. Safarova R., G‘ulomov M., Inoyatova m. Savod o‘rgatish darslari. 1-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.-T.: “Tafakkur”, 2012.-141 b

8.Azimova I, Mavlonova K, Quronov S, Tursun Sh. “Ona tili va o‘qish savodxonligi ” 1- sinf uchun darslik.I-II qism. “Yangiyo‘l poligraf servis” MCHJ nashriyoti. 2021-yil. 208 b

9.PIRLS 2021 Assessment Frame work. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association forthe Yevaluationof Yeducational Achievement (IEA), TIMSS& PIRLS International Study Center, Lynch School of Yeducation, Boston College. 2019. www.timssandpirls.bc.edu

Axborot manbalari

1.www. tdpu. Uz

2.www. pedagog. Uz

3.www. Ziyonet. Uz

4www. yedu. Uz

5.tdpu-INTRANET. Ped tdpu-INTRANET. Ped

MUNDARIJA

So‘zboshi 3
1-modul. Husnixatga o‘rgatish metodikasi..... 4
1-mavzu: Husnixatga o‘rgatishning maqsad va vazifalari. 4
2-mavzu: Yozuvlar tarixidan ma’lumot. 8
3-mavzu: Husnixatga o‘rgatish metodikasining shakllanish tarixi..... 29
4-mavzu: Yozuv materiallari va qurollari. Yozuvning gigeyinik shartlari. 41
5-mavzu: Husnixatga o‘rgatish tamoyillari..... 70
6-mavzu: Husnixatga o‘rgatish usullari. 75
7-mazu: Husnixatga o‘rgatishning grafik asoslari. 81
8-mavzu: Husnixatga o‘rgatishning metodik shartlari. 101
9-mavzu: Husnixat darslarida o‘quvchilar yozuviga qo‘yiladigan talablar. 133
10-mavzu: 1-2-sinflarda husnixat darslari. 153
11-mavzu: 3-4-sinflarda husnixat darslari. 167
12-mavzu: Husnixat darslarida axborot va ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish. 175
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati..... 188

Urazbayeva Sabohat Ortiqboyevna

HUSNIXAT O‘QITISH TEXNOLOGIYASI

o‘quv qo‘llanma

Muharrir:	*A. Qalandarov*
Texnik muharrir:	*G. Samiyeva*
Musahhih:	*Sh. Qahhorov*
Sahifalovchi:	*M. Bafoyeva*

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 31.07.2025. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog‘ozi. Bosma tobog‘i 12,0. Adadi 100. Buyurtma №486.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45